Sh.A.Ayupov
M.A.Berdiqulov
R.M.Turgunbayev

MATEMATIK ANALIZ
(FUNKSIONAL ANALIZGA KIRISH)

Toshkent-2014

Matematik analiz (Funksional analizga kirish). O‘quv qo‘llanma. Ayupov Sh.A., Berdiqulov M.A., Turgunbayev R.M. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. 2014.-120 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma pedagogika oliy ta’lim muassasalari 5110100-Matematika o‘qitish metodikasi ta’lim yonalishining «Matematik analiz» fani dasturiga mos yozilgan bo‘lib, bunda funksional analizning asosiy tushunchalari (metrik fazo, chiziqli, normalangan, Gilbert fazolari, ularda aniqlangan operator va funksionallarning xossalari) va ularning variatsion hisobdagi tatbiqlariga oid nazariy ma’lumotlar to‘liq berilgan. Nazariy holatlarni ochib beruvchi misol va masalalar keltirilgan.

Taqrizchilar:
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
fiz.-mat.fanlari doktori R.Abdullayev

Ajiniyaz nomidagi NDPI dotsenti S.Dauenov

O‘quv qo‘llanma OzR OO‘MTV 2013 yil 20-dekabrdagi 484-sonli buyrug‘iga asosan foydalanishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Biz matematik analiz kursida bir oʻzgaruvchili funksiyalarni, R^n fazo va ularda aniqlangan funksiyalarni oʻrgandik, matematik analizning asosiy tushunchasi boʻlgan funksiya tushunchasini kengaytirdik.

Hozirgi zamon muammolariga matematikaning tatbiqi funksiya tushunchasini yana ham kengaytirish zaruriyatini koʻrsatmoqda.

Matematikaning biz oʻrganmoqchi boʻlgan boʻlimi funksional analiz deb nomlanadi. Funksional analiz chekli va cheksiz oʻlchamli fazolarni oʻrganadi. Bu fazolarning elementlari funksiyalar, vektorlar, matritsalar, ketma-ketliklar, umuman olganda boshqa matematik obʼyektlardan iborat boʻlishi mumkin. Funksional analizda matematik analiz, funksiyalar nazariyasi va toʻplamlar nazariyasi, algebra va geometriya metodlari, gʻoyalari birlashib, uygʻunlashib oʻrganiladi. Bunda funksional bogʻlanishlar (funksiyalar) haqida eng toʻliq, chuqur tasavvur beriladi.

Faraz qilaylik, moddiy nuqta tekislikda biror egri chiziq boʻyicha A nuqtadan B nuqtaga qadar harakatlanayotgan boʻlsin (1-rasm). Ravshanki, moddiy nuqtaning harakatlanish vaqti harakat sodir boʻlayotgan egri chiziq koʻrinishiga bogʻliq boʻladi. Shunday qilib, bu misolda biz avval oʻrganilgan funksional bogʻlanishlardan farqli boʻlgan bogʻlanishga duch kelamiz. Bunda argument sifatida egri chiziq nuqtalari, funksiya qiymati esa harakatlanish vaqtini aniqlovchi sondan iborat boʻladi.

2-rasmda koʻrsatilgan minorani qurish uchun qancha material ketishi M va N asoslarni tutashtiruvchi aylanma sirtga bogʻliq boʻladi. Bunda argument sifatida aylanma sirtlar, funksiya qiymati esa kerak boʻladigan material miqdorini ifodalovchi sondan iborat boʻladi.

Savol tugʻiladi. Umuman olganda, elementlari ixtiyoriy boʻlgan biror A toʻplamda funksiya aniqlab boʻladimi? Boshqacha aytganda, A toʻplamni biror sonli toʻplamga akslantirish mumkinmi?

Quyidagi savolni ham qo‘yish mumkin: argumentning ma’lum ma’noda yetarlicha yaqin qiymatlariga funksiyaning istalgancha yaqin qiymatlari mos kelishi uchun nima ishlar qilish zarur?

Ravshanki, so‘ngi xossa juda muhim. Agar A to‘plamda uning elementlari yaqinligini aniqlaydigan qoida yoki limitga o‘tish amalini aniqlaydigan qoida berilgan bo‘lsa, u holda A to‘plamni funksiyaning aniqlanish sohasi deb qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi.



1-rasm



2-rasm

Ushbu qo‘llanmaning maqsadi, birinchidan elementlari orasida masofa tushunchasi kiritilgan to‘plamlarni (metrik fazolar, normalangan fazolar), ikkinchidan fazolarni sonlar o‘qiga akslantirishlar (funksionallar) ning va fazoni fazoga akslantirishlar (operatorlar) ning xossalarini o‘rganishdan iborat.

Kelgusida uzluksiz funksional uzluksiz funksiyalarga xos bo‘lgan ko‘pgina xossalarga ega, operatorlar esa funksiya tushunchasining eng zamonaviy, eng umumiy umumlashmasi ekanligini ko‘ramiz.

Funksional analiz matematikaning alohida bo‘limi sifatida XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida shakllana boshladi. Funksional analizga doir dastlabki ilmiy ishlar italyan matematigi Volterra, fransuz matematigi Puankare va nemis matematigi Gilbertga taalluqlidir. Metrik fazo tushunchasi fanga fransuz matematigi Freshe tomonidan XX asr boshlarida kiritilgan, normalangan fazo tushunchasi 1922 yilda polyak matematigi Banax va unga bog‘liq bo‘lmagan holda amerikalik matematik Viner tomonidan kiritilgan.

Funksional analizning eng muhim, dolzarb yo‘nalishlaridan biri operatorlar algebralari nazariyasi va uning tatbiqlari, Banax algebralari sohasining asosiy qismini tashkil qilib, Respublikamizda keng rivojlantirilmoqda.

Toshkent funksional analiz maktabi vakillarining ko‘plab ilmiy tadqiqotlari, oxirgi 20-30 yil davomida ushbu yo‘nalishga aloqador bo‘lib, aytish mumkinki ko‘plab, chuqur va muhim natijalar olindi.

Banax algebralari nazariyasi bakalavrlar tayyorlash dasturiga kiritilmagan mavzu bo‘lib, magistrlar uchun esa tanishtiruv, umumiy tushunchalarni berish sifatida ozgina berilgan xolos.

Shu sababli ushbu qo‘llanmada Banax algebralari bilan yaxshiroq tanishish va tanishtirish, hamda undagi ba’zi yechilmagan masalalarga e’tibor berish nazarda tutilgan.

Ma’lumki, Banax algebralarining paydo bo‘lishida operatorlar algebrasi asosiy rol o‘ynagan.

Odatda, X chiziqli fazoni Y chiziqli fazoga aks ettiruvchi barcha chiziqli operatorlar to‘plamini $L(X,Y)$ orqali belgilanadi va u chiziqli fazo bo‘ladi.

Agar qaralayotgan fazolar normalangan fazolardan iborat bo‘lsa, u holda uzluksiz operatorlar fazosi haqida fikr yuritish mumkin.

Ikki uzluksiz operatorning yig‘indisi va uzluksiz operatorning songa ko‘paytmasi uzluksiz operator bo‘lishi, chiziqli amallarning uzluksiz ekanligidan bevosita kelib chiqadi.

Agar $X = Y$ bo‘lsa, $L(X, X)$ o‘rniga $L(X)$ yozamiz. $L(X)$ chiziqli fazoda ko‘paytma sifatida operatorlarning kompozitsiyasi, $T \circ S$ olinadi va $L(X)$ algebraga aylanadi. Bu algebrani *chiziqli operatorlar algebrasi* deyiladi.

Operator algebralarining eng muhimlari C^*-algebralar, fon Neyman algebralaridir. Ulardan yanada kengroq tushunchalar yordamida aniqlanadigan, o‘z–o‘ziga qo‘shma operatorlar fazosi va Yordan Banax algebralari (JB-algebralar) hozirgi zamon kvant mexanikasi masalalarining matematik modelini yaratishda, ularga matematik talqin berishda asosiy vazifalarni bajarishi asoslangan (Bu sohadagi batafsil ma'lumotlarni [6], [8], [10] adabiyotlardan olishingiz mumkin).

Bu yo'nalishdagi rivojlanish yarim maydonlar nazariyasi [11] yaratilganidan so'ng kuchayib ketdi.

Kvant mexanikasida fizik sistemaning tasodifiy miqdorlarini biror H, Gilbert fazosida aniqlangan o'z-o'ziga qo'shma operator yordamida tasvirlash mumkinligi operatorlar algebrasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yubordi [12]. Ma'lum bir aksiomalar sistemasini qanoatlantiruvchi, haqiqiy algebra – yordan algebralari yuqoridagi mulohazalar asosida paydo bo'ldi. Bu algebralar asosan algebraistlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik ularga boshqacha yondashuv, ya'ni algebralarda norma, tartib tushunchalarini kiritib Banax algebralari kabi tadqiq qilina boshlandi.

O'zbekistonda funksional analizning rivojlanishi, uning g'oyalarini keng targ'ib qilgan va funksional analiz bo'yicha o'z maktabiga ega bo'lgan akademik T.A.Sarimsoqov nomi bilan bog'liq.

I BOB. METRIK FAZOLAR

1-§. Metrik fazo ta'rifi va misollar

1.1. Metrik fazoning ta'rifi.

Ta'rif. Agar biror bo'sh bo'lmagan X to'plamning o'zini o'ziga to'g'ri (Dekart) ko'paytmasi $X \times X$ ni $R_+ = [0;\ +\infty)$ ga aks ettiruvchi $\rho(x, y)$ funksiya berilgan bo'lib, u

1) $\rho(x, y) \geq 0$; $\rho(x, y) = 0$ munosabat faqat $x = y$ bo'lganda bajariladi;

2) $\rho(x, y) = \ \rho(y, x)$ (simmetriklik aksiomasi);

3) $\rho(x, y) \leq \rho(x, z) + \ \rho(z, y)$ (uchburchak aksiomasi)

shartlarni qanoatlantirsa, u holda X to'plam *metrik fazo* deyiladi.

Kiritilgan $\rho(x, y)$ funksiya *metrika* (*masofa*), yuqoridagi shartlar esa *metrika aksiomalari* deyiladi.

Odatda metrik fazo (X, ρ) ko'rinishda belgilanadi.

1.2. Metrik fazoga misollar. 1) Haqiqiy sonlar to'g'ri chizig'i: $X = R$. Bu to'plamda x va y sonlar orasidagi masofa $\rho(x, y) = |y - x|$ bo'yicha hisoblanadi.

2) n–o'lchamli Evklid fazosi: $X = R^n$, va undagi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, $y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ nuqtalar uchun

$$\rho(x, y) = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} (y_i - x_i)^2}$$

funksiyani aniqlaylik. Bu funksiya R^n to'plamda metrika bo'ladi.

Haqiqatan ham, birinchi va ikkinchi aksiomalarning bajarilishi o'z-o'zidan ravshan. Biz bu funksiya uchburchak aksiomasini qanoatlantirishini isbotlaymiz. Bu aksiomadagi tengsizlik $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, $y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$, $z = (z_1, z_2, \dots, z_n)$ elementlar uchun quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\sqrt{\sum_{i=1}^{n}(y_i - x_i)^2} \leq \sqrt{\sum_{i=1}^{n}(z_i - x_i)^2} + \sqrt{\sum_{i=1}^{n}(y_i - z_i)^2} \qquad (1)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $z_i - x_i = a_i, y_i - z_i = b_i$. bundan $y_i - x_i = a_i + b_i$. Bularni e'tiborga olsak, (1) tengsizlik quyidagi tengsizlikka keladi:

$$\sqrt{\sum_{i=1}^{n}(a_i + b_i)^2} \leq \sqrt{\sum_{i=1}^{n} a_i^2} + \sqrt{\sum_{i=1}^{n} b_i^2} \qquad (2)$$

Bu tengsizlikni isbotlash uchun ushbu

$$\left(\sum_{i=1}^{n} a_i b_i\right)^2 \leq \sum_{i=1}^{n} a_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n} b_i^2$$

Koshi - Bunyakovskiy tengsizligidan foydalanamiz. U holda

$$\sum_{i=1}^{n}(a_i + b_i)^2 = \sum_{i=1}^{n} a_i^2 + 2\sum_{i=1}^{n} a_i b_i + \sum_{i=1}^{n} b_i^2 \leq$$

$$\leq \sum_{i=1}^{n} a_i^2 + 2\sqrt{\sum_{i=1}^{n} a_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n} b_i^2} + \sum_{i=1}^{n} b_i^2$$

$$= \left(\sqrt{\sum_{i=1}^{n} a_i^2} + \sqrt{\sum_{i=1}^{n} b_i^2}\right)^2$$

Bundan esa kerak bo'lgan (2) tengsizlik, demak, (1) tengsizlik kelib chiqadi.

Bu metrik fazo R_2^n orqali belgilanadi.

Xususan $n = 2$ bo'lganda bu metrik fazo Evklid tekisligi deyiladi.

3) n–o'lchamli fazoning $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, $y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ nuqtalari orasidagi masofani

$$\rho(x, y) = \sum_{i=1}^{n} |y_i - x_i|$$

kabi aniqlash mumkin. Bu metrik fazo R_1^n orqali belgilanadi.

4) n–o‘lchamli fazoning $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, $y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ nuqtalari orasidagi masofa

$$\rho(x, y) = \max_{1 \le i \le n} |y_i - x_i|$$

kabi aniqlansa, u metrik fazo bo‘ladi va R_∞^n orqali belgilanadi.

5) $X = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots),\ x_i \in R$ va $\sum_{i=1}^{\infty} x_i^2 < +\infty\}$ to‘plamda x va y nuqtalar orasidagi masofani $\rho(x, y) = \sqrt{\sum_{i=1}^{\infty} (y_i - x_i)^2}$ kabi aniqlash mumkin. Bu metrik fazo l_2 orqali belgilanadi.

6) $X = C[a; b]$ to‘plam – $[a; b]$ kesmada aniqlangan uzluksiz funksiyalar to‘plamida metrikani quyidagicha kiritamiz: $\rho(x, y) = \max_{[a,b]} |y(t) - x(t)|$. Buning metrika bo‘lishini tekshirish qiyin emas.

Metrika aksiomalaridan birinchi va ikkinchisining o‘rinliligi ravshan. Uchburchak aksiomasini tekshiramiz. Ixtiyoriy $t \in [a; b]$ nuqta va $x(t), y(t), z(t)$ funksiyalar uchun ushbu munosabat bajariladi:

$$|x(t) - y(t)| = \left|\big(x(t) - z(t)\big) + \big(z(t) - y(t)\big)\right| \le$$
$$| x(t) - z(t)| + +| z(t) - y(t)|.$$

Bu tengsizlikdan

$$\max_{[a,b]} | x(t) - y(t)| \le \max_{[a,b]} | x(t) - z(t)| + \max_{[a,b]} | z(t) - y(t)|$$

kelib chiqadi. Oxirgi tengsizlik

$$\rho(x, y) \le \rho(x, z) + \rho(z, y)$$

ekanligini bildiradi.

7) $C[a; b]$ to‘plamda metrikani quyidagicha ham kiritish mumkin: $\rho(x, y) = \int_a^b |y(t) - x(t)| dt$. Bu metrik fazo $C_1[a; b]$ orqali belgilanadi.

8) $[a; b]$ kesmada uzluksiz funksiyalar to‘plamida $\rho(x, y) = \left(\int_a^b \big(y(t) - x(t)\big)^2\right)^{\frac{1}{2}}$ funksiya metrika aksiomalarini qanoatlantiradi. Bu metrik fazo $C_2[a; b]$ orqali belgilanadi.

Bo‘sh bo‘lmagan ixtiyoriy to‘plamda metrika kiritish mumkinmi degan savolga quyidagi misol ijobiy javob beradi.

9) X to‘plam bo‘sh bo‘lmagan ixtiyoriy to‘plam bo‘lsin. $x, y \in X$ uchun

$$\rho(x,y) = \begin{cases} 1, & agar\ \ x \neq y\ bo‘lsa, \\ 0, & agar\ \ x = y\ bo‘lsa \end{cases}$$

shart bilan funksiya aniqlaymiz. Bu funksiya metrika aksiomalarini qanoatlantiradi.

Bunday aniqlangan metrik fazo *trivial metrik fazo*, metrika esa, *trivial metrika* deyiladi.

Mashqlar

1. 3-5, 7-9- misollarda aniqlangan fazolarning metrik fazo ekanligini isbotlang.

2. Tekislikdagi $A(x_1, y_1)$ va $B(x_2, y_2)$ nuqtalar uchun $\rho(A,B) = |x_2 - x_1| + |y_2 - y_1|$ kabi aniqlangan funksiya metrika bo‘ladimi?

3. To‘g‘ri chiziqda quyidagi a) $\rho(x,y) = x^3 - y^3$; b) $\rho(x,y) = |x^3 - y^3|$; c) $\rho(x,y) = |arctgx - arctgy|$ funksiyalarning qaysi biri metrika bo‘ladi?

4. Agar $M = \{a, b, c\}$ to‘plamda $\rho(a,c) = \rho(c,a) = \rho(a,b) = \rho(c,b) = 2$, $\rho(b,c) = \rho(b,a) = 1$ kabi aniqlangan ρ funksiya metrika bo‘ladimi? ρ uchburchak aksiomasini qanoatlantiradimi?

5. Agar $M = \{a, b, c\}$ to‘plamda $\rho(a,b) = \rho(b,c) = 1$ shartni qanoatlantiruvchi ρ metrika berilgan bo‘lsa, u holda $\rho(a,c)$ qanday qiymatlarni qabul qilishi mumkin?

6. $X = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots), x_n \in R$ va $\sum_{n=1}^{\infty} |x_n|^p < +\infty\}$, bu yerda $p \geq 1$, ketma-ketliklar to‘plamida x va y nuqtalar orasidagi masofani

$$\rho(x,y) = \left(\sum_{n=1}^{\infty} |y_n - x_n|^p \right)^{\frac{1}{p}}$$

kabi aniqlash mumkinligini ko‘rsating. Bu metrik fazo l_p deb belgilanadi.

7. Barcha chegaralangan sonli ketma-ketliklar to'plamida ikkita $x = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots)$ va $y = (y_1, y_2, \dots, y_n, \dots)$ nuqtalar uchun masofani

$$\rho(x, y) = \sup_n |y_n - x_n| \qquad (*)$$

tenglik bilan aniqlash mumkinligini isbotlang. Bu metrik fazo m bilan belgilanadi.

8. Barcha yaqinlashuvchi ketma-ketliklar to'plamida, hususan cheksiz kichik ketma-ketliklar to'plamida metrikani (*) tenglik bilan aniqlash mumkinligini asoslang. Bu metrik fazolar mos ravishda c va c_0 bilan belgilanadi.

9. Ko'phadlar fazosida $\rho(P_1, P_2) = |P_1(0) - P_2(0)|$ funksiya metrika aksiomalarini qanoatlantiradimi?

10. $[a, b]$ kesmada aniqlangan va Lebeg ma'nosida $\int_a^b |x(t)|^p dt$ integral mavjud bo'lgan (bu yerda $p \geq 1$) barcha $x(t)$ o'lchovli funksiyalar to'plamida metrikani quyidagicha aniqlash mumkinligini isbotlang: $\rho(x, y) = \left(\int_a^b |y(t) - x(t)|^p \, dt\right)^{\frac{1}{p}}$, bunda ekvivalent funksiyalar (ya'ni faqat nol o'lchovli to'plamda farq qiluvchi funksiyalar) teng deb qaraladi. Bu metrik fazo $L_p[a, b]$ deb belgilanadi.

11. Butun sonlar to'plamida quyidagicha

$$\rho(a, b) = \begin{cases} 0, & agar \ \ a = b \ bo\text{‘}lsa, \\ \dfrac{1}{3^k}, & agar \ \ a \neq b \ bo\text{‘}lsa \end{cases}$$

kabi aniqlangan funksiya metrika bo'lishini isbotlang, bu yerda k soni $a - b$ ayirma qoldiqsiz bo'linadigan 3 ning eng katta darajasi. $\rho(5,7), \rho(7,-2), \rho(7,25)$ larni hisoblang.

12. Natural sonlar to'plamida

$$a) \ \rho(n, m) = \frac{|n - m|}{nm};$$

$$b) \ \rho_1(n, m) = \begin{cases} 0, & agar \ \ n = m \ bo\text{‘}lsa, \\ 1 + \dfrac{1}{n + m}, & agar \ \ n \neq m \ bo\text{‘}lsa \end{cases}$$

funksiyalar metrika bo'ladimi?

13. Agar X to'plamda ρ metrika berilgan bo'lsa, u holda

$$\rho_1(x,y)=\frac{\rho(x,y)}{1+\rho(x,y)}$$

funksiya ham X to‘plamda metrika bo‘lishini isbotlang.

14. Aytaylik f funksiya $[0;\infty)$ da aniqlangan va 1) $f(0)=0$; 2) $[0;\infty)$ da o‘suvchi; 3) ixtiyoriy $x,y\in[0;\infty)$ uchun $f(x+y)\leq f(x)+f(y)$ shartlarni qanoatlantirsin. Agar ρ metrika bo‘lsa, u holda $\rho_1(x,y)=f(\rho(x,y))$ ham metrika bo‘lishini isbotlang.

15. Aytaylik f funksiya $[0;\infty)$ da aniqlangan va uzluksiz bo‘lib, 1) $f(0)=0$; 2) $[0;\infty)$ da o‘suvchi; 3) $(0;\infty)$ oraliqda ikkinchi tartibli hosilasi mavjud va $f''(x)<0$ shartlarni qanoatlantirsin. Agar ρ metrika bo‘lsa, u holda

$$\rho_2(x,y)=f(\rho(x,y))$$

ham metrika bo‘lishini isbotlang.

16. Agar ρ_1 va ρ_2 biror X to‘plamda aniqlangan metrikalar bo‘lsa, u holda ixtiyoriy α_1 va α_2 musbat sonlar uchun $\rho(x,y)=\alpha_1\rho_1(x,y)+\alpha_2\rho_2(x,y)$ funksiya ham X to‘plamda metrika bo‘lishini isbotlang.

2-§. Metrik fazoda ba’zi bir geometrik tushunchalar

2.1. Ochiq va yopiq sharlar, nuqtaning ε atrofi

Aytaylik (X,ρ) metrik fazo bo‘lsin. Kelgusida, metrik fazo elementi va metrik fazo nuqtasi tushunchalari bir xil ma’noda ishlatiladi.

1-ta’rif. Biror $x_0\in X$ nuqta va $r>0$ son uchun ushbu

$$S(x_0,r)=\{\,x\in X:\rho(x\,,x_0)<r\,\}$$

to‘plam X fazoda *ochiq shar*;

$$\bar{S}(x_0,r)=\{x\in X:\rho(x\,,x_0)\leq r\}$$

to‘plam *yopiq shar* deyiladi.

x_0 nuqta sharning *markazi*; r son sharning *radiusi* deyiladi.

Zaruriyat tug‘ilganda $\{x\in X:\rho(x,x_0)=r\}$ to‘plamni ham ishlatamiz, u x_0 markazli r radiusli *sfera* deyiladi.

2-ta’rif. $S(x_0,\varepsilon)$ ochiq shar x_0 nuqtaning *ε atrofi* deyiladi va $O_\varepsilon(x_0)$ kabi belgilanadi.

Nuqta atrofining ba’zi xossalarini o‘rganamiz.

1-xossa. Har bir nuqta o'zining ixtiyoriy atrofiga tegishli bo'ladi.

Haqiqatan, agar $\varepsilon > 0$ bo'lsa, u holda $\rho(a,a) = 0 < \varepsilon$ bo'lishi ravshan. Demak, $a \in O_\varepsilon(a)$.

2-xossa. Nuqtaning ixtiyoriy ikki atrofi kesishmasi ham atrof bo'ladi.

Haqiqatan, agar $\varepsilon_1 < \varepsilon_2$ bo'lsa, u holda $O_{\varepsilon_1}(a) \cap O_{\varepsilon_2}(a) = O_{\varepsilon_1}(a)$ bo'ladi.

3-xossa. Agar $x \in O_\varepsilon(a)$ bo'lsa, u holda x nuqtaning $O_\varepsilon(a)$ to'plamda yotuvchi atrofi mavjud.

Haqiqatan, aytaylik $\rho(a,x) = d$ bo'lsin. $x \in O_\varepsilon(a)$ bo'lganligidan $\delta = \varepsilon - d > 0$ bo'ladi. Endi, $y \in O_\delta(x)$ ni olamiz. Metrikaning uchburchak aksiomasiga ko'ra

$$\rho(a,y) \le \rho(a,x) + \rho(x,y) < d + \delta = d + (\varepsilon - d) = \varepsilon$$

bo'ladi. Demak, $y \in O_\varepsilon(a)$. Bundan $O_\delta(x) \subset O_\varepsilon(a)$ kelib chiqadi.

4-xossa. Bir-biridan farqli ikki nuqtaning kesishmaydigan atroflari mavjud.

Haqiqatan, aytaylik, $a, b \in X, a \neq b$ va $\rho(a,b) = r$ bo'lsin. Agar $\varepsilon = r/3$ bo'lsa, $O_\varepsilon(a)$ va $O_\varepsilon(b)$ atroflarning kesishmasligini ko'rsatamiz. Faraz qilaylik, bu atroflar umumiy x nuqtaga ega bo'lsin. U holda $\rho(a,x) < \varepsilon$, $\rho(b,x) < \varepsilon$ va $\rho(a,b) \le \rho(a,x) + \rho(b,x) < 2\varepsilon = \frac{2r}{3} < r$. Bu esa shartga zid.

2.2. Chegaralangan to'plam.

3-ta'rif. Agar (X,ρ) metrik fazodagi M to'plam biror shar ichida joylashgan bo'lsa, bu to'plam *chegaralangan* deyiladi.

Bu ta'rifning quyidagi ta'rifga ekvivalent ekanligini tekshirish murakkab emas:

4-ta'rif. Agar (X,ρ) metrik fazodagi M to'plamga tegishli barcha x va y nuqtalar uchun, $\rho(x,y) < K$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi K musbat son mavjud bo'lsa, u holda M to'plam chegaralangan deyiladi.

Agar bir to'plamda ikki xil metrika berilgan bo'lsa, u holda qaralayotgan M to'plam bir metrikaga nisbatan chegaralangan, ikkinchi bir metrikaga nisbatan chegaralanmagan bo'lishi mumkin.

Masalan, natural sonlar to'plami 12-mashqdagi a) metrikaga nisbatan chegaralanmagan, lekin shu misoldagi b) metrikaga nisbatan chegaralangandir.

Ravshanki, 1 dan farqli barcha n larda $\rho_1(1,n) < 2$ bo'ladi. Demak bu metrikaga nisbatan barcha natural sonlar to'plami, markazi 1 nuqtada radiusi 2 ga teng ochiq sharga tegishli bo'ladi.

2.3. To'plamning urinish va limit nuqtalari

5-ta'rif. Agar $x_0 \in X$ nuqtaning ixtiyoriy atrofida M to'plamning x_0 dan farqli elementi mavjud bo'lsa, u holda x_0 nuqta M ning *limit nuqtasi* deyiladi.

Misollar. 1) (R_2^n, ρ) metrik fazodagi $S(x_0, r)$ ochiq sharning limit nuqtalari to'plami $\bar{S}(x_0, r)$ yopiq shardan iborat bo'ladi.

2) Endi (R, ρ) metrik fazodagi, ya'ni sonlar o'qidagi ba'zi to'plamlarni qaraymiz:

a) $E_1 = N$ natural sonlar to'plami bo'lsin. Bu to'plamning birorta ham limit nuqtasi mavjud emas.

b) $E_2 = \{1/n : n = 1,2, \dots\}$ bo'lsin. Bu to'plamning birgina limit nuqtasi 0 mavjud va $0 \notin E_2$.

c) $E_3 = (0; 1)$. Bu to'plamning limit nuqtalari $[0; 1]$ kesmaning barcha nuqtalaridan iborat.

d) $E_4 = (0; 1) \cap Q$ bo'lsin. Bu to'plamning limit nuqtalari ham $[0; 1]$ kesmaning barcha nuqtalaridan iborat.

6-ta'rif. Agar $x_0 \in X$ nuqtaning ixtiyoriy atrofida M to'plamning kamida bitta elementi mavjud bo'lsa, x_0 nuqta M ning *urinish nuqtasi* deyiladi.

Limit nuqta urinish nuqtasi bo'ladi, lekin aksinchasi har doim ham o'rinli emas. Masalan, chekli to'plamning har bir nuqtasi urinish nuqta bo'ladi, ammo u limit nuqta bo'la olmaydi. Yuqoridagi E_1 va E_2 to'plamlarning barcha nuqtalari urinish nuqtalardir.

2.4. To'plamning yopilmasi

7-ta'rif. M to'plamning barcha urinish nuqtalari to'plami $\bar{M}$ bilan belgilanib, M to'plamning *yopilmasi* deyiladi.

Misol. (R_2^n, ρ) metrik fazoda $S(x_0, r)$ ochiq sharga tegishli ratsional koordinatali nuqtalar to'plamining yopilmasi $\bar{S}(x_0, r)$ yopiq shardan iborat bo'ladi.

Teorema. *Ixtiyoriy M, M_1 va M_2 to'plamlar uchun quyidagi munosabatlar o'rinlidir:*

$$1)\ M \subset \bar{M}; \qquad 2)\ \bar{M} = \bar{\bar{M}};$$
$$3)\ M_1 \subset M_2 \Rightarrow \bar{M}_1 \subset \bar{M}_2; \quad 4)\ \overline{M_1 \cup M_2} = \bar{M}_1 \cup \bar{M}_2$$

Isbot. Birinchi xossa to'plamning urinish nuqtasi ta'rifidan kelib chiqadi.

Ikkinchi xossani isbotlaymiz. Birinchi xossaga asosan $\bar{M} \subset \bar{\bar{M}}$. Shuning uchun $\bar{\bar{M}} \subset \bar{M}$ munosabatni isbotlash yetarli. $x \in \bar{\bar{M}}$ bo'lsin. U holda bu nuqtaning ixtiyoriy ε atrofida $\bar{M}$ ga tegishli x_1 nuqta topiladi; so'ng x_1 nuqtaning radiusi $\varepsilon_1 = \varepsilon - \rho(x, x_1) > 0$ bo'lgan atrofini olamiz. Agar $z \in O_{\varepsilon_1}(x_1)$ bo'lsa, u holda

$$\rho(z, x) \leq \rho(z, x_1) + \rho(x_1, x) < \varepsilon$$

ya'ni $z \in O_\varepsilon(x)$ bo'ladi. Shunday qilib, $O_{\varepsilon_1}(x_1) \subset O_\varepsilon(x)$. Ammo $x_1 \in \bar{M}$, demak, x_1 ning ε_1 atrofida M ga tegishli x_2 nuqta mavjud. Shuning uchun $x_2 \in O_{\varepsilon_1}(x_1) \subset O_\varepsilon(x)$. Lekin $O_\varepsilon(x)$ shar x nuqtaning ixtiyoriy atrofi bo'lgani uchun $x \in \bar{M}$.

Uchinchi xossa o'z-o'zidan ravshan.

To'rtinchi xossani isbotlaymiz. Aytaylik $x \in \overline{M_1 \cup M_2}$ bo'lsin, u holda x nuqtaning ixtiyoriy $O_\varepsilon(x)$ atrofida $M_1 \cup M_2$ ga tegishli x_1 element mavjud. Agar $x \notin \bar{M}_1$ va $x \notin \bar{M}_2$ bo'lsa, u holda x ning shunday $O_{\varepsilon_1}(x)$ va $O_{\varepsilon_2}(x)$ atroflari mavjudki, bu atroflar mos ravishda M_1 va M_2 to'plamlar bilan kesishmaydi. Endi $\varepsilon = min(\varepsilon_1, \varepsilon_2)$ deb olsak, u holda x nuqtaning $O_\varepsilon(x)$ atrofi $M_1 \cup M_2$ to'plam bilan kesishmaydi. Bu esa x ning tanlanishiga zid. Demak, x nuqta $\bar{M}_1$ yoki $\bar{M}_2$ to'plamlardan kamida bittasiga tegishli, ya'ni

$$\overline{M_1 \cup M_2} \subset \bar{M}_1 \cup \bar{M}_2.$$

Teskari munosabatning o'rinli ekanligi $M_1 \subset M_1 \cup M_2$ va $M_2 \subset M_1 \cup M_2$ munosabatlardan hamda uchinchi xossadan kelib chiqadi.

Mashqlar

1. R_1^2, R_2^2, R_∞^2 fazolarda ochiq va yopiq sharlarga misollar keltiring.

2. R_1^2, R_2^2, R_∞^2 fazolarda (1,1) va (0,1) nuqtalarning kesishmaydigan atroflariga misollar keltiring.

3. Biror metrik fazoda ikkita har xil radiusli ochiq sharlar ustma-ust tushishi mumkinmi?

4. Biror metrik fazoda radiusi 3 ga teng bo‘lgan shar radiusi 2 ga teng bo‘lgan sharning xos qismi bo‘lishi mumkinmi?

5. Biror metrik fazoda $r > 0$ radiusli shar bo‘sh to‘plam bo‘lishi mumkinmi?

6. R_2^2 tekislikda har qanday to‘g‘ri to‘rtburchakning chegaralangan to‘plam ekanligini ko‘rsating.

7. Trivial metrik fazoda ixtiyoriy to‘plamning chegaralangan ekanligini isbotlang.

8. To‘g‘ri chiziqdagi $x_n = \left(-1\right)^n + \frac{1}{n}$ $(n \in N)$ nuqtalar to‘plamining urinish va limit nuqtalarini toping.

9. E to‘plam R_2^2 tekislikdagi ratsional koordinatali nuqtalar to‘plami bo‘lsa, uning yopilmasini toping.

10. R_2^2 tekislikda faqat ikkita: $A(1,3), B(3,0)$ limit nuqtaga ega bo‘lgan E to‘plamgi misol keltiring.

11. Tekislikdagi kabi, agar c nuqta a va b nuqtalardan farqli va $\rho(a,b) = \rho(a,c) + \rho(c,b)$ bo‘lsa, u holda c nuqta a va b nuqtalar orasida yotadi deb aytamiz.

a) Agar c nuqta a va b nuqtalar orasida, d nuqta esa a va c nuqtalar orasida yotsa, u holda d nuqta a va b nuqtalar orasida yotishini isbotlang.

b) Agar c nuqta a va b nuqtalar orasida yotsa, u holda a nuqta c va b nuqtalar orasida yotmasligini isbotlang.

c) Agar c nuqta a va b nuqtalar orasida, d nuqta esa a va c nuqtalar orasida yotsa, u holda c nuqta d va b nuqtalar orasida yotishini isbotlang.

d) Metrik fazoning ixtiyoriy ikki nuqtasi orasida, har doim shu fazoning kamida bitta nuqtasi yotadimi?

12. X metrik fazoda $[a,b]$ kesma deb shu fazoning a, b va bu nuqtalar orasida yotadigan barcha nuqtalardan tashkil topgan to‘plamga aytiladi. 1–§ dagi 2 b), c); 7; 10; 11 misollarda va trivial metrik fazoda kesmalar qanday bo‘ladi? Bu kesmalar chegaralanganmi?

13. Agar $\{a,b\} \neq \{c,d\}$ bo‘lsa, u holda $[a,b] \neq [c,d]$ ekanligini isbotlang.

14. Aytaylik c nuqta a va b nuqtalar orasida yotsin. Har doim $[a,b]=[a,c]\cup[c,d]$ munosabat o‘rinlimi?

3-§. Metrik fazodagi ochiq va yopiq to‘plamlar

3.1. Yopiq to‘plam va uning xossalari, misollar.

(X,ρ) metrik fazo bo‘lsin. Bunda $M\subset X$ to‘plam olamiz.

1-ta’rif. Agar $M=\overline{M}$ bo‘lsa, u holda M *yopiq to‘plam* deyiladi.

Ixtiyoriy (X,ρ) metrik fazoda $\bar{S}(x_0,r)$ yopiq shar, X ning o‘zi, bo‘sh to‘plam va har bir chekli to‘plam yopiq to‘plamlarga misol bo‘ladi.

Shuningdek (R,ρ) to‘g‘ri chiziqda odatdagi $\rho(a,b)=|b-a|$ metrikaga nisbatan ixtiyoriy $[c,d]$ kesma yopiq to‘plam bo‘ladi.

1-teorema. *a) Chekli sondagi yopiq to‘plamlarning birlashmasi yana yopiq to‘plam bo‘ladi;*

b) Ixtiyoriy sondagi yopiq to‘plamlarning kesishmasi yopiq to‘plam bo‘ladi.

Isbot. a) bu xossani ikki to‘plam uchun isbotlash yetarli. Aytaylik F_1, F_2 yopiq to‘plamlar bo‘lsin, ya’ni $\overline{F}_1=F_1$ va $\overline{F}_2=F_2$ o‘rinli. U holda 2-§ dagi teoremaga asosan $\overline{F_1\cup F_2}=\overline{F}_1\cup\overline{F}_2=F_1\cup F_2$. Demak, ta’rifga ko‘ra $F_1\cup F_2$ yopiq to‘plam.

b) Aytaylik ixtiyoriy sondagi $\{F_\alpha\}_{\alpha\in A}$ yopiq to‘plamlar sistemasi berilgan va x ularning kesishmasi $F=\bigcap\limits_{\alpha}F_\alpha$ to‘plamning urinish nuqtasi bo‘lsin. U holda x ning ixtiyoriy atrofida F ning kamida bitta, masalan, x_1 elementi mavjud va kesishmaning xossasiga ko‘ra α ning barcha qiymatlari uchun $x_1\in F_\alpha$ bo‘ladi. Demak, ixtiyoriy α uchun $x\in\overline{F}_\alpha=F_\alpha$, ya’ni $x\in\bigcap\limits_{\alpha}F_\alpha=F$ bo‘ladi. Demak, F yopiq to‘plam. Teorema isbot bo‘ldi.

3.2. Ochiq to‘plam va uning xossalari, misollar.

(X,ρ) metrik fazo, $M\subset X$ biror to‘plam bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar x nuqtaning M to‘plamda butunlay joylashgan biror atrofi mavjud bo‘lsa, u holda x nuqta M to‘plamning *ichki nuqtasi* deyiladi.

Agar M to‘plamning barcha nuqtalari ichki bo‘lsa, u *ochiq to‘plam* deyiladi.

Ixtiyoriy (X, ρ) metrik fazoda $S(x_0, r)$ ochiq shar, R da $(a; b)$ interval ochiq to‘plamga misol bo‘ladi.

R da Q ratsional sonlar to‘plami ochiq to‘plam emas, chunki ixtiyoriy ratsional sonning har bir atrofi faqat ratsional sonlardan iborat emas.

Shu kabi irratsional sonlar to‘plami ham ochiq to‘plam bo‘la olmaydi.

Bu to‘plamlarning R da yopiq to‘plam emasligini ham ko‘rish qiyin emas.

2-teorema. *Biror $G \subset X$ to‘plamning ochiq bo‘lishi uchun uning to‘ldiruvchisi, $F = X \backslash G = CG$ yopiq bo‘lishi zarur va yetarli.*

Isbot. *Zaruriyligi*. Aytaylik G ochiq to‘plam bo‘lsin. U holda har bir $x \in G$ nuqta butunlay G da joylashgan atrofga ega. Demak, bu atrof F bilan kesishmaydi. Bundan ko‘rinadiki, F ning birorta ham urinish nuqtasi G ga kirmaydi. Demak F yopiq to‘plam.

Yetarliligi. Aytaylik $F = X \backslash G$ yopiq to‘plam bo‘lsin. U holda G dan olingan ixtiyoriy nuqta F bilan kesishmaydigan, demak G da butunlay joylashgan atrofga ega, ya’ni G ochiq to‘plam.

Natija. *Bo‘sh to‘plam $\varnothing$ va X fazo ham ochiq, ham yopiq to‘plamlardir.*

3-teorema. Ixtiyoriy sondagi ochiq to‘plamlarning birlashmasi va chekli sonidagi ochiq to‘plamlarning kesishmasi ochiq to‘plam bo‘ladi.

Isbot. Ushbu $\bigcap_{\alpha}(X \backslash G_\alpha) = X \backslash (\bigcup_{\alpha} G_\alpha)$ va $\bigcup_{\alpha}(X \backslash G_\alpha) = X(\bigcap_{\alpha} G_\alpha)$ tengliklardan va yuqorida isbotlangan teoremalardan kelib chiqadi.

Mashqlar

1. Metrik fazoda yopiq sharning yopiq to‘plam ekanligini isbotlang.
2. Metrik fazoda ochiq sharning ochiq to‘plam ekanligini isbotlang.
3. Tekislikda musbat koordinatali nuqtalar to‘plami ochiq to‘plam bo‘ladimi? Javobingizni asoslang.

4. $C[a;b]$ fazoda $E = \{f \mid A < f(x) < B\}$ to'plamning ochiq to'plam ekanligini ko'rsating.

5. Quyidagi $\begin{cases} x + y > 3, \\ x^2 + y^2 < 100 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi bilan aniqlangan A to'plamning R_2^2 fazoda ochiq to'plam ekanligini isbotlang.

6. Quyidagi $\begin{cases} x + 3y - 2z \leq 6, \\ x^2 + y^2 + z^2 \geq 25 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi bilan aniqlangan A to'plamning R_2^3 fazoda yopiq to'plam ekanligini isbotlang.

7. Quyidagi $\begin{cases} y \geq x^2 + 1, \\ x^2 + y^2 < 64 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi bilan aniqlangan A to'plamning R_2^2 fazoda ochiq ham, yopiq ham emasligini isbotlang.

8. $C[a,b]$ fazodagi ko'phadlar to'plami ochiq ham, yopiq ham emasligini isbotlang.

4-§. Metrik fazoda yaqinlashish tushunchasi

4.1. Yaqinlashuvchi ketma-ketliklar

Aytaylik (X,ρ) metrik fazoda biror $\{x_n\}$ ketma-ketlik va x nuqta berilgan bo'lsin.

1-ta'rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $n_0(\varepsilon)$ nomer topilib, barcha $n > n_0(\varepsilon)$ lar uchun $\rho(x_n, x) < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlik X fazoning x elementiga *yaqinlashadi* deyiladi va $\lim\limits_{n\to\infty} x_n = x$ yoki $x_n \to x$ orqali belgilanadi.

Bu x nuqta $\{x_n\}$ ketma-ketlikning *limiti* deyiladi.

Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik X fazoning hech bir nuqtasiga yaqinlashmasa, u *uzoqlashuvchi* ketma- ketlik deyiladi.

Ravshanki, metrik fazodagi ketma-ketlik limiti ta'rifini sonli ketma-ketlik limiti ta'rifiga keltirish mumkin:

Agar $n \to \infty$ da $\rho(x_n, x) \to 0$, ya'ni $\lim\limits_{n\to\infty} \rho(x_n, x) = 0$ bo'lsa, u holda bu ketma-ketlik X fazoning x elementiga yaqinlashadi deyiladi.

Metrik fazoning elementlari sonlardan, sonli kortejlardan (tartiblangan n ta sonlardan), geometrik fazo nuqtalaridan, chiziqlardan, funksiyalardan, umuman istalgan tabiatli bo‘lishi mumkin. Shu sababli ketma-ketlik limitining yuqorida keltirilgan ta’rifi keng tatbiqqa ega.

Misol. $x_n(t) = t^n$ funksiyalar ketma-ketligi $C_1[0;1]$ fazoda $\theta(t)\equiv 0$ funksiyaga yaqinlashadi.

Haqiqatdan ham, bu fazoda $\rho(x_n,\theta) = \int_0^1 t^n dt = \frac{1}{1+n}$, demak $n \to \infty$ da $\rho(x_n,\theta) \to 0$ bo‘lishi ravshan.

Funksiyalarning ushbu ketma-ketligi $C[0;1]$ fazoda $\theta(t) \equiv 0$ funksiyaga yaqinlashmaydi, chunki bu holda $\rho(x_n,\theta) = \max\limits_{1\le t\le 1} t^n = 1$ bo‘ladi, ya’ni $\rho(x_n,\theta) \nrightarrow 0$.

4.2. Yaqinlashuvchi ketma-ketlik xossalari

1-teorema. *Yaqinlashuvchi ketma-ketlik faqat bitta limitga ega.*

Isbot. Faraz qilaylik, $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti ikkita, ya’ni $x_n \to x$ va $x_n \to y, x \neq y$ bo‘lsin. U holda metrikaning uchburchak aksiomasiga ko‘ra,

$$0 \le \rho(x,y) \le \rho(x,x_n) + \rho(x_n,y)$$

bo‘ladi.

Ammo, bu tengsizlikning o‘ng tomoni $n \to \infty$ da 0 ga intiladi, demak, $\rho(x,y) = 0$, bundan $x = y$ kelib chiqadi.

2-teorema. *$\rho(x,y)$ metrika x va y elementlarning uzluksiz funksiyasi, ya’ni $x_n \to x$ va $y_n \to y$ bo‘lsa, u holda $\rho(x_n,y_n) \to \rho(x,y)$ bo‘ladi.*

Isbot. Avval ixtiyoriy to‘rtta $x,y,z,u \in X$ elementlar uchun

$$|\rho(x,y) - \rho(z,u)| \le \rho(x,z) + \rho(y,u) \qquad (1)$$

tengsizlikning o‘rinli ekanligini isbotlaymiz.

Uchburchak aksiomasidan foydalanib,

$$\rho(x,y) \le \rho(x,z) + \rho(z,y) \le \rho(x,z) + \rho(z,u) + \rho(u,y) \qquad (2)$$

tengsizliklarni yozish mumkin. Bundan

$$\rho(x,y) - \rho(z,u) \le \rho(x,z) + \rho(u,y)$$

Bu tengsizlikda x,y larni mos ravishda z,u lar bilan almashtirib,

$$\rho(z,u) - \rho(x,y) \le \rho(x,z) + \rho(u,y) \qquad (3)$$

tengsizlikka ega bo‘lamiz. (2) va (3) dan (1) kelib chiqadi.

(1) tengsizlikda z va u ni mos ravishda x_n va y_n bilan almashtirilsa,

$$|\rho(x,y) - \rho(x_n,y_n)| \leq \rho(x,x_n) + \rho(y,y_n)$$

tengsizlik hosil bo'ladi. Bu tengsizlikning o'ng tomoni, teorema shartiga ko'ra nolga intiladi, bundan esa $\rho(x_n, y_n) \to \rho(x, y)$ kelib chiqadi.

Quyidagi teorema ravshan.

3-teorema. *Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik x ga yaqinlashsa, u holda bu ketma-ketlikning ixtiyoriy $\{x_{n_k}\}$ qism ketma-ketligi ham shu x ga yaqinlashadi.*

4-teorema. *Agar $\{x_n\}$ ketma- ketlik x ga yaqinlashsa va $x_0 \in X$ tayin bir element bo'lsa, u holda $\{\rho(x_n, x_0)\}$ sonlar to'plami chegaralangan bo'ladi.*

Isbot. $\{\rho(x_n,x)\}$ sonli ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lganligi sababli, u chegaralangan bo'ladi. Uning yuqori chegarasini K bilan belgilaymiz. Metrikaning uchburchak aksiomasiga ko'ra

$$\rho(x_n, x_0) \leq \rho(x_n, x) + \rho(x, x_0) \leq K + \rho(x, x_0) = K_1.$$

Teorema isbot bo'ldi.

4.3. Ba'zi metrik fazolarda yaqinlashish tushunchasining ma'nolari

1) Ravshanki, trivial metrik fazoda ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lishi uchun bu ketma-ketlikning hamma elementlari biror hadidan boshlab bir-biriga teng bo'lishi zarur va yetarli.

2) n–o'lchamli Evklid fazosida $\{x_k\}$ ketma-ketlikning x elementga yaqinlashishi uchun, x_k vektor koordinatalari, mos ravishda x vektor koordinatalariga yaqinlashishi zarur va yetarli.

Haqiqatan ham, agar R_2^n da $\rho(x_k,x) = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}\left(x_i^{(k)} - x_i\right)^2} \to 0$ $(k \to \infty)$ bo'lsa, u holda $x_i^{(k)} \to x_i$, $i = 1,2,\dots,n$ $(k \to \infty)$ bo'ladi.

3) $\{x_n(t)\}$ ketma-ketlik $C[a;b]$ fazoning elementlari va $x_n(t) \to x(t)$, $x(t) \in C[a,b]$, ya'ni

$$\rho(x_n,x) = \max_{a\leq t\leq b}| x_n(t) - x(t)| \to 0, n \to \infty$$

bo'lsin. Bundan, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ soni uchun shunday $n_0 = n_0(\varepsilon)$ natural son topiladiki, $t \in [a;b]$ bo'lganda

$$\max_{a\leq t\leq b}| x_n(t) - x(t)| < \varepsilon$$

bo‘lishi kelib chiqadi.

Demak, $t \in [a;b]$ ning barcha qiymatlari uchun $n > n_0$ bo‘lganda

$$| x_n(t) - x(t)| < \varepsilon$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu esa $\{x_n(t)\}$ ketma-ketlikning $x(t)$ funksiyaga tekis yaqinlashishini bildiradi. Va aksincha, $\{x_n(t)\}$ ketma-ketlik $[a;b]$ kesmada $x(t)$ ga tekis yaqinlashsa, u holda $\rho(x_n, x) \to 0$ bo‘ladi. Demak, $C[a;b]$ fazoda metrika ma’nosida yaqinlashish matematik analizdan ma’lum bo‘lgan tekis yaqinlashish tushunchasi bilan ustma-ust tushar ekan.

Mashqlar

1. Agar $x_n \to a$ va $\rho(x_n, y_n) \to 0$ bo‘lsa, u holda $y_n \to a$ ekanligini isbotlang.

2. Quyidagi funksiyalar ketma-ketligi ko‘rsatilgan fazoda $f(x) \equiv 0$ funksiyaga yaqinlashadimi?

1) $f_n(x) = \dfrac{nx}{1+n^2x^2}$, $a)$ $C[0,1]$; $b)$ $C_1[a,b]$.

2) $f_n(x) = xe^{-nx}$, $a)$ $C[0;10]$; $b)$ $C_1[0;10]$.

3) $f_n(x) = n^{-\frac{1}{8}}\sqrt{2nx}e^{-\frac{1}{2}nx^2}$, $a)$ $C[0,1]$; $b)$ $C_2[0;2]$.

4) $f_n(x) = \dfrac{sinnx}{n}$, $a)$ $C[-\pi;\pi]$; $b)$ $C_1[-\pi;\pi]$;

3. R_2^n, R_1^n, R_∞^n fazolarda metrikaga nisbatan yaqinlashish bilan birgalikda koordinatalari bo‘yicha yaqinlashish tushunchasi ham qaraladi.

Agar $\forall m \in \{1, 2, \ldots, n\}$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty} x_m^{(k)} = x_m$ bo‘lsa, u holda $\{x^{(k)}\} = \{(x_1^{(k)}, x_2^{(k)}, \ldots, x_n^{(k)}\}$ nuqtalar ketma-ketligi $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$ nuqtaga koordinatalar bo‘yicha yaqinlashadi deyiladi.

$M_n = \left(\frac{n-1}{n}, \frac{2n}{n+1}\right)$ nuqtalar ketma-ketligi koordinatalar bo‘yicha qanday nuqtaga yaqinlashadi? Bu ketma-ketlik R_2^n, R_1^n, R_∞^n fazolarda shu nuqtaga yaqinlashadimi?

4. R_2^n fazoda yaqinlashuvchi ketma-ketlikning koordinatalar bo‘yicha ham yaqinlashuvchi va aksincha, koordinatalar bo‘yicha

yaqinlashuvchi ketma-ketlikning metrika bo‘yicha ham yaqinlashuvchi ekanligini isbotlang.

5-§. Metrik fazolarda uzluksiz akslantirishlar

5.1. Uzluksiz akslantirish, misollar. $(X,\rho_X),(Y,\rho_Y)$ metrik fazolar va $T: X \to Y$ akslantirish, $x_0 \in X$ nuqta berilgan bo‘lsin.

1-ta’rif. Agar x_0 nuqtaga yaqinlashuvchi bo‘lgan ixtiyoriy $\{x_n\} \subset X$ ketma-ketlik uchun ushbu $T(x_n) \to T(x_0)$ munosabat Y metrik fazoda bajarilsa, u holda T akslantirish x_0 nuqtada *uzluksiz* deyiladi.

2-ta’rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ soni uchun shunday $\delta > 0$ son topilib, $\rho_X(x_0, x) < \delta$ shartni qanoatlantiruvchi barcha $x \in X$ lar uchun $\rho_Y(T(x_0), T(x)) < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, u holda T akslantirish x_0 nuqtada *uzluksiz* deyiladi.

3-ta’rif. Agar $b = T(x_0)$ nuqtaning ixtiyoriy V atrofi uchun X fazoda x_0 nuqtaning $T(U) \subset V$ shartni qanoatlantiruvchi U atrofi mavjud bo‘lsa, u holda T akslantirish x_0 *nuqtada uzluksiz* deyiladi.

Bu uchala ta’rifning teng kuchliligi, yoki boshqacha aytganda ekvivalentligi matematik analiz kursidagi funksiya uzluksizligi kabi isbotlanadi.

Misol. $C[0;1]$ fazoni R ga akslantiruvchi $T: x \to x(1)$ akslantirish ixtiyoriy $a \in C[a,b]$ «nuqta»da uzluksiz bo‘ladi.

Haqiqatan, ε>0 son berilgan bo‘lsin. U holda δ=ε deb olamiz. Endi $\rho_C(a,x) = \max\limits_{a \le t \le b} \left| x(t) - a(t) \right|, \rho_R(T(a), T(x)) = |x(1) - a(1)| \le \rho_C(a,x)$ bo‘lganligi sababli, $\rho_C(a,x) < \delta$ shartdan $\rho_R(T(a), T(x)) < \varepsilon$ tengsizlikning kelib chiqishi ravshan (bu yerda $\rho_C - C[a,b]$ fazodagi, ρ_R esa R dagi metrikalar).

$C_1[0;1]$ fazoni R ga akslantiruvchi $T: x \to x(1)$ akslantirish $\theta(t) \equiv 0$ nuqtada uzluksiz emas.

Haqiqatan, $x_n(t) = t^n$ ketma-ketlik $C_1[0;1]$ fazoda $\theta(t) \equiv 0$ funksiyaga yaqinlashadi, lekin $T(x_n) = x_n(1) = 1, T(\theta) = 0$, demak $\{T(x_n\})$ ketma-ketlik $T(\theta)$ ga yaqinlashmaydi.

4-ta'rif. Agar T o'z aniqlanish sohasining har bir nuqtasida uzluksiz bo'lsa, u holda T *uzluksiz akslantirish* deyiladi.

Xususan Y=R bo'lgan holda, uzluksiz akslantirish uzluksiz *funksional* deyiladi.

$C[0;1]$ fazoni R ga akslantiruvchi $T(x) = x(1)$ akslantirish uzluksiz funksionalga misol bo'ladi.

5.2. Izometriya, uning uzluksizligi. $(X, \rho_X), (Y, \rho_Y)$ metrik fazolar va $T: X \to Y$ akslantirish berilgan bo'lsin.

5-*ta'rif*. Agar X fazodan olingan ixtiyoriy a va b nuqtalar uchun $\rho_X(a, b) = \rho_Y(T(a), T(b))$ tenglik bajarilsa, u holda T *izometrik akslantirish* yoki *izometriya* deyiladi.

Ravshanki, har qanday izometriya uzluksiz akslantirish bo'ladi.

Geometriya kursida aniqlangan tekislikdagi (fazodagi) har qanday harakat izometriyaga misol bo'ladi.

5.3. Uzluksiz akslantirishning xossalari

1-teorema. *Aytaylik $T: X \to Y$ akslantirish X fazoning a nuqtasida, $f: Y \to Z$ akslantirish Y fazoning $b = T(a)$ nuqtasida uzluksiz bo'lsin. U holda X ni Z ga akslantiruvchi $x \to F(T(x))$ murakkab akslantirish a nuqtada uzluksiz bo'ladi.*

Isbot. Z fazo $c = F(T(a))$ nuqtasining ixtiyoriy W atrofini olamiz. F akslantirish $b = T(a)$ nuqtada uzluksiz va $c = F(b)$ bo'lganligi sababli, b nuqtaning $F(V) \subset W$ shartni qanoatlantiruvchi V atrofi mavjud. Shunga o'xshash, T akslantirish a nuqtada uzluksiz bo'lganligi sababli, bu nuqtaning $T(U) \subset V$ shartni qanoatlantiruvchi U atrofi mavjud. U holda $F(T(U)) \subset T(V) \subset W$ ga ega bo'lamiz. Bu esa, $x \to F(T(x))$ akslantirishning a nuqtada uzluksiz ekanligini isbotlaydi.

2-**teorema**. *Agar T akslantirish X metrik fazoni Y metrik fazoga aks ettiruvchi uzluksiz akslantirish bo'lsa, u holda Y fazodan olingan ixtiyoriy ochiq to'plamning X fazodagi proobrazi ochiq, yopiq to'plam proobrazi yopiq bo'ladi.*

Isbot. Aytaylik G to‘plam Y da ochiq bo‘lsin. X fazodagi $D = T^{-1}(G)$ to‘plamning barcha nuqtalari ichki nuqta ekanligini isbotlaymiz.

Faraz qilaylik $a \in D$ va $T(a) = b$ bo‘lsin. U holda $b \in G$ va G ochiq bo‘lganligidan b nuqta G to‘plamning ichki nuqtasi bo‘ladi. Shuning uchun bu nuqtaning G ga to‘laligicha tegishli bo‘lgan V atrofi mavjud. T akslantirishning a nuqtada uzluksizligidan a nuqtaning shunday U atrofi mavjud bo‘lib, $T(U) \subset V$ bo‘ladi. U holda $T(U) \subset G$, bundan esa $U \subset D = T^{-1}(G)$ kelib chiqadi. Bu esa ixtiyoriy $a \in D$ nuqtaning D ga tegishli atrofi mavjudligi, ya’ni a ichki nuqta ekanligini isbotlaydi. Shuning uchun D ochiq to‘plam.

Yopiq to‘plamning to‘ldiruvchisi ochiq ekanligidan, Y fazoda biri ikkinchisiga to‘ldiruvchi to‘plamlarning proobrazlari, X fazoda ham biri ikkinchisiga to‘ldiruvchi bo‘lishidan va teoremaning isbot qilingan qismidan ikkinchi qismning isboti kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Uzluksiz akslantirishda, ochiq to‘plamning obrazi har doim ham ochiq bo‘lmaydi. Masalan, $x \to sinx$ uzluksiz akslantirishda $(-\pi; \pi)$ intervalning obrazi $[-1; 1]$ kesmadan iborat.

Mashqlar

1. 1-, 2- va 3-ta’riflarning teng kuchli ekanligini isbotlang.

2. R_2^2 fazoni o‘ziga o‘tkazuvchi $(x, y) \to (2x - 3y + 4, -x + 4y)$ akslantirish berilgan. a) (2,3) nuqtaning obrazini; b) $(-4,4)$ nuqtaning obrazini; c) $y = x$ to‘g‘ri chiziq obrazini; d) absissalar o‘qining proobrazini toping.

3. $C[0,1]$ fazoni R ga o‘tkazuvchi

$F: y \to \int_0^1 \left(x^2 - y^2(x)\right)dx$ akslantirish berilgan. $F(sin\pi x)$ ni toping. $F^{-1}\left(\frac{1}{3}\right)$ ga tegishli ikkita element ko‘rsating.

4. R_2^2 fazoni $C[0,1]$ ga o‘tkazuvchi $F: (x, y) \to \varphi(t) = xt^2 - 2yt$ akslantirish berilgan. $(-1,1)$ nuqtaning obrazini toping. Quyidagi $a)\ f(t) = 3t^2 + 4t;$ $b)\ f(t) = 5t^2 - 2;$ $c)\ f(t) = sint$ funksiyalarning proobrazlarini toping.

5. Quyidagi $C[a;b] \rightarrow R$ funksionallarni uzluksizlikka tekshiring:

a) $F(y) = \max_{a \le x \le b} y(x)$; *b)* $F(y) = \min_{a \le x \le b} y(x)$; *c)* $F(y) = \int_a^b y(x)dx$.

6-§. To‘la metrik fazolar. To‘ldiruvchi fazo

6.1. Fundamental ketma-ketliklar. Matematik analiz kursidan ma’lumki, ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘lishi uchun u Koshi shartini qanoatlantirishi zarur va yetarli. Bu xossa matematikada katta ahamiyatga ega bo‘lib, haqiqiy sonlar to‘plamining to‘laligini ko‘rsatadi.

Haqiqiy sonlar to‘plamida o‘rinli bo‘lgan bu xossa har qanday metrik fazo uchun o‘rinlimi? - degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob berish uchun quyidagi ta’rifni kiritamiz.

1-ta’rif. Agar (X, ρ) metrik fazodan olingan $\{x_n\}$ ketma-ketlik Koshi shartini qanoatlantirsa, ya’ni ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday $n(\varepsilon)$ nomer mavjud bo‘lib, $\rho(x_n, x_m) < \varepsilon$ tengsizlik barcha $n, m \ge n(\varepsilon)$ uchun bajarilsa, u holda $\{x_n\}$ *fundamental ketma-ketlik* deyiladi.

1-teorema. *Har qanday fundamental ketma-ketlik chegaralangan bo‘ladi.*

Isbot. Ta’rifga ko‘ra $\varepsilon = 1$ uchun $n(\varepsilon)$ nomer mavjud bo‘lib, $\rho(x_n, x_m) < 1$ tengsizlik barcha $n, m \ge n(\varepsilon)$ qiymatlar uchun bajariladi. Xususan, $k > n(\varepsilon)$ va $n \ge k$ uchun ham $\rho(x_n, x_k) < 1$ tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Endi k ni tayinlab olamiz, u holda markazi x_k nuqtada radiusi

$$r = max(\rho(x_1, x_k), \rho(x_2, x_k), \dots, \rho(x_{k-1}, x_k), 1)$$

bo‘lgan shar $\{x_n\}$ ketma-ketlikning barcha hadlarini o‘z ichiga oladi, ya’ni $\{x_n\}$ ketma-ketlik chegaralangan bo‘ladi. Teorema isbot bo‘ldi.

2-teorema. *Ixtiyoriy yaqinlashuvchi ketma-ketlik fundamental bo‘ladi*.

Isbot. Aytaylik, $\{x_n\}$ ketma-ketlik a nuqtaga yaqinlashsin. U holda ε>0 son uchun shunday $n(\varepsilon)$ nomer topilib, barcha $n \ge n(\varepsilon)$ uchun $\rho(x_n, a) < \frac{\varepsilon}{2}$ tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Demak, $n, m \ge$

$n(\varepsilon)$ lar uchun $\rho(x_n, x_m) \leq \rho(x_n, a) + \rho(a, x_m) < \frac{\varepsilon}{2} + \frac{\varepsilon}{2} = \varepsilon$ munosabat o'rinli. Bu esa $\{x_n\}$ ketma-ketlikning fundamentalligini isbotlaydi. Teorema isbot bo'ldi.

6.2. To'la metrik fazoning ta'rifi, misollar

2-ta'rif. Agar X metrik fazoda ixtiyoriy fundamental ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda *X to'la metrik fazo* deyiladi.

Misollar: 1) Agar $X = R, \rho(x, y) = |y - x|$ bo'lsa, u holda (R, ρ) to'la metrik fazo bo'lishi ravshan;

2) agar $X = R_2^n, \rho(x, y) = \sqrt{\sum_{i=1}^{n}(y_i - x_i)^2}$ bo'lsa, u holda $(R_2^n\ , \rho)$ $-$to'la metrik fazo bo'ladi, uning to'laligini ko'rsatishni o'quvchiga qoldiramiz;

3) agar $X = Q, \rho(r_2, r_1) = |r_2 - r_1|$ bo'lsa, u holda (Q, ρ) to'la bo'lmagan metrik fazoga misol bo'ladi, chunki, masalan $\left\{r_n = \left(1 + \frac{1}{n}\right)^n\right\}$ ratsional sonlar ketma-ketligi fundamental bo'lib, Q da yaqinlashuvchi emas, ya'ni uning limiti e, ratsional son emas;

4) $C[a, b]$ to'la metrik fazo bo'ladi.

Uning to'laligini ko'rsatish uchun undagi istalgan $\{x_n(t)\}$ fundamental ketma-ketlikning $[a, b]$ kesmada uzluksiz bo'lgan funksiyaga yaqinlashishini ko'rsatishimiz kerak.

Aytaylik $\{x_n(t)\}$ fundamental ketma-ketlik bo'lsin. $C[a, b]$ fazodagi yaqinlashish funksiyalarning tekis yaqinlashishiga ekvivalent ekanligi ma'lum. Har bir $t \in [a, b]$ nuqtada $\{x_n(t)\}$ sonli ketma-ketlik fundamental bo'lganligi sababli yaqinlashuvchi bo'ladi. Uning limitini $x_0(t)$ bilan belgilaymiz. $\{x_n(t)\}$ ketma-ketlik $x_0(t)$ funksiyaga tekis yaqinlashuvchi bo'lgani uchun $x_0(t)$ funksiya uzluksiz bo'ladi, Demak, $x_0(t) \in C[a, b]$ bo'ladi.

6.3. Ichma-ich joylashgan yopiq sharlar ketma-ketligi

Matematik analiz kursida ichma-ich joylashgan segmentlar ketma-ketligi, haqidagi teorema o'rganilgan edi. Bu teorema to'la metrik fazolar uchun ham o'rinli bo'ladi.

3-teorema. (X, ρ) *to'la metrik fazoda* $(\bar{S}_n = \bar{S}_n(a_n, \varepsilon_n))$ *yopiq sharlar ketma-ketligi berilgan bo'lib, ular uchun quyidagi shartlar bajarilsin:* $\bar{S}_{n+1} \subset \bar{S}_n$ $(n = 1,2, \dots)$ *va* $n \to \infty$ *da* $\varepsilon_n \to 0$.

U holda bu sharlarning umumiy qismi birgina nuqtadan iborat bo'ladi.

Isbot. Berilgan $\bar{S}_n$ sharlarning markazlaridan iborat bo'lgan quyidagi ketma-ketlikni tuzamiz:

$$a_1, a_2, \dots, a_n, \dots \qquad (1)$$

Teorema shartiga ko'ra $a_{n+p} \in \bar{S}_n$ $(p = 1,2, \dots)$. Shuning uchun $\rho(a_{n+p}, a_n) \leq \varepsilon_n$ yoki $n \to \infty$ da $\rho(a_{n+p}, a_n) \to 0$ bo'ladi.

Demak, (1) ketma-ketlik fundamental. X to'la metrik fazo bo'lganligi uchun bu ketma-ketlik biror $a \in X$ elementga yaqinlashuvchi bo'ladi. Endi, ixtiyoriy $\bar{S}_m$ yopiq sharni olamiz (m-tayin natural son); u holda $a \in \bar{S}_m$, chunki $(a_m, a_{m+1}, \dots)$ nuqtalar ketma-ketligi (1) ketma-ketlikning qism ketma-ketligi bo'lganligi uchun a nuqtaga yaqinlashadi. Bu ketma-ketlikning har bir hadi $\bar{S}_m$ ga tegishli va $\bar{S}_m$ yopiq bo'lganligi uchun $a \in \bar{S}_m, m = 1, 2, \dots$. Demak,

$$a \in \bigcap_{m=1}^{\infty} \bar{S}_m$$

bo'ladi.

Endi a nuqtaning yagonaligini isbotlash uchun teskarisini faraz qilamiz: $\bigcap_{m=1}^{\infty} \bar{S}_m$ ga a nuqtadan farqli yana biror b element ham tegishli bo'lsin.

U holda $0 < \rho(a,b) \leq \rho(a, a_n) + \rho(a_n, b) \leq 2\varepsilon_n$ va $n \to \infty$ da $\varepsilon_n \to 0$ bo'lganligi uchun $\rho(a,b) = 0$, ya'ni $a = b$ bo'ladi. Teorema isbot bo'ldi.

4-teorema. *Agar (X, ρ) metrik fazoda, 3-teorema shartlarini qanoatlantiruvchi har qanday yopiq sharlar ketma-ketligi bo'sh bo'lmagan umumiy qismga ega bo'lsa, u holda X to'la metrik fazo bo'ladi.*

6.4. To'ldiruvchi fazo haqidagi teorema

Quyida funksional analizning asosiy qoidalaridan biri bo'lgan to'ldiruvchi fazo haqidagi teorema isbotini keltiramiz.

3-ta'rif. Agar (X, ρ) metrik fazo uchun shunday (X^*, ρ^*) to'la metrik fazo mavjud bo'lib, X fazo X^* ning hamma yerida zich (ya'ni $\bar{X} \supset X^*$) bo'lsa, u holda (X^*, ρ^*) metrik fazo (X, ρ) *fazoning to'ldiruvchi fazosi* deyiladi.

Misol. Q ratsional sonlar to‘plami $\rho(r,q)=|q-r|$ metrikaga nisbatan to‘la emas. Ammo R haqiqiy sonlar to‘plami $\rho(x,y)=|y-x|$ metrikaga nisbatan to‘la metrik fazo. Shuningdek, bilamizki Q to‘plam R da zich, ya’ni $\bar{Q}=R$, demak R fazo Q fazoning to‘ldiruvchi fazosi bo‘ladi.

5-**teorema**. *Ixtiyoriy* (X,ρ) *metrik fazo to‘ldiruvchiga ega bo‘lib, u* X *ning elementlarini o‘z o‘rnida qoldiruvchi izometriya aniqligida yagona bo‘ladi, ya’ni har qanday ikki to‘ldiruvchi fazoning birini ikkinchisiga aks ettiruvchi va* X *fazoning har bir nuqtasini o‘z o‘rnida qoldiruvchi izometriya doim mavjud.*

Isbot. Avval, agar to‘ldiruvchi fazo mavjud bo‘lsa, uning yagonaligini isbotlaymiz. Aytaylik (X^*,ρ_1) va (X^{**},ρ_2) fazolar (X,ρ) fazoning to‘ldiruvchi fazolari bo‘lsin. Bizning maqsadimiz uchun quyidagi:

1) φ - izometriya;

2) ixtiyoriy $x\in X$ uchun $\varphi(x)=x$

xossalarga ega bo‘lgan $\varphi\colon X^*\to X^{**}$ akslantirishning mavjudligini ko‘rsatish yetarli.

Bunday φ izometriyani quyidagicha aniqlaymiz. Aytaylik $x^*\in X^*$ ixtiyoriy nuqta bo‘lsin. To‘ldiruvchi fazoning ta’rifiga asosan x^* ga yaqinlashuvchi va X ning elementlaridan tuzilgan $\{x_n\}$ ketma-ketlik mavjud. Bu ketma-ketlik X^{**} fazoga ham tegishli. X^{**} to‘la bo‘lganligi uchun $\{x_n\}$ ketma-ketlik biror $x^{**}\in X^{**}$ nuqtaga yaqinlashuvchi bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, x^{**} nuqta $\{x_n\}$ ketma-ketlikni tanlashga bog‘liq emas. Akslantirishni $\varphi(x^*)=x^{**}$ ko‘rinishda aniqlaymiz. Ravshanki, ixtiyoriy $x\in X$ uchun $\varphi(x)=x$.

Endi faraz qilaylik, $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ lar X fazodagi fundamental ketma-ketliklar bo‘lib, ular X^* fazoda mos ravishda x^* va y^* nuqtalarga, X^{**} fazoda mos ravishda x^{**} va y^{**} nuqtalarga yaqinlashuvchi bo‘lsin. U holda metrikaning uzluksizligiga asosan

$$\rho_1(x^*,y^*)=\lim_{n\to\infty}\rho_1(x_n,y_n)\ =\ \lim_{n\to\infty}\rho(x_n,y_n),$$
$$\rho_2(x^{**},y^{**})=\lim_{n\to\infty}\rho_2(x_n,y_n)\ =\ \lim_{n\to\infty}\rho(x_n,y_n),$$

munosabatlar, ya’ni $\rho_1(x^*,y^*)=\rho_2(x^{**},y^{**})$ tenglik o‘rinli. Shunday qilib, φ biz izlagan izometriya bo‘ladi.

Endi to‘ldiruvchi fazoning mavjudligini isbotlaymiz. X metrik fazoda $\{x_n\}$ va $\{x'_n\}$ fundamental ketma-ketliklar uchun $\lim_{n\to\infty} \rho(x_n, x'_n) = 0$ bajarilsa, biz ularni *ekvivalent* deymiz va $\{x_n\} \backsim \{x'_n\}$ ko‘rinishda belgilaymiz. Bu munosabat ekvivalentlik munosabat bo‘ladi. Demak, X fazodagi fundamental ketma-ketliklar to‘plami o‘zaro ekvivalent bo‘lgan, ketma-ketliklar sinflariga ajraladi. Endi biz (X^*, ρ) fazoni quyidagicha aniqlaymiz.

X^* ning elementlari deb, o‘zaro ekvivalent bo‘lgan fundamental ketma-ketliklar sinflariga aytamiz.

Agar $x^*, y^* \in X^*$ ikki sinf bo‘lsa, biz ularning har biridan $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ fundamental ketma-ketliklarni olib, X^* fazoda metrikani

$$\rho(x^*, y^*) = \lim_{n\to\infty} \rho(x_n, y_n) \qquad (1)$$

ko‘rinishda aniqlaymiz.

Endi X ni X^* ning qism fazosi deb hisoblash mumkinligini ko‘rsatamiz.

Ixtiyoriy $x \in X$ elementga shu elementga yaqinlashuvchi bo‘lgan fundamental ketma-ketliklar sinfini mos qo‘yamiz. Bu sinf bo‘sh emas, chunki bu sinf statsionar bo‘lgan (ya’ni hamma x_n elementlari x ga teng bo‘lgan) ketma-ketlikni o‘z ichiga oladi. Agar $x = \lim_{n\to\infty} x_n$, $y = \lim_{n\to\infty} y_n$ bo‘lsa, u holda $\rho(x, y) = \lim_{n\to\infty} \rho(x_n, y_n)$. Shu tarzda har bir $x \in X$ ga yuqorida aytilgan sinfni mos qo‘ysak, X ni X^* ga izometrik akslantirish hosil bo‘ladi. Shuning uchun X ni uning X^* dagi tasviri bilan aynan teng deb hisoblaymiz.

X ni X^* ning hamma erida zich ekanligini isbotlaymiz. Aytaylik $x^* \in X^*$ ixtiyoriy element va $\varepsilon > 0$ bo‘lsin. x^* sinfga tegishli bo‘lgan biror $\{x_n\} \in x^*$ fundamental ketma-ketlikni olamiz. n_0 natural son shunday bo‘lsinki, ushbu $\rho(x_n, x_m) < \varepsilon$ tengsizlik ixtiyoriy $n, m > n_0$ lar uchun bajarilsin. U holda m bo‘yicha limitga o‘tsak, $\rho(x_n, x^*) = \lim_{n\to\infty} \rho(x_n, x_m) \leq \varepsilon$ tengsizlik ixtiyoriy $n > n_0$ uchun bajariladi. Demak, x^* nuqtaning ixtiyoriy atrofida X ning elementi mavjud, ya’ni X ning yopilmasi X^* ga teng.

Nihoyat, X^* ning to‘la ekanligini isbotlaymiz. Avval shuni aytish kerakki, X^* ning ta’rifiga ko‘ra X ning elementlaridan hosil bo‘lgan ixtiyoriy $x_1, x_2, \dots, x_n, \dots$ fundamental ketma-ketlik X^*ning biror x^* elementiga yaqinlashadi, aniqrog‘i, shu elementni o‘z ichiga oluvchi sinf bilan aniqlangan x^* elementga yaqinlashadi. X fazo X^* fazoda zich bo‘lgani tufayli X^*ning elementlaridan tuzilgan ixtiyoriy $x_1^*, x_2^*, \dots, x_n^*, \dots$ fundamental ketma-ketlik uchun unga ekvivalent bo‘lgan va X ning elementlaridan tuzilgan $x_1, x_2, \dots, x_n, \dots$ ketma-ketlik mavjud. Buni ko‘rsatish uchun x_n sifatida X ning ushbu $\rho(x_n, x_n^*) < \frac{1}{n}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy elementini olsa bo‘ladi. Hosil bo‘lgan $\{x_n\}$ ketma-ketlik X da fundamental, va demak, biror x^* elementga yaqinlashuvchi bo‘ladi. Shuningdek, bu holda $\{x_n^*\}$ ketma-ketlik ham x^* ga yaqinlashadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Mashqlar

1. Sonlar o‘qida umumiy hadi

$$x_n = 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{2^2} + \dots + \frac{1}{2^n}$$

bo‘lgan ketma-ketlikning fundamental ekanligini isbotlang.

2. $y_n(x) = x^n$ funksiyalar ketma-ketligi *a)* $C[-0{,}5; 0{,}5]$; *b)* $C[0; 1]$ fazoda fundamental ketma-ketlik bo‘ladimi?

3. R_2^n fazoning to‘laligini isbotlang.

4. R_1^n fazoning to‘laligini isbotlang.

5. $C[a; b]$ fazoning ko‘phadlardan iborat qism fazosi to‘la bo‘ladimi?

6. 4-teormani isbotlang.

7. X metrik fazoda $\{x_n\}$ va $\{x'_n\}$ fundamental ketma-ketliklar uchun $\lim\limits_{n\to\infty} \rho(x_n, x'_n) = 0$ bajarilsa, biz ularni *ekvivalent* deymiz va $\{x_n\} \backsim \{x'_n\}$ ko‘rinishda belgilaymiz. Bu munosabat ekvivalentlik munosabat bo‘lishini isbotlang.

8. Agar $x^*, y^* \in X^*$ ikki sinf bo‘lsa, biz ularning har biridan $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ fundamental ketma-ketliklarni olib, X^* fazoda $\rho(x^*, y^*) = \lim\limits_{n\to\infty} \rho(x_n, y_n)$ funksiyani aniqlaymiz. Uning metrika ekanligini isbotlang.

9. $C_1[a,b]$ fazoning to‘la emasligini ko‘rsating.
10. $C_2[a,b]$ fazoning to‘la emasligini ko‘rsating.

7-§. Qisqartirib akslantirish prinsipi

7.1. **Akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtasi**

Aytaylik (X,ρ) metrik fazoni o‘z-o‘ziga aks ettiruvchi T akslantirish berilgan bo‘lsin.

1-ta’rif. Agar X fazoda shunday a nuqta topilib, $T(a)=a$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda a nuqta T *akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtasi* deyiladi.

Misollar. 1) Sonlar o‘qini o‘ziga aks ettiruvchi $T: x \to x^2$ akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtalari $x = x^2$ tenglama yechimlaridan, ya’ni 0 va 1 dan iborat.

2) $\begin{cases} u = 2x+3y-2, \\ v = x+y+1 \end{cases}$ formulalar tekislikni o‘z-o‘ziga akslantiradi. Bu akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtalari $\begin{cases} x = 2x+3y-2, \\ y = x+y+1 \end{cases}$ sistemaning yechimidan, ya’ni $(-1;1)$ nuqtadan iborat.

3) Agar $y(x)$ funksiya $[0;1]$ kesmada uzluksiz bo‘lsa, u holda $y^2(x)-y(x)-x^2$ funksiya ham [0;1] kesmada uzluksiz funksiya bo‘ladi. Shuning uchun $T(y) = y^2 - y - x^2$ formula bilan aniqlangan akslantirish $C[0;1]$ fazoni o‘z-o‘ziga akslantiradi. Bu akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtalari $y^2(x)-y(x)-x^2 = y(x)$ funksional tenglama yechimlaridan, ya’ni $y = 1+\sqrt{1+x^2}$ va $y = 1-\sqrt{1+x^2}$ funksiyalardan iborat bo‘ladi.

7.2. Qisqartirib akslantirish

(X,ρ) metrik fazoni o‘z-o‘ziga aks ettiruvchi T akslantirish berilgan bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar X fazodan olingan ixtiyoriy x va y nuqtalar uchun

$$\rho(T(x),T(y)) \le \alpha\rho(x,y) \qquad (1)$$

tengsizlikni va $0<\alpha<1$ shartni qanoatlantiradigan α son mavjud bo‘lsa, u holda T qisqartirib akslantirish deyiladi.

Misol: $X = [0; 1/3], \rho(x, y) = |y - x|, T(x) = x^2$ bo‘lsin. Agar x_1 va x_2 kesmaning ixtiyoriy nuqtalari bo‘lsa, u holda

$$\rho\big(T(x_1), T(x_2)\big) = \left|x_2^2 - x_1^2\right| = |x_2 + x_1| \cdot |x_2 - x_1| \le \frac{2}{3} \cdot |x_2 - x_1| = \frac{2}{3} \cdot \rho(x_1, x_2)$$

bo‘ladi. Demak, T akslantirish qisqartirib akslantirish ekan.

1-teorema. *Agar T qisqartirib akslantirish bo‘lsa, u holda T uzluksiz bo‘ladi.*

Isbot. Aytaylik a nuqta X fazoning ixtiyoriy nuqtasi va $\varepsilon > 0$ bo‘lsin. U holda $\rho(x, a) < \varepsilon$ shartni qanoatlantiruvchi barcha $x \in X$ lar uchun (1) tengsizlikka ko‘ra quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\rho(T(x), T(a)) \le \alpha\rho(x, a) < \alpha\varepsilon < \varepsilon.$$

Bu esa ixtiyoriy a nuqtada T akslantirishning uzluksiz ekanligini isbotlaydi. Teorema isbot bo‘ldi.

7.3. Qisqartirib akslantirish prinsipi

2-teorema. *(X, ρ) to‘la metrik fazoda aniqlangan har qanday T qisqartirib akslantirish yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega, ya’ni $Tx = x$ tenglamaning yagona yechimi mavjud.*

Isbot. Aytaylik a_0 nuqta X fazoning ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsin. T akslantirish X fazoni o‘z-o‘ziga akslantirgani uchun a_0 nuqtaning obrazi ham X fazoga tegishli bo‘ladi. Bu nuqtani a_1 bilan belgilaymiz, ya’ni $a_1 = T(a_0)$. Endi a_1 nuqtaning obrazini topib, uni a_2 bilan belgilaymiz. Bu jarayonni cheksiz davom ettirib X fazoning elementlaridan tuzilgan quyidagi ketma-ketlikka ega bo‘lamiz:

$$a_1 = T(a_0),\ a_2 = T(a_1) = T^2(a_0), \dots, a_{n+1} = T(a_n) = T^n(a_0), \dots \qquad (2)$$

Bu ketma-ketlikning fundamental ekanligini ko‘rsatamiz.

(1) va metrikaning uchburchak tengsizliklaridan, ixtiyoriy n va m natural sonlar $(m > n)$ uchun

$$\rho(a_n, a_m) = \rho(T^n(a_0), T^m(a_0)) = \rho(T^n(a_0), T^n(a_{m-n})) \le$$
$$\le \alpha^n \cdot \rho(a_0, a_{m-n})$$
$$\le \alpha^n \cdot (\rho(a_0, a_1) + \rho(a_1, a_2) + \dots +$$
$$+\rho(a_{m-n-1}, a_{m-n})) \le \alpha^n \cdot (\rho(a_0, a_1) + \alpha\rho(a_0, a_1) + \dots +$$
$$+\alpha_{m-n-1}\rho(a_0, a_1)) \le \frac{\alpha^n}{1 - \alpha}\rho(a_0, a_1)$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi. Endi $\alpha < 1$ bo‘lganligi sababli, n yetarlicha katta bo‘lganda bu tengsizlikning o‘ng tomonini istalgancha kichik qilish mumkin. Demak, $\{a_n\}$ ketma-ketlik fundamental bo‘ladi. Bundan $\{a_n\}$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi: $\lim_{n\to\infty} a_n = a$ va X fazoning to‘laligidan $a \in X$ kelib chiqadi. T uzluksiz akslantirish bo‘lganligidan $T(a) = \lim_{n\to\infty} T(a_n) = T\left(\lim_{n\to\infty} a_n\right) = \lim_{n\to\infty} a_{n+1} = a$ Demak, a qo‘zg‘almas nuqta ekan.

Endi qo‘zg‘almas nuqtaning yagonaligini isbotlaymiz. Faraz qilaylik qo‘zg‘almas nuqta ikkita $T(a) = a$ va $T(b) = b$ bo‘lsin. U holda $\rho(a,b) = \rho(T(a),T(b)) \le \alpha{\cdot}\rho(a,b)$ bo‘ladi. Bundan $\rho(a,b) = 0$ va demak, $a = b$ kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Mashqlar

1. Tekislikni o‘ziga akslantiruvchi $\begin{cases} u = x(y-1) - 2y^2 + 5y + x - 3, \\ v = -x(y+1) + 5 \end{cases}$ akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtalarini toping.

2. To‘g‘ri chiziqni o‘ziga akslantiruvchi $f(x) = 5x^2 + 2x + 3 - 2sinx$ akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtasining mavjudmasligini ko‘rsating.

3. $f(x) = sinx$ funksiya sonlar o‘qida qisqartib akslantirish bo‘ladimi?

4. $\begin{cases} u = 0{,}7x + 0{,}8y, \\ v = 0{,}2x - 0{,}05y \end{cases}$ sistema bilan aniqlangan $f:(x,y) \to (u;v)$ akslantirish $a)\ R_2^2$; $b)\ R_1^2$ fazolarda qisqartirib akslantirish bo‘ladimi?

5. $f(x) = \sqrt[3]{1000 - x}$ funksiya [9;10] kesmani o‘ziga akslantirishini ko‘rsating. Bu qisqartirib akslantirish bo‘ladimi?

8-§. Qisqartirib akslantirishning tatbiqlari

8.1. Differensial va integral tenglamalarga tatbiqi

Aytaylik $C[a,b]$ fazoda

$$Ay(x) = y_0(x) + \int_{x_0}^{x} f(x, y(x))dx \qquad (1)$$

akslantirish berilgan bo‘lsin. Bu yerda $f(x,u)$ uzluksiz funksiya bo‘lib, u $G = \{(x;u): a \le x \le b, M < u \le N, a, b, M$ va N berilgan sonlar$\}$ sohada Lipshits shartini qanoatlantirsin, ya’ni G sohadan olingan ixtiyoriy ikkita $(x; y_1)$ va $(x; y_2)$ nuqta uchun quyidagi munosabat bajarilsin:

$$|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \le L|y_1 - y_2|,$$

bu yerdagi L soni G soha bilan aniqlanuvchi va $(x; y_1), (x; y_2) \in G$ nuqtalarga bog‘liq bo‘lmagan nomanfiy son.

Yuqoridagi A akslantirishning $\left|x - x_0\right| \le d < \frac{1}{L}$ bo‘lganda qisqartirib akslantirish ekanligini ko‘rsatamiz.

Haqiqatan y va y_1 funksiyalar $C[a,b]$ fazoning ixtiyoriy elementlari bo‘lsin. U holda

$$\rho(Ay, Ay_1) = \max_{a \le x \le b} |Ay - Ay_1| \le \max_{a \le x \le b} \int_{x_0}^{x} |f(x,y) - f(x,y_1)| \cdot |dx|$$

$$\le \max_{a \le x \le b} \int_{x_0}^{x} L|y - y_1| \cdot |dx| = L|x - x_0| \cdot \max_{a \le x \le b} |y - y_1|$$

$$= \theta\rho(y, y_1),$$

munosabatga ega bo‘lamiz. Bu yerda $\theta = L\left|x - x_0\right| \le Ld < 1$ bo‘ladi. Demak, berilgan akslantirish $C[x_0 - d, x_0 + d]$ fazoning Lipshits shartini qanoatlantiruvchi C* qism fazosida qisqartib akslantirish bo‘ladi. C* qism fazo $C[x_0 - d, x_0 + d]$ fazoning yopiq qism fazosi bo‘lganligi sabali to‘la metrik fazo bo‘ladi. Demak, akslantirishning yagona qo‘zg‘almas nuqtasi mavjud bo‘ladi.

Shunday qilib, $y = Ay$ tenglamaning yoki

$$y = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(x,y)dx \qquad (2)$$

tenglamaning yagona uzluksiz yechimi mavjud.

(1) integral tenglama $y_0 = y(x_0)$ boshlang‘ich shart bilan berilgan

$$y' = f(x, y) \qquad (3)$$

differensial tenglamaga teng kuchli bo‘lganligi sababli, yuqoridagi mulohazalardan (3) differensial tenglama yechimining mavjudligi va yagonaligi kelib chiqadi.

8.2. Algebradagi tatbiqi

Quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$x_i = \sum_{k=1}^{n} a_{ik} x_k + b_i\,, (i = 1, 2, \ldots, n) \qquad (5)$$

Bu tenglamalar sistemasini n o‘lchamli vektor fazodagi $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$ vektor va T=(a_{ij}) matritsa orqali ifodalab, $x = T(x) + b$ ko‘rinishda yozish mumkin. n o‘lchamli vektor fazoda quyidagi metrikani qaraymiz: $\rho(x, y) = \max\limits_{1\le i\le n} |x_i - y_i|$, bu yerda $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$ va $y = (y, y_2, \ldots, y_n)$. U holda ixtiyoriy ikkita $x' = (x_1', x_2', \ldots, x_n')$ va $x'' = (x_1'', x_2'', \ldots, x_n'')$ nuqta uchun

$$\begin{aligned}
\rho(T(x'), T(x'')) = \rho(y', y'') &= \max_{1\le i\le n} |y_i' - y_i''| \\
&= \max_{1\le i\le n} \left| \sum_{k=1}^{n} a_{ik} (x_k' - x_k'') \right| \\
&\le \max_{1\le i\le n} \sum_{k=1}^{n} |a_{ik}| |x_k' - x_k''| \\
&\le \max_{1\le i\le n} \sum_{k=1}^{n} |a_{ik}| \max_{1\le k\le n} |x_k' - x_k''| \\
&= \rho(x', x'') \max_{1\le i\le n} \sum_{k=1}^{n} |a_{ik}|
\end{aligned}$$

munosabatga ega bo‘lamiz. Bundan T akslantirish qaralayotgan metrikaga nisbatan qisqartirib akslantirish bo‘lishi uchun

$$\sum_{k=1}^{n} |a_{ik}| \le \alpha < 1, \qquad i = 1, 2, \ldots, n \qquad (6)$$

tengsizliklarning o‘rinli bo‘lishi yetarli ekan. Demak, (5) tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega bo‘lishi uchun (6) tengsizliklarning o‘rinli bo‘lishi yetarli.

8.3. Matematik analizdagi tatbiqi

Quyida, oshkormas funksiyaning mavjudligi haqidagi teoremani isbotlaymiz.

3-teorema. *Aytaylik* $f(x,y)$ *funksiya* $G=\{(x,y): a\le x\le b, -\infty<y<+\infty)\}$ *sohada* x *bo‘yicha uzluksiz va* y *bo‘yicha musbat, chegaralangan hosilaga ega bo‘lsin:* $0<m\le f_y'\le M$. *U holda* $f(x,y)=0$ *tenglama* $[a;b]$ *kesmada yagona uzluksiz yechimga ega.*

Isbot. $C[a;b]$ fazoni o‘z-o‘ziga aks ettiruvchi $A(y)=y-\frac{1}{M}f(x,y)$ akslantirishni qaraymiz. Bu akslantirishning qisqartirib akslantirish ekanligini ko‘rsatamiz. Agar y_1 va y_2 funksiyalar $C[a;b]$ fazoning elementlari va teorema shartlari o‘rinli bo‘lsa, u holda chekli orttirmalar haqidagi Lagranj teoremasiga ko‘ra $f(x,y_1)-f(x,y_2)=f_y'\left(x,y_1+\theta(y_2-y_1)\right)(y_1-y_2)$ bo‘ladi, bu yerda $0<\theta<1$. Shu munosabatni e’tiborga olsak

$$\rho(A(y_1),A(y_2))=|A(y_1)-A(y_2)|$$

$$=|(y_1-\frac{1}{M}f(x,y_1))-(y_2-\frac{1}{M}f(x,y_2))|=$$

$$=\left|(y_1-y_2)-\frac{1}{M}f_y'(x,y_1+\theta(y_2-y_1))(y_1-y_2)\right|\le\left|1-\frac{m}{M}\right||y_1-y_2|$$

$$==\alpha\rho(y_1,y_2)$$

bo‘ladi. Bu yerda $\alpha=1-\frac{m}{M}$ va $0<\alpha<1$.

Demak, ixtiyoriy $y_0\in C[a;b]$ nuqta uchun $y_1=A(y_0), y_2=A(y_1),\dots$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘ladi va $\lim\limits_{n\to\infty}y_n=y$ funksiya $f(x,y)=0$ tenglamaning $[a;b]$ kesmadagi yagona uzluksiz yechimi bo‘ladi. Teorema isbot bo‘ldi.

Mashqlar

1. (2) integral tenglamaning (4) differensial tenglamaga teng kuchli ekanligini isbotlang.

2. (5) tenglamalar sistemasining $a)\ R_2^n$; $b)\ R_\infty^n$ fazoda qisqartib akslantirish bo‘lish shartlarini aniqlang.

3. Berilgan a musbat sonning kvadrat ildizini hisoblashda ixtiyoriy $x_0 \geq \sqrt{a}$ uchun $x_n = \frac{1}{2}\left(x_{n-1} + \frac{a}{x_{n-1}}\right)$ formula bilan qurilgan ketma-ketlik yaqinlashishidan foydalanish mumkinligini isbotlang. Ko'rsatma. $X = [\sqrt{a}, +\infty)$ fazoda $f(x) = \frac{1}{2}\left(x + \frac{a}{x}\right)$ akslantirishning qisqartib akslantirish ekanligidan foydalaning.

4. Quyidagi rekurrent formulalar bilan berilgan ketma-ketliklarning yaqinlashuvchi ekanligini isbotlang va limitini hisoblang:

$a)\ x_n = \dfrac{x_{n-1}}{2 + x_{n-1}}, (x_0 = 1);$ $\qquad b)\ x_n = \dfrac{x_{n-1}}{3 - x_{n-1}}, (x_0 = -5)$

6. $f(x) \in C[a;b]$ bo'lsin. $y(x) + \frac{1}{2} \sin y(x) + f(x) = 0$ tenglama yagona $y(x) \in C[a;b]$ yechimga ega ekanligini isbotlang.

II BOB. SEPARABELLIK VA KOMPAKTLILIK

1-§. Separabel fazo. $R^n, C[a,b]$ va l_p fazolarning separabelligi

1-ta'rif. (X,ρ) metrik fazoda A, B to'plamlar uchun $\bar{A} \supset B$ bo'lsa, A to'plam B *to'plamda zich* deyiladi. Xususan, agar A to'plam X fazoda zich bo'lsa, u holda A *hamma yerda zich* to'plam deyiladi.

1-misol. Agar (R,ρ) metrik fazoda $A = [0,1] \cap Q$, $B = [0,1]$ bo'lsa, u holda $\bar{A} = [0,1] \supset B$ bo'ladi. Ta'rifga ko'ra A to'plam B to'plamda zich.

2-misol. Yuqoridagi misolda B sifatida $[0,1] \cap I$ sonlar to'plamni qaraymiz, bu yerda I irratsional to'plami. Bu holda ham A to'plam $B = [0,1] \cap I$ da zich bo'ladi.

3-misol. Agar (R,ρ) metrik fazoda $A = [0,1] \cap I, B = [0,1] \cap Q$ (yoki B=[0,1] yoki B=[0;0,5]) bo'lsa, ravshanki $\bar{A} \supset B$ bo'ladi. Ta'rifga ko'ra A to'plam B da zich bo'ladi.

2-ta'rif. Agar A to'plam hech bir sharda zich bo'lmasa, u holda A to'plam *hech qayerda zich emas* deyiladi. Ya'ni, agar ixtiyoriy S sharning ichida A to'plam bilan kesishmaydigan S_1 shar topilsa, A to'plam *hech qayerda zich emas* deyiladi.

4-misol. (R^n,ρ) metrik fazoda $A = \{e_1, e_2, \dots, e_n\}$ to'plam hech qayerda zich emas, bu yerda $e_k = (0,0,\dots,1,0,\dots 0)$.

5-misol. (R^n,ρ) metrik fazoda ixtiyoriy chekli to'plam, hech qayerda zich bo'lmagan to'plamga misol bo'ladi.

3-ta'rif. Agar (X,ρ) metrik fazoning hamma yerida zich bo'lgan sanoqli yoki chekli to'plam mavjud bo'lsa, u holda X *separabel fazo* deyiladi.

Boshqacha aytganda, agar X fazoda

$$x_1, x_2, \dots, x_n, \dots \qquad (1)$$

ketma-ketlik mavjud bo'lib, X dan olingan ixtiyoriy x uchun unga yaqinlashuvchi (1) ketma-ketlikning

$$x_{n_1}, x_{n_2}, \dots, x_{n_k}, \dots$$

qism ketma-ketligi mavjud bo'lsa, u holda (X,ρ) *separabel metrik fazo* deyiladi.

1-teorema. R^n separabel fazo bo‘ladi.

Haqiqatdan ham, R^n fazoda koordinatalari ratsional sonlardan iborat bo‘lgan nuqtalar to‘plami sanoqli bo‘lib, R^n ning hamma yerida zich.

2-teorema. C[a,b] metrik fazo separabel fazo bo‘ladi.

Isbot. Haqiqatdan ham, koeffitsientlari ratsional sonlardan iborat bo‘lgan ko‘phadlar to‘plami P_r sanoqli to‘plam va bu to‘plam ko‘phadlar to‘plami P da zich, P esa matematik analizdagi Veyershtrass teoremasiga ko‘ra $C[a,b]$ da zich. Bu esa $C[a,b]$ ning separabel fazo ekanligini ko‘rsatadi.

3-teorema. l_p fazo separabel metrik fazo bo‘ladi.

Isbot. l_p $(p \geq 1)$ fazoning separabel ekanligini isbotlash uchun $\overline{D} = l_p$ bo‘ladigan $D = \{x = (x_1, x_2, \dots), \sum_{k=1}^{\infty} |x_k|^p < \infty\}$ sanoqli to‘plamning mavjudligini isbotlash yetarli.

Aytaylik, $x \in l_p$bo‘lsin. Bu elementga l_p fazoda ushbu ko‘rinishdagi sanoqli to‘plamni mos qo‘yamiz:

$$x^{(1)} = (x_1, 0, 0, \dots,),$$
$$x^{(2)} = (x_1, x_2, 0, \dots,),$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots,$$
$$x^{(n)} = (x_1, x_2, \dots, x_n, 0, \dots)$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

Bunda $\rho\left(x, x^{(n)}\right) = \left(\sum_{k=n+1}^{\infty} |x_k|^p\right)^{\frac{1}{p}}$ bo‘lib, u yetalicha katta n ni tanlash evaziga oldindan berilgan ε musbat sondan kichik qilib olinishi mumkin.

$x^{(n)}$ nuqtalar to‘plami bilan bir qatorda quyidagicha aniqlanadigan $r^{(n)}$ ratsional nuqtalar to‘plamini qaraymiz:

$$r^{(1)} = (r_1, 0, 0, \dots,),$$
$$r^{(2)} = (r_1, r_2, 0, \dots,),$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots,$$
$$x^{(n)} = (r_1, r_2, \dots, r_n, 0, \dots)$$
$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

bu yerda $r_1, r_2, \dots, r_n, \dots$ ratsional sonlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$|x_1 - r_1| < \frac{\varepsilon}{2^{1+\frac{1}{p}}},$$

$$|x_2 - r_2| < \frac{\varepsilon}{2^{1+\frac{2}{p}}},$$

$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

$$|x_n - r_n| < \frac{\varepsilon}{2^{1+\frac{n}{p}}},$$

$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

Bunday tanlashni har doim bajarish mumkin. U holda

$$\rho\left(x^{(n)}, r^{(n)}\right) = \left(\sum_{i=1}^{n} |x_i - r_i|^p\right)^{\frac{1}{p}} < \sqrt[p]{\sum_{i=1}^{n} \frac{\varepsilon^p}{2^{p+i}}} < \sqrt[p]{\frac{\varepsilon^p}{2^p}} = \frac{\varepsilon}{2}$$

Ikkinchi tomondan, yetarlicha katta n larda $\rho\left(x, x^{(n)}\right) < \frac{\varepsilon}{2}$ o‘rinli. Demak,

$\rho\left(x, r^{(n)}\right) \leq \rho\left(x, x^{(n)}\right) + \rho\left(x^{(n)}, r^{(n)}\right) < \varepsilon$ yetarlicha katta n larda o‘rinli. Bundan x nuqtaning ixtiyoriy ε atrofida $r^{(n)}$ nuqtalar mavjud. Bunday nuqtalar to‘plami sanoqli. Shuning uchun l_p fazo, xususan, l_2 fazo ham separabel fazo ekan.

2-§. $L_p[a, b]$ fazoning separabelligi

Teorema. $L_p[a, b]$ fazo separabel metrik fazo bo‘ladi.

Isbot. Quyidagicha aniqlangan chegaralangan o‘lchovli funksiyalar to‘plamini qaraymiz:

$$x_N(t) = \begin{cases} x(t), & agar \ |x(t)| \leq N, \\ N, agar & |x(t)| > N \end{cases}$$

Ravshanki, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ va ixtiyoriy $x(t) \in L_p[a, b]$ uchun yetarlicha katta N larda $x_N(t)$ funksiyani topish mumkinki,

$$\rho(x, x_N) = \left(\int_a^b |x(t) - x_N(t)|^p \, dt\right)^{\frac{1}{p}} < \frac{\varepsilon}{3} \qquad (1)$$

bo‘ladi. $C[a,b]$ fazoning xossasiga ko‘ra ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ va ixtiyoriy $x_N(t)$ funksiya uchun $y(t) \in C[a, b]$ mavjud bo‘lib,

$$\rho(y, x_N) < \frac{\varepsilon}{3} \qquad (2)$$

o‘rinli bo‘ladi.

O‘z navbatida $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo‘lgan ixtiyoriy $y(t)$ funksiya uchun ratsional koeffitsientli $P(t)$ ko‘phad mavjud bo‘lib,

$$\rho(y,P) < \frac{\varepsilon}{3} \qquad (2)$$

o‘rinli bo‘ladi. (1), (2), va (3) munosabatlardan $\rho(x,P) < \varepsilon$ ekanligi kelib chiqadi.

Ma’lumki, $P(t)$ ko‘phadlar to‘plami sanoqli demak, yuqoridagi mulohazalardan bu to‘plam $L_p[a,b]$ da sanoqli zich to‘plam bo‘ladi. Bu esa $L_p[a,b]$ ning separabel fazo ekanligini isbotlaydi.

3-§. Separabel bo‘lmagan fazoga misol

Endi m fazoning separabel emasligini isbotlaymiz. Buning uchun $M = \{\bar{x} = (x_1, x_2, \dots, x_i, \dots), x_i = 0 \ yoki \ 1$ to‘plamni qaraymiz. M to‘plamning har bir elementi m fazoga tegishli ekanligi ravshan. M to‘plamning ixtiyoriy ikkita elementi orasidagi masofa 1 ga teng. M to‘plamning quvvati kontinuumga teng, haqiqatdan ham, M to‘plamdan olingan har bir $\bar{x} = (x_1, x_2, \dots, x_i, \dots)$ nuqtaga $0,\overline{x_1\ x_2\ \dots\ x_i\ \dots}$ ikkilik kasrni mos qo‘yamiz. Bu moslik o‘zaro bir qiymatli. Ravshanki, barcha ikkilik kasrlar to‘plamining quvvati kontinuumga teng.

Endi m separabel bo‘lsin deb faraz qilamiz. U holda m ning hamma yerida zich bo‘lgan A to‘plam mavjud bo‘ladi. A to‘plamning har bir elementi atrofida radiusi $\varepsilon = \frac{1}{3}$ ga teng bo‘lgan sharni olamiz. U holda bu sharlarning birlashmasida m fazoning hamma elementlari joylashgan bo‘ladi. Ammo sharlarning soni ko‘pi bilan sanoqli bo‘lganligi sababli M to‘plamning kamida ikkita x va y elementi bitta sharga tegishli bo‘ladi. Shu sharning markazi $\bar{x}$ nuqtada bo‘lsin. U holda

$$1 = \rho(x,y) \le \rho(x,\bar{x}) + \rho(\bar{x},y) \le \frac{1}{3} + \frac{1}{3} = \frac{2}{3}$$

ziddiyat kelib chiqadi. Bu ziddiyat m fasoning separabel emasligini isbotlaydi.

Teorema. *Aytaylik,* (X,ρ) *separabel metrik fazo bo'lsin. U holda bu fazoning ixtiyoriy* X_0 *qism to'plami ham* ρ *metrikaga nisbatan separabel metrik fazo bo'ladi.*

Isbot. (X,ρ) separabel fazo bo'lganligi uchun $A=\{\xi_1,\xi_2,\ldots,\xi_n,\ldots\}$ sanoqli to'plam mavjud bo'lib, $\bar{A}=X$ bo'ladi.

Ushbu belgilashni kiritamiz:

$$a_n=\inf_{x\in X_0}\rho(\xi_n,x),\quad n=1,2,3,\ldots$$

Ixtiyoriy *n, k* natural sonlar uchun infimumning xossalariga ko'ra shunday $x_{n_k}\in X_0$ nuqta topiladiki, $\rho\left(\xi_n,x_{n_k}\right)<a_n+\frac{1}{k}$ bo'ladi. Biror $\varepsilon>0$ sonni olaylik va u $\frac{1}{k}<\frac{\varepsilon}{3}$ shartni qanoatlantirsin. A to'plam X ning hamma yerida zich bo'lganligi sababli ixtiyoriy $x_0\in X_0$ uchun shunday *n* topiladiki,

$\rho(\xi_n,x_0)<\frac{\varepsilon}{3}$ bo'ladi.

Demak,

$$\rho\left(\xi_n,x_{n_k}\right)<a_n+\frac{1}{k}\leq\rho(\xi_n,x_0)+\frac{1}{k}<\frac{\varepsilon}{3}+\frac{\varepsilon}{3}=\frac{2\varepsilon}{3}$$

U holda

$$\rho\left(x_0,x_{n_k}\right)<\rho(x_0,\xi_n)+\rho\left(\xi_n,x_{n_k}\right)<\frac{\varepsilon}{3}+\frac{2\varepsilon}{3}=\varepsilon$$

Shunday qilib, ixtiyoriy $x_0\in X_0$ nuqtaning ixtiyoriy atrofida $x_{n_k}\in X_0$ ko'rinishdagi nuqta mavjud. Ya'ni $\{x_{n_k}\}$ ko'rinishdagi to'plam X_0 fazoning hamma yerida zich. Demak, X_0 separabel metrik fazo.

Mashqlar

1. Ko'phadlar to'plami C[a,b] da aniqlangan metrikaga nisbatan metrik fazo bo'ladi. Uning separabel metrik fazo ekanligini isbotlang.

2. R^n separabel fazo ekanligini isbotlang.

3. 3-teorema isbotidagi $x^{(n)}$ nuqtalar to'plamining sanoqli ekanligini isbotlang.

4-§. Metrik fazoda kompakt to‘plamlar

4.1. Kompakt to‘plam ta’rifi, misollar. To‘g‘ri chiziqning ajoyib xossalaridan biri shuki, undagi chegaralangan har qanday cheksiz to‘plam kamida bitta limit nuqtaga ega. Bu fakt Bolsano-Veyershtrass teoremasida o‘z ifodasini topgan. Lekin ixtiyoriy metrik fazoda bunday sodda natija, umuman aytganda, o‘rinli emas. Shuning uchun quyidagi savolning qo‘yilishi tabiiy: Metrik fazoda qanday to‘plamlar sinfi uchun Bolsano-Veyershtrass teoremasining mazmuni saqlanadi? Ushbu savol munosabati bilan quyidagi muhim ta’rifni kiritamiz.

1-ta’rif. X metrik fazodagi M to‘plamning elementlaridan tuzilgan ixtiyoriy ketma-ketlikdan M to‘plamdagi biror elementga yaqinlashuvchi qism ketma-ketlik ajratib olish mumkin bo‘lsa, u holda M to‘plam X da *kompakt* deyiladi.

Misollar. 1) To‘g‘ri chiziqdagi har qanday kesma;

2) Tekislikdagi $r>0$ radiusli yopiq shar;

3) Tekislikda koordinatalari $a \leq x \leq b, c \leq y \leq d$ shartlarni qanoatlantiruvchi $(x; y)$ nuqtalar to‘plami kompakt to‘plamlar bo‘ladi.

4.2. To‘plam kompakt bo‘lishining zaruriy shartlari

1-teorema. *Kompakt to‘plam chegaralangan bo‘ladi.*

Isbot. M kompakt to‘plam bo‘lib, chegaralanmagan bo‘lsin deb faraz qilamiz. M dan ixtiyoriy x_1 nuqtani olib, radiusi $r_1 = 1$ ga teng $S(x_1, r_1)$ sharni ko‘ramiz. M chegaralanmaganligi uchun u bu sharda to‘la joylashgan bo‘lmaydi. M to‘plamning $S(x_1, r_1)$ sharga kirmagan biror x_2 elementini olamiz. U holda $\rho(x_1, x_2) \geq r_1$. So‘ngra radiusi $r_2 = \rho(x_1, x_2) + 1$ ga teng $S(x_2, r_2)$ sharni qurib, M to‘plamning bu sharga kirmagan x_3 elementini olamiz. Bunday element mavjud, chunki M chegaralanmagan to‘plam va $\rho(x_1, x_3) \geq r_2$. Bu jaryonni cheksiz davom ettiramiz. Natijada $\{x_n\}$ $(x_n \in M)$ ketma-ketlik va o‘sib boruvchi $\{r_n\}$ sonli ketma-ketlik hosil bo‘lib, ular uchun ushbu

$$\rho(x_1, x_n) + 1 = r_n > r_{n-1} \; (n = 1,2, \ldots)$$

tengsizliklar bajariladi.

Endi ixtiyoriy $n > m \geq 2$ natural sonlar uchun

$$\rho(x_1, x_n) + 1 = r_n > r_{n-1} \geq r_m; \; \rho(x_1, x_m) + 1 = r_m$$

munosabatlar o‘rinli. Bulardan va quyidagi

$$\rho(x_1, x_n) \leq \rho(x_1, x_m) + \rho(x_m, x_n)$$

tengsizlikka asosan ushbu

$$r_n \leq r_m + \rho(x_m, x_n),$$

demak, $\rho(x_m, x_n) \geq 1$ munosabat kelib chiqadi.

Oxirgi tengsizlikdan $\{x_n\}$ ketma-ketlikning o‘zi ham va uning biror qismi ham fundamental bo‘la olmasligi, ya’ni yaqinlashuvchi bo‘la olmasligi kelib chiqadi. Bu esa M to‘plamning kompaktligiga zid. Teorema isbot bo‘ldi.

Bu teoremaning teskarisi o‘rinli emas. Masalan, l_2 fazoda

$$e_1 = (1, 0, 0, 0, \dots), \quad e_2 = (0, 1, 0, 0, \dots), \quad e_3 = (0, 0, 1, 0, \dots), \dots$$

elementlardan iborat chegaralangan to‘plamni tuzamiz. Bu elementlarning ixtiyoriy ikkitasi orasidagi masofa $\rho(e_m, e_n) = \sqrt{2}$ ga teng $(m \neq n)$. Shuning uchun bu ketma-ketlik va uning hech qanday qismi yaqinlashuvchi bo‘lmaydi, demak, tuzilgan to‘plam kompakt emas.

2-teorema. *Kompakt to‘plam yopiq bo‘ladi.*

Isbot. M to‘plam kompakt bo‘lib, yopiq bo‘lmasin deb faraz qilamiz. U holda yaqinlashuvchi $\{x_n\} \subset M$ ketma-ketlik mavjud bo‘lib uning limiti (b bilan belgilaymiz) M ga tegishli bo‘lmaydi. Bu ketma-ketlikdan M to‘plamning a elementiga yaqinlashuvchi qism ketma-ketlik ajratib olish mumkin emas. Aks holda $\{x_n\}$ ketma-ketlik ikkita, a va b limitga ega bo‘lar, bu esa mumkin emas. Demak, M kompakt emas. Teorema isbot bo‘ldi.

Kompakt to‘plamning istalgan yopiq qism to‘plami ham kompakt to‘plam bo‘lishini isbotlashni o‘quvchiga mashq sifatida qoldiramiz.

4.3. n-o‘lchamli fazoda kompakt to‘plamlar

3-teorema. *R^n fazoda M to‘plamning kompakt bo‘lishi uchun uning chegaralangan va yopiq bo‘lishi zarur va yetarlidir.*

Isbot. Zaruriyligi yuqoridagi teoremadan kelib chiqadi.

Yetarliligi. Aytaylik M chegaralangan va yopiq to‘plam bo‘lsin. M chegaralangan bo‘lganligi sababli uni o‘z ichiga oluvchi, n-o‘lchamli parallelepiped P, ya’ni $P = \{x = (x_1, x_2, \dots, x_n): a_i \leq x_i \leq b_i, i = 1, 2, \dots, n\}$, mavjud. Bu parallelepipedning kompakt to‘plam ekanligi matematik analizdagi Bolsano-Veyershtrass teoremasi kabi isbotlanadi. Buning uchun parallelepipedni teng ikkiga emas, balki teng 2^n boʻlakka boʻlish kerak. Endi M toʻplam yopiq va P kompakt toʻplamning qismi ekanligidan M toʻplamning kompakt ekanligi kelib chiqadi. Teorema isbot boʻldi.

Mashqlar

1. R_2^n fazoning quyida berilgan qism toʻplamlarining qaysilari kompakt ekanligini aniqlang, javobingizni asoslang:

a) n-oʻlchamli shar;

b) n-oʻlchamli sfera;

c) n-oʻlchamli kub;

d) barcha koordinatalari ratsional boʻlgan nuqtalar toʻplami.

2. $C[0,1]$ fazoning quyida berilgan qism toʻplamlarining qaysilari kompakt ekanligini aniqlang, javobingizni asoslang:

a) $C[0,1]$ fazoning oʻzi;

b) barcha koʻphadlar toʻplami;

c) koeffitsientlarining moduli 1 dan katta boʻlmagan barcha koʻphadlar toʻplami;

d) darajasi n dan, koeffitsientlarining moduli 1 dan katta boʻlmagan barcha koʻphadlar toʻplami;

e) $U = \{f : |f(x)| \leq 1\}$ yopiq birlik shar;

f) birlik sfera.

g) $E = \{f \in C[0,1] : f(0) = 0, f(1) = 1, \max\limits_{[0,1]} |f(x)| \leq 1\}$.

3. Kompakt toʻplamning yopiq qism toʻplami kompakt boʻlishini isbotlang.

4. Kompaktlarning kesishmasi kompakt ekanligini isbotlang.

5. Ikkita kompaktning birlashmasi kompakt ekanligini isbotlang.

6. Kompakt toʻplamda $F_1 \supset F_2 \supset \cdots \supset F_n \supset \cdots$ ichma-ich joylashgan ixtiyoriy yopiq sharlar ketma-ketligi uchun $F = \bigcap_{n=1}^{\infty} F_n \neq \emptyset$ ekanligini isbotlang.

7. Agar M toʻplamning ixtiyoriy boʻsh boʻlmagan ichma-ich joylashgan yopiq sharlar ketma-ketligi kesishmasi boʻsh boʻlmasa, u holda M toʻplamning kompakt ekanligini isbotlang.

8. Aytaylik, M kompakt to‘plam, $G_1, G_2, \dots, G_n, \dots$ M to‘plamni qoplaydigan (ya’ni, $M \subset \bigcup_n G_n$) ochiq to‘plamlar sistemasi bo‘lsin. $G_1, G_2, \dots, G_n, \dots$ to‘plamlardan M to‘plamni qoplaydigan chekli qism sistema ajratib olish mumkinligini isbotlang.

9. Faraz qilaylik, M to‘plamning ochiq to‘plamlardan iborat ixtiyoriy qoplamasidan chekli qoplama ajratib olish mumkin bo‘lsin. U holda M to‘plamning kompakt ekanligini isbotlang.

10. F orqali $\{a_1, a_2, \dots, a_n, \dots\}$ to‘plamni belgilaymiz, bu yerda $a_1 = 0, n > 1$ da $a_n = \frac{1}{2^{n-2}}$. Ushbu $G_n = \left(a_n - \frac{1}{10 \cdot 2^{n-1}}, a_n + \frac{1}{10 \cdot 2^{n-1}}\right), n \in N$ intervallar sistemasi F ni qoplaydi. F ning kompaktligini isbotlang. Berilgan intervallar sistemasidan F ni qoplovchi chekli qism sistema ajrating.

11. $G_n = \left(\frac{1}{n+2}, \frac{1}{n}\right), n \in N$ intervallar sistemasi (0,1) intervalning ochiq qoplamasi bo‘ladi. Ushbu qoplamadan chekli qoplama ajratib olish mumkinmi?

12. [0,1] kesmaga tegishli bo‘lgan barcha ratsional sonlar to‘plami X ni nomerlab chiqamiz: $X = \{r_1, r_2, \dots, r_n, \dots\}$. Har bir r_n ni $(r_n - \frac{1}{10 \cdot 2^n}, r_n + \frac{1}{10 \cdot 2^n})$ interval bilan qoplaymiz. Ushbu intervallar sistemasidan X to‘plamning chekli qoplamasini ajratib olish mumkinmi? Bu to‘plam kompaktmi?

5-§. Kompaktlik kriteriyasi

Aytaylik, A va B lar (X, ρ) metrik fazodan olingan to‘plamlar va ε musbat son bo‘lsin.

Ta’rif. Agar A dan olingan ixtiyoriy x element uchun B da $\rho(x, y) < \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $y = y_x$ element mavjud bo‘lsa, B to‘plam A to‘plamga nisbatan ε *to‘r deyiladi.* Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun A to‘plam chekli ε to‘rga ega bo‘lsa, u holda A *to‘la chegaralangan to‘plam* deyiladi.

1-misol. R^2 da koordinatalari butun sonlardan iborat to‘plam 1 to‘rni tashkil etadi.

2-misol. R^n fazoda har qanday chegaralangan A to‘plam chekli ε to‘rga ega, ya’ni A to‘la chegaralangan bo‘ladi.

3-misol. l_2 fazoda A to‘plamni quyidagicha aniqlaymiz:

$x = (a_1, a_2, \dots, a_n, \dots) \in A$, bu yerda

$$|a_1| \leq 1, |a_2| \leq \frac{1}{2}, \quad \dots, |a_n| \leq \frac{1}{2^n}, \dots.$$

Bu to‘plam ixtiyoriy ε>0 uchun chekli ε to‘rga ega. Haqiqatdan ham, $\frac{1}{2^n} < \frac{\varepsilon}{4}$ berilgan bo‘lsin.

A dan olingan har bir $x = (a_1, a_2, \dots, a_n, \dots)$ nuqtaga shu to‘plamning o‘zidan olingan

$$x^* = (a_1, a_2, \dots, a_n, 0, 0, \dots) \qquad (1)$$

nuqtani mos qo‘yamiz. U holda

$$\rho(x, x^*) = \left(\sum_{k=n+1}^{\infty} a_k^2\right)^{\frac{1}{2}} \leq \left(\sum_{k=n+1}^{\infty} \frac{1}{4^{k-1}}\right)^{\frac{1}{2}} < \frac{\varepsilon}{2}$$

bo‘lib, (1) ko‘rinishdagi nuqtalardan iborat B to‘plam R^n fazoda chegaralagan, demak, B to‘plam ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun chekli $\frac{\varepsilon}{2}$ to‘rga ega bo‘lib, to‘la chegaralangan bo‘ladi.

4-misol. l_2 fazoda $\{e_n\}$ to‘plam $e_n = (0,0,\dots,1,0,0,\dots)$ chegaralangan, lekin to‘la chegarlangan emas. Chunki $\varepsilon < \frac{\sqrt{2}}{2}$ bo‘lganda, unga ε to‘r qurib bo‘lmaydi.

Quyidagi teorema to‘plam kompakt bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlarini ifodalaydi.

Teorema. *X to‘la metrik fazoda joylashgan A to‘plamning kompakt bo‘lishi uchun uning yopiq va to‘la chegaralangan bo‘lishi zarur va yetarli.*

Isbot. *Zarurligi*. Aytaylik A kompakt to‘plam to‘la chegaralangan bo‘lmasin, ya’ni biror $\varepsilon > 0$ uchun A dan olingan ixtiyoriy x_1 nuqta uchun shunday x_2 nuqta mavjudki, $\rho(x_1, x_2) \geq \varepsilon$ bo‘ladi. So‘ng shunday x_3 nuqta mavjud bo‘ladiki, $\rho(x_1, x_3) \geq \varepsilon$, $\rho(x_2, x_3) \geq \varepsilon$ bo‘ladi. Bu jarayonni cheksiz davom ettiramiz. Natijada

$$\rho(x_n, x_m) \geq \varepsilon, \ m \neq n$$

tengsizliklarni qanoatlantiruvchi $\{x_n\}$ ketma-ketlikka ega bo‘lamiz:

Ravshanki, bunday $\{x_n\}$ ketma-ketlikdan yaqinlashuvchi qism ketma-ketlik ajratib olish mumkin emas. Bu esa A ning kompaktligiga zid.

Yetarliligi. X to‘la fazo, A unda to‘la chegaralagan to‘plam bo‘lsin. A ning kompaktligini ko‘rsatamiz.

Faraz qilaylik, A to‘plamning elementlaridan tuzilgan ixtiyoriy $\{x_n\}$ ketma-ketlik berilgan bo‘lsin. Undan yaqinlashuvchi qism ketma-ketlik ajratib olish mumkinligini isbotlaymiz. Har bir $\varepsilon_k = \frac{1}{k}, (k = 1,2,3, \dots)$ uchun A da mos ε_k to‘rlarni qaraymiz:

$$x_1^1, x_2^1, \dots, x_{k_1}^1;$$
$$x_1^2, x_2^2, \dots, x_{k_1}^2;$$
$$\dots \dots \dots \dots \dots \dots$$

ε_1 to‘rning har bir nuqtasini markazi ε_1 to‘rning $x_1^1, x_2^1, x_3^1, \dots, x_{k_1}^1$ nuqtalarida va radiusi ε_1 ga teng shar bilan o‘rab chiqamiz. Bu holda $\{x_n\}$ ketma-ketlikning barcha hadlari qurilgan sharlar birlashmasining ichida joylashgan bo‘ladi. $\{x_n\}$ ketma-ketlik hadlari chekiz ko‘p, sharlar esa chekli bo‘lganligi sababli qurilgan sharlardan kamida biri $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko‘p hadlarini o‘z ichiga oladi. Shu sharni T_1 bilan belgilaymiz.

Bu sharda joylashgan $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko‘p hadlaridan tuzilgan to‘plamni A_1 bilan belgilaymiz. ε_2 to‘rning T_1 shar ichida joylashgan nuqtalarini qaraymiz. Bu nuqtalarning har birini markazi shu nuqtada va radiusi ε_2 ga teng bo‘lgan sharlar bilan o‘rab chiqamiz. A_1 to‘plamning barcha nuqtalari radiusi ε_2 ga teng bo‘lgan sharlar birlashmasi ichida joylashadi. Bu sharlardan kamida biri A_1 to‘plamning cheksiz ko‘p nuqtalarini o‘z ichiga oladi. Shu xossaga ega bo‘lgan sharni T_2 bilan, A_1 ning shu sharga tegishli qismini A_2 bilan belgilaymiz.

Bu jarayonni cheksiz davom ettirib $T_1 \supset T_2 \supset T_3 \supset \cdots$ sharlar ketma-ketligiga ega bo‘lamiz. Bu sharlar radiuslari shartga ko‘ra 0 ga intiladi.

Endi $\{x_n\}$ ketma-ketlikdan $\bar{x}_{n_k}$ elementlarni quyidagicha ajratib olamiz:

$$\bar{x}_{n_1} \in T_1, \bar{x}_{n_1} \notin T_2; \;\; \bar{x}_{n_2} \in T_2, \bar{x}_{n_2} \notin T_3; \dots$$

Bu holda $\{\bar{x}_{n_k}\}$ fundamental ketma-ketlik bo‘lib, X fazoning to‘laligiga ko‘ra uning limiti X ga va A yopiq bo‘lganligi uchun A ga tegishli bo'ladi. Demak, $\{\bar{x}_{n_k}\}$ yaqinlashuvchi ketma-ketlik bo'ladi.

Mashqlar

1. R^n fazoda har qanday chegaralangan to'plamning to'la chegaralanganligini isbotlang.

2. Agar E to'plam to'la chegaralangan bo'lsa, u holda $\bar{E}$ to'plam ham to'la chegaralangan bo'lishini isbotlang.

6-§. C[*a*,*b*] fazodagi to'plamning kompaktligi

$C[a,b]$ da uzluksiz funksiyalardan tashkil topgan cheksiz to'plamlar mavjud bo'lib, ulardan yaqinlashuvchi ketma-ketlik ajratib olish mumkin emas. Masalan, $C[0,1]$ da $x, x^2, x^3, \dots$ funksiyalar ketma-ketligini qaraylik.

Bu funksiyalar ketma-ketligi [0;1] da chegaralangan, uning limit funksiyasi

$$y = \begin{cases} 0, agar \;\; 0 \le x < 1, \\ 1, agar \qquad x = 1 \end{cases} \qquad (1)$$

bo'lib, u uzluksiz funksiya emas, ya'ni $C[0,1]$ ga tegishli emas. Yuqoridagi ketma-ketlikning ixtiyoriy qism ketma-ketligi ham (1) funksiyaga yaqinlashadi, ya'ni $C[0,1]$ da yaqinlashmaydi.

$C[0,1]$ da kompaktlik shartini keltiramiz. Avval quyidagi tushunchalarni kiritamiz.

1-ta'rif. Aytaylik M to'plam $[a,b]$ kesmada aniqlangan uzluksiz funksiyalarning biror to'plami bo'lsin. Agar barcha $x \in [a,b]$ va M to'plamdan oligan barcha $f(x)$ funksiyalar uchun $|f(x)| < k$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi k son mavjud bo'lsa, M funksiyalar to'plami *tekis chegaralangan* deyiladi.

2-ta'rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son topilib,

$$|x_1 - x_2| < \delta$$

tengsizlik bajarilganda, M to'plamga tegishli ixtiyoriy $f(x)$ funksiya uchun

$$|f(x_1) - f(x_2)| < \varepsilon$$

bo'lsa, M to'plam *tekis darajada uzluksiz* deyiladi.

Teorema (Arsel teoremasi). $[a,b]$ *segmentda aniqlangan uzluksiz funksiyalardan iborat* M *to'plam* $C[a,b]$ *fazoda kompakt bo'lishi uchun* M *to'plamning tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz bo'lishi zarur va yetarli.*

Isbot. *Zaruriyligi*. Aytaylik, M kompakt to'plam bo'lsin. M to'plam tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz ekanligini isbotlaymiz.

Avval M ning tekis chegaralanganligini ko'rsatamiz. To'la metrik fazoda to'plamning kompakt bo'lishining zaruriy va yetarli shartiga ko'ra ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $\frac{\varepsilon}{3}$ to'rni tashkil qiluvchi

$$f_1(x), f_2(x), \dots, f_k(x) \qquad (1)$$

funksiyalar mavjud bo'ladi. Bu funksiyalarning har biri $[a,b]$ da uzluksiz bo'lganligi uchun chegaralangan bo'ladi, ya'ni $|f_i(x)| < L_i, i = 1, 2, \dots, k$ bo'ladi. Chekli $\frac{\varepsilon}{3}$ to'rning ta'rifiga ko'ra M dan olingan ixtiyoriy $f(x)$ uchun (1) dagi soni chekli funksiyalar orasida $f_i(x)$ funksiya topilib, uning uchun

$$\rho(f, f_i) = \max_{a \le x \le b} |f(x) - f_i(x)| < \frac{\varepsilon}{3}$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Natijada

$$|f| \le |f_i| + \frac{\varepsilon}{3} \le L_i + \frac{\varepsilon}{3} \le K, \qquad K = \max_{1 \le i \le k} L_i + \frac{\varepsilon}{3},$$

ya'ni M tekis chegaralangan bo'ladi.

Endi M to'plamning tekis darajada uzluksiz ekanligini ko'rsatamiz. (1) funksiyalarning har biri uzluksiz, $[a,b]$ da tekis uzluksiz va ularning soni chekli. Demak, $\frac{\varepsilon}{3}$ uchun shunday δ_i son mavjudki, buning uchun quyidagilarni yozish mumkin:

agar $|x_1 - x_2| < \delta_i$ bo'lsa, u holda $|f_i(x_1) - f_i(x_2)| < \frac{\varepsilon}{3}$. $\rho = \min_{1 \le i \le k} \delta_i$ belgilash kiritamiz.

Agar $|x_1 - x_2| < \delta$ bo'lsa, u holda ixtiyoriy $f \in M$ uchun f_i ning (1) funksiyalar orasidan $\rho(f, f_i) < \frac{\varepsilon}{3}$ tengsizlikni qanoatlantiradiganini olib, quyidagi munosabatni yoza olamiz:

$$|f(x_1)-f(x_2)| = |f(x_1)-f_i(x_1)+f_i(x_1)-f_i(x_2)+f_i(x_2) - f(x_2)| \leq$$
$$\leq |f(x_1)-f_i(x_1)| + |f_i(x_1)-f_i(x_2)| + |f_i(x_2)-f(x_2)| << \frac{\varepsilon}{3}+\frac{\varepsilon}{3}+\frac{\varepsilon}{3}=\varepsilon$$

Bu esa M to‘plamning tekis darajada uzluksizligini isbotlaydi.

Yetarligi. M tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz bo‘lsin. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun unga nisbatan $C[a,b]$ da chekli ε to‘r mavjud bo‘lsa, bu M to‘plamning $C[a,b]$ da kompaktligini ko‘rsatgan bo‘lamiz.

Ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $\delta>0$ ni shunday tanlab olamizki, $|x_1-x_2|<\delta,\ f(x)\in M$ uchun $|f(x_1)-f(x_2)|<\frac{\varepsilon}{4}$ bo‘lsin.

Endi xOy tekislikda $a\leq x\leq b,\ -K\leq y\leq K$ to‘g‘ri to‘rtburchakni quyidagicha tanlaymiz:

$$|x_{k+1}-x_k|<\delta, \quad |y_{k+1}-y_k|<\frac{\varepsilon}{4}.$$

Ya’ni, uni $a=x_0<x_1<\cdots<x_n=b,\ -K=y_0<y_1<\cdots<y_n=K$ bo‘linish nuqtalari yordamida o‘zaro teng to‘g‘ri burchakli to‘rtburchaklarga ajratamiz (3-rasm). Grafigi kichik to‘g‘ri to‘rtburchaklar diagonallaridan tuzilgan, ya’ni grafigi uzluksiz siniq chiziqlardan iborat $\varphi(x)$ funksiyalarni qaraymiz. Bunday funksiyalar chekli to‘plam tashkil qiladi. Bu to‘plamning M uchun ε to‘r tashkil qilishini ko‘rsatamiz. M to‘plamdan ixtiyoriy $f(x)$ funksiya olamiz, $\varphi(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyadan eng kam uzoqlashgan funksiya, x_k nuqta x nuqtaga chap tomondan eng yaqin bo‘lgan bo‘linish nuqtasi bo‘lsin. U holda $f(x)$ funksiyaning tekis uzluksizligidan $|x-x_k|<\delta$ da $|f(x)-f(x_k)|<\frac{\varepsilon}{4}$ tengsizlikning, to‘g‘ri burchakli to‘rtburchaklarni va $\varphi(x)$ funksiyani tuzishimizga ko‘ra $|f(x_k)-\varphi(x_k)|<\frac{\varepsilon}{2}$, $|\varphi(x_k)-\varphi(x)|<\frac{\varepsilon}{4}$ tengsizliklar o‘rinli bo‘ladi. Bu tengsizliklarni e’tiborga olsak,

$$|f(x)-\varphi(x)| = |f(x)-f(x_k)+f(x_k)-\varphi(x_k)+\varphi(x_k)-\varphi(x)| \leq |f(x)-f(x_k)|+|f(x_k)-\varphi(x_k)|+|\varphi(x_k)-\varphi(x)|,$$

ya’ni $|f(x)-\varphi(x)|<\varepsilon$ bo‘ladi.

Demak, grafigi siniq chiziqlardan iborat funksiyalar M da ε to‘r tashkil qiladi. Teorema isbot bo‘ldi.



3- rasm

7-§. Kompaktlar ustida uzluksiz akslantirishlar

7.1. Uzluksiz akslantirishdagi kompaktning obrazi haqida

1-teorema. *Kompakt to‘plamning uzluksiz akslantirishdagi obrazi kompakt to‘plam bo‘ladi.*

Isbot. Aytaylik M kompakt to‘plam va $T: M \to Y$ uzluksiz akslantirish bo‘lsin. $M^* = T(M)$ to‘plamning kompakt ekanligini isbotlaymiz.

M^* to‘plamdan ixtiyoriy $\{x'_n\}$ ketma-ketlikni olib, x_n orqali x'_n nuqtaning T akslantirishdagi obrazini belgilaymiz. U holda M to‘plamda $\{x_n\}$ ketma-ketlikka ega bo‘lamiz. M kompakt to‘plam bo‘lganligi sababli bu ketma-ketlikdan M to‘plamning biror c nuqtasiga yaqinlashuvchi $\{x_{n_k}\}$ qism ketma-ketlik ajratib olish mumkin.

T akslantirishda bu qism ketma-ketlik $\{x'_n\}$ ning $\{x'_{n_k}\}$ qism ketma-ketligiga o‘tadi. T akslantirishning c nuqtada uzluksizligidan

$$\lim_{n\to\infty} x'_{n_k} = \lim_{n\to\infty} T(x'_{n_k}) = T\left(\lim_{n\to\infty} x'_{n_k}\right) = T(c) \in M^*.$$

Shunday qilib, M^* to'plamdan olingan har bir ketma-ketlik M^* da yaqinlashuvchi qism ketma-ketlikka ega. Bu esa M^* to'plamning kompakt ekanligini bildiradi. Teorema isbot bo'ldi.

7.2. Uzluksiz funksionalning xossalari

Aytaylik (X,ρ) metrik fazo bo'lsin. Agar f akslantirishning obrazi haqiqiy sonlar to'plamidan iborat bo'lsa, f ni funksional deyilar edi. Aytaylik X da f uzluksiz funksional berilgan bo'lsin.

2-teorema. Kompakt to'plamda aniqlangan f uzluksiz funksional chegaralangan hamda o'zining eng katta va eng kichik qiymatlariga erishadi.

Isbot. Biror M kompakt to'plam olamiz. Yuqoridagi teoremaga asosan f funksionalning qiymatlar to'plami $f(M) = E$, kompakt to'plam bo'ladi. Demak, E chegaralangan, ya'ni shunday a va b sonlar topilib, $a \le f(x) \le b$ bo'ladi. Bundan f funksionalning M da chegaralanganligi kelib chiqadi.

E to'plamning chegaralanganligidan, uning aniq yuqori va aniq quyi chegaralari mavjud. Endi $\alpha = supE$ belgilash kiritamiz va 0 ga yaqinlashuvchi $\left\{\frac{1}{n}\right\}$ ketma-ketlikni olamiz. Aniq yuqori chegaraning ta'rifiga ko'ra, $\left\{\frac{1}{n}\right\}$ ketma-ketlikning har bir hadi uchun, M to'plamga tegishli shunday x nuqtalar topilib, $\alpha - \frac{1}{n} < f(x) \le \alpha$ tengsizliklar o'rinli bo'ladi. So'nggi tengsizlikni qanoatlantiruvchi x nuqtalardan birini x_n bilan belgilaymiz. U holda bu nuqtalar uchun

$$\alpha - \frac{1}{n} < f(x_n) \le \alpha, \quad (n = 1,2,\dots) \qquad (1)$$

tengsizliklar o'rinli bo'ladi. Hosil bo'lgan $\{x_n\}$ ketma-ketlikdan M to'plamning x_0 nuqtasiga yaqinlashuvchi $\{x_{n_k}\}$ qism ketma-ketlik ajratamiz. Bu nuqtada f funksional uzluksiz, shu sababli $f(x_0) = \lim\limits_{n\to\infty} f\left(x_{n_k}\right) = \alpha$ bo'ladi. Demak, f funksional o'zining eng katta qiymatini qabul qiladi.

Shunga o'xshash, f funksionalning eng kichik qiymatiga erishishi isbotlanadi. Teorema isbot bo'ldi.

7.3. Kantor teoremasi. (X,ρ) metrik fazoda uning biror M qism to'plami va f funksional berilgan bo'lsin.

1-ta'rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday $\delta > 0$ topilsaki, $\rho(x_1, x_2) < \delta$ shartni qanoatlantiruvchi har qanday $x_1, x_2 \in M$ uchun ushbu

$$|f(x_2) - f(x_1)| < \varepsilon$$

tengsizlik bajarilsa, u holda f funksional M to'plamda *tekis uzluksiz* deyiladi.

M to'plamda tekis uzluksiz funksionalning shu to'plamda uzluksiz bo'lishini ko'rish qiyin emas.

Haqiqatan, aytaylik x_0 nuqta M to'plamga tegishli bo'lsin. Hadlari M to'plamga tegishli bo'lib, x_0 nuqtaga yaqinlashuvchi biror $\{x_n\}$ ketma-ketlikni tuzib olamiz. U holda, ixtiyoriy ε>0 uchun shunday δ>0 topiladiki, yetarlicha katta n larda $\rho(x_n, x_0) < \delta$ tengsizlikning bajarilishidan $|f(x_n) - f(x_0)| < \varepsilon$ tengsizlikning bajarilishi kelib chiqadi. Demak, x_0 nuqtaga yaqinlashuvchi ixtiyoriy $\{x_n\}$ ketma-ketlik uchun $\{f(x_n)\}$ sonli ketma-ketlik $f(x_0)$ ga yaqinlashadi. Bu esa f funksionalning x_0 nuqtada uzluksiz ekanligini bildiradi. Tanlashimizga ko'ra x_0 nuqta M to'plamning ixtiyoriy nuqtasi bo'lganligi sababli, f funksional M to'plamda uzluksiz bo'ladi.

Quyidagi teorema funksional tekis uzluksizligining yetarli shartini ifodalaydi.

3-teorema (*Kantor*). *Agar X metrik fazodagi f funksional M kompakt to'plamda uzluksiz bo'lsa, u holda f shu to'plamda tekis uzluksiz bo'ladi.*

Isbot. f funksional M to'plamda uzluksiz, lekin tekis uzluksiz bo'lmasin deb faraz qilamiz. U holda, ε musbat son uchun, M to'plamning $\rho(x_1, x_1') < 1$, $|f(x_1) - f(x_1')| \geq \varepsilon$ shartlarni qanoatlantiruvchi x_1 va x_1' nuqtalarini tanlab olish mumkin. Shunga o'xshash M to'plamning

$$\rho(x_2, x_2') < \frac{1}{2}, \qquad |f(x_2) - f(x_2')| \geq \varepsilon$$

shartlarni qanoatlantiruvchi x_2 va x_2' nuqtalar juftini tanlaymiz. Shu kabi, $\rho(x_n, x_n') < \frac{1}{n}, |f(x_n) - f(x_n')| \geq \varepsilon$ shartlarni qanoatlantiruvchi nuqtalar juftini tanlashni cheksiz davom ettirilib, $\{x_n\}$ va $\{x_n'\}$ nuqtalar ketma-ketligiga ega bo'lamiz.

Kompakt M to‘plamning nuqtalaridan tuzilgan $\{x_n\}$ ketma-ketlikdan yaqinlashuvchi $\{x_{n_k}\}$ qism ketma-ketlik ajratib olish mumkin. Bu qism ketma-ketlikning limiti $x_0 \in M$ bo‘lsin. Ikkinchi ketma-ketlikning shu nomerlarga mos hadlaridan tuzilgan $\{x'_{n_k}\}$ qism ketma-ketlik ham x_0 nuqtaga yaqinlashadi. Endi

$$\varepsilon \leq | f(x_n) - f(x'_n)| \leq | f(x_n) - f(x_0)| + | f(x_0) - f(x'_n)|$$

bo‘lganligi sababli o‘ng tomondagi qo‘shiluvchilarning kamida biri n ga bog‘liq bo‘lmagan holda $\frac{\varepsilon}{2}$ dan kichik bo‘la olmaydi. Bu esa funksionalning uzluksizligiga zid. Teorema isbot bo‘ldi.

Mashqlar

1. Uzluksiz akslantirishda kompakt to‘plamning proobrazi kompakt to‘plam bo‘lmasligiga misollar keltiring.

2. Kompaktda aniqlangan uzluksiz funksionalning eng kichik qiymatga erishishini isbotlang.

III BOB. CHIZIQLI FUNKSIONALLAR VA OPERATORLAR

1-§. Chiziqli fazolar

1.1. Chiziqli fazo ta'rifi, misollar

Ta'rif. Biror bo'sh bo'lmagan L to'plamning ixtiyoriy ikki x va y elementi uchun qo'shish amali "+" aniqlangan bo'lib, unga nisbatan L kommutativ gruppa hosil qilsin, ya'ni

1. $x + y = y + x$;
2. $x + (y + z) = (x + y) + z$;
3. L ning barcha elementlari uchun $x + \theta = x$ shartni qanoatlantiruvchi va *nol* deb ataluvchi θ element mavjud.
4. L da har qanday x element uchun $x + (-x) = \theta$ shartni qanoatlantiruvchi va x elementga *qarama-qarshi* element deb ataluvchi $(-x)$ element mavjud.

Bulardan tashqari, har qanday $\alpha \in R$ son va $x \in L$ element uchun ularning *ko'paytmasi* deb ataladigan $\alpha x \in L$ element aniqlangan bo'lib, quyidagilar o'rinli bo'lsin:

5. $\alpha(\beta x) = (\alpha\beta)x$;
6. $1 \cdot x = x$;
7. $(\alpha + \beta)x = \alpha x + \beta x$;
8. $\alpha(x + y) = \alpha x + \alpha y$.

Agar L to'plamda aniqlangan bu ikki amal uchun 1 - 8 shartlar bajarilsa, u holda L to'plam *haqiqiy sonlar ustidagi chiziqli yoki vektor fazo* deyiladi.

Misollar. 1) R haqiqiy sonlar to'plami, odatdagi qo'shish va ko'paytirish amallariga nisbatan chiziqli vazo bo'ladi.

2) C kompleks sonlar to'plami, unda kiritilgan qo'shish va haqiqiy songa ko'paytirishga nisbatan chiziqli fazo bo'ladi.

3) Barcha tartiblangan n ta haqiqiy sonlar $a = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ to'plamida qo'shish va songa ko'paytirish amallari quyidagicha

$$(a_1, a_2, \dots, a_n) + (b_1, b_2, \dots, b_n) = (a_1 + b_1, a_2 + b_2, \dots, a_n + b_n),$$
$$\lambda(a_1, a_2, \dots, a_n) = (\lambda a_1, \lambda a_2, \dots, \lambda a_n)$$

aniqlansa, chiziqli fazo bo‘ladi. Bu chiziqli vazo R^n bilan belgilanadi.

4) Bir o‘zgaruvchili, darajasi n dan oshmaydigan $f(x) = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \ldots + a_{n-1}x^{n-1} + a_nx^n$ ko‘phadlar fazosi ko‘phadlarni qo‘shish va songa ko‘paytirish amallariga nisbatan chiziqli fazo bo‘ladi.

5) Elementlari haqiqiy sonlar bo‘lgan n satr va m ustunli matritsalar to‘plami, mos elementlarni qo‘shish va songa ko‘paytirish amallariga nisbatan chiziqli fazo hosil qiladi.

Elementlari funksiyalar yoki sonli ketma-ketliklar bo‘lgan chiziqli fazolar *funksional fazolar* deyiladi. Shunday fazolarga ham misollar keltiramiz.

6) l_2 fazo. Uning elementlari

$$\sum_{n=1}^{\infty} |x_n|^2 < \infty \qquad (1)$$

shartni qanoatlantiruvchi $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots)$ $(x_n \in R)$ ketma-ketliklardan iborat. Bu fazoda amallar quyidagicha kiritiladi:

$$(x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots) + (y_1, y_2, \ldots, y_n, \ldots) = (x_1 + y_1, x_2 + y_2, \ldots, x_n + y_n, \ldots),$$

$$\alpha(x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots) = (\alpha x_1, \alpha x_2, \ldots, \alpha x_n, \ldots).$$

l_2 fazo chiziqli fazo bo‘lishi uchun yuqoridagi kabi kiritilgan, ikki element yig‘indisi ham shu fazoga tegishli bo‘lishi kerak. Bu esa (1) shartni qanoatlantiruvchi ikki ketma - ketlik yig‘indisi ham shu shartni qanoatlantirishidan, bu tasdiq esa $(a_1 + a_2)^2 \leq 2a_1^2 + 2a_2^2$ sodda tengsizlikdan kelib chiqadi.

7) Barcha chegaralangan ketma-ketliklar to‘plami m ketma-ketliklarni qo‘shish va songa ko‘paytirish (6-misoldagi kabi) amallariga nisbatan chiziqli fazo bo‘ladi.

8) Barcha yaqinlashuvchi ketma-ketliklar to‘plami c ketma-ketliklarni qo‘shish va songa ko‘paytirish (6-misoldagi kabi) amallariga nisbatan chiziqli fazo bo‘ladi.

9) Barcha cheksiz kichik ketma-ketliklar to‘plami c_0 ketma-ketliklarni qo‘shish va songa ko‘paytirish (6-misoldagi kabi) amallariga nisbatan chiziqli fazo bo‘ladi.

10) Biror $[a,b]$ oraliqda aniqlangan uzluksiz haqiqiy funksiyalar to‘plami $C[a,b]$ ni qaraylik. Funksiyalarni odatdagi qo‘shish va songa ko‘paytirish amallariga nisbatan $C[a,b]$ chiziqli fazo hosil qiladi.

1.2. Chiziqli bog‘liqlik. Qism fazo

Ta’rif. Agar L chiziqli fazoning $x, y, \dots, \omega$ elementlari uchun shunday $\alpha, \beta, \dots, \lambda$ sonlar topilib, ularning kamida biri noldan farqli bo‘lib, ushbu

$$\alpha x + \beta y + \cdots + \lambda\omega = 0 \qquad (1)$$

munosabat bajarilsa, $x, y, \dots, \omega$ elementlar *chiziqli bog‘liq* deyiladi. Aks holda bu elementlar *chiziqli erkli* deyiladi, ya’ni $x, y, \dots, \omega$ elementlar uchun (1) munosabat faqat $\alpha = \beta = \cdots = \lambda = 0$ bo‘lganda bajarilsa, $x, y, \dots, \omega$ elementlar chiziqli erkli deyiladi.

L chiziqli fazoda elementlarining soni cheksiz bo‘lgan $x, y, \dots$ sistemaning har qanday chekli sondagi elementlari chiziqli erkli bo‘lsa, u holda berilgan sistema *chiziqli erkli* deyiladi.

Misollar. 1) $C[a,b]$ fazoda $x(t) = t,\ y(t) = t^2, z(t) = 2t - 3t^2$ funksiyalar chiziqli bog‘liq, chunki $2 \cdot x(t) - 3 \cdot y(t) - 1 \cdot z(t) = 0$.

2) Aksincha, shu fazoda ixtiyoriy *n* uchun $x_0(t) = 1, x_1(t) = t, x_2(t) = t^2, \dots, x_n(t) = t^n$ funksiyalar chiziqli erkli bo‘lishi algebraning asosiy teoremasidan kelib chiqadi.

3) $C[a,b]$ fazoda $x_0(t) = 1, x_1(t) = t, x_2(t) = t^2, \dots, x_n(t) = t^n, \dots$ cheksiz sistema chiziqli erkli. Bu ham, yuqoridagiga o‘xshash, algebraning asosiy teoremasidan kelib chiqadi.

Agar L chiziqli fazoda *n* ta chiziqli erkli element topilib, har qanday *n*+1 ta element chiziqli bog‘liq bo‘lsa, L fazo *n o‘lchamli chiziqli fazo* deyiladi. Agar L da elementlarining soni ixtiyoriy bo‘lgan chiziqli erkli sistema mavjud bo‘lsa, u *cheksiz o‘lchamli chiziqli fazo* deyiladi.

Masalan, 1.1 dagi 1-5-misollardagi fazolar chekli o‘lchamli, 6-10-misollardagi funksional fazolar esa cheksiz o‘lchamli. Xususan, 10-misoldagi $C[a,b]$ fazo o‘lchamining cheksizligi $1, t, t^2, \dots, t^n, \dots$ elementlardan ixtiyoriy sondagi chiziqli erkli sistemani ajratib olish mumkinligidan kelib chiqadi.

n o'lchamli chiziqli fazoda n ta elementdan iborat bo'lgan har qanday chiziqli erkli sistema *bazis* deyiladi.

Ixtiyoriy chiziqli fazoda ham bazis tushunchasini kiritish mumkin [1].

Ta'rif. L chiziqli fazoning bo'sh bo'lmagan L' qism to'plamining o'zi ham L da aniqlangan qo'shish va songa ko'paytirish amallariga nisbatan chiziqli fazo bo'lsa, L' fazo L fazoning chiziqli *qism fazosi* deyiladi.

Har qanday L chiziqli fazoning faqat θ elementdan tashkil topgan-nol qism fazosi mavjud. Shuningdek, L chiziqli fazoning o'zini ham qism fazo deb qarash mumkin. L chiziqli fazoning o'zidan farqli va kamida bitta noldan farqli elementi bor bo'lgan qism fazosi xos qism fazo deyiladi.

Misollar. 1) Aytaylik L biror chiziqli fazo, x uning noldan farqli elementi bo'lsin. U holda, ravshanki, $\{\lambda x, \lambda \in R\}$ bir o'lchamli chiziqli fazo tashkil qiladi. Agar L chiziqli fazoning o'lchami birdan katta bo'lsa, $\{\lambda x, \lambda \in R\}$ xos qism fazo bo'ladi.

2) $C[a, b]$ uzluksiz funksiyalar chiziqli fazosi va undagi barcha ko'phadlar to'plami $P[a, b]$ ni qaraylik. Ravshanki, $P[a, b]$ chiziqli fazo $C[a, b]$ ning qism fazosi bo'ladi.

3) l_2, c_0, c, m fazolarni qaraylik. Ularning har biri keyingisining qism fazosi bo'ladi.

4) L chiziqli fazoda ixtiyoriy bo'sh bo'lmagan A to'plam berilgan bo'lsin. Ushbu A to'plam elementlaridan tuzilgan $L' = \{x = \sum_{i=1}^{n} \alpha_i a_i, \quad \alpha_i \in R, a_i \in A, 1 \leq i \leq n, n \; ixtiyoriy \; natural \; son\}$ qism fazo A ning *chiziqli qobig'i* deyiladi va $L' = L[A]$ ko'rinishda belgilanadi.

Mashqlar

1. 1.1 banddagi 7-10 misollardagi to'plamlarning ularda aniqlangan qo'shish va songa ko'paytirish amallariga nisbatan chiziqli fazo bo'lishini ko'rsating.

2. Biror $[a, b]$ oraliqda aniqlangan barcha haqiqiy funksiyalar to'plami funksiyalarni odatdagi qo'shish va songa ko'paytirish amallariga nisbatan chiziqli fazo bo'lishini isbotlang.

3. $C[a,b]$ fazoda $1, t, t^2, \dots, t^n, \dots$ cheksiz sistemaning chiziqli erkli ekanligini isbotlang.

4. 1.1 banddagi 3-9 misollardagi fazolarda uchta elementdan iborat chiziqli erkli yoki chiziqli bog‘liq elementlarga misollar keltiring.

5. $L[A]$ ning chiziqli fazo ekanligini ko‘rsating.

6. $L[A]$ chiziqli qism fazo A to‘plamni o‘z ichiga oluvchi barcha qism fazolarning kesishmasiga teng ekanligini isbotlang.

2-§. Normalangan fazolar

Ta’rif. Aytaylik X haqiqiy chiziqli fazo bo‘lib, uning har bir x elementiga haqiqiy, $\|x\|$ orqali belgilangan sonni mos qo‘yuvchi $\|\cdot\|: X \to R$ akslantirish berilgan bo‘lsin. Agar bu akslantirish

1. Har doim $\|x\| \geq 0$. Shuningdek, $x = \theta$ uchun $\|x\| = 0$ va aksincha, agar $\|x\| = 0$ bo‘lsa, u holda $x = \theta$;
2. Ixtiyoriy λ son uchun $\|\lambda x\| = |\lambda| \cdot \|x\|$;
3. Ixtiyoriy ikki x va y elementlar uchun $\|x + y\| \leq \|x\| + \|y\|$

shartlarni qanoatlantirsa, u *norma* deyiladi.

Bu shartlar *norma aksiomalari* deb ham yuritiladi. Uchinchi shart *uchburchak aksiomasi* deyiladi.

Norma kiritilgan chiziqli fazo *normalangan* fazo deyiladi. Odatda $\|x\|$ son x *elementning normasi* deyiladi. Agar $\rho(x, y) = \|x - y\|$ belgilash kiritsak, u holda $\rho(x, y)$ metrika ekanligi bevosita ko‘rinib turibdi. Demak, har qanday normalangan fazo metrik fazo bo‘ladi.

Aytaylik X normalangan fazo bo‘lsin.

θ elementning $\varepsilon > 0$ atrofi deb, $U = \{x: \|x\| < \varepsilon\}$ to‘plamga aytiladi.

Bu kiritilgan U to‘plam, norma yordamida aniqlangan metrika tilida, markazi θ nuqtada, radiusi ε bo‘lgan ochiq shar deyiladi.

Shuningdek, $x \in X$ elementning ε atrofi deb $U_x = x + U = \{x + u, \ u \in U\}$ to‘plamga aytiladi.

Eslatib o‘tish lozim, $V = \{x: \|x\| \leq \varepsilon\}$ to‘plam markazi θ nuqtada, radiusi ε bo‘lgan yopiq shar deyiladi.

Kelgusida, $X_1 = \{x: \|x\| \leq 1\}$ to‘plam X normalangan fazoning *birlik shari* deyiladi.

Normalangan fazolar metrik fazolarning xususiy holi bo‘lgani uchun, normalangan fazolarning to‘la yoki to‘la emasligi haqida gap yuritish mumkin.

Norma yordamida fazoning to‘laligi quyidagicha ifodalanadi:

Aytaylik X normalangan fazoda $\{x_n\}$ ketma-ketlik berilgan bo‘lsin.

Ta’rif. Agar biror x element uchun $\{\|x_n - x\|\}$ sonli ketma-ketlikning limiti 0 ga teng bo‘lsa, u holda $\{x_n\}$ ketma-ketlik x ga yaqinlashadi deyiladi va $x_n \to x$ kabi belgilanadi.

Shuningdek, agar $\{\|x_n - x_{n+m}\|\}$ sonli ketma-ketlikning limiti, ixtiyoriy m uchun 0 ga teng bo‘lsa, u holda $\{x_n\}$ ketma-ketlik *fundamental* deyiladi.

Agar X normalangan fazoda ixtiyoriy fundamental ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda X *to‘la normalangan fazo* deyiladi.

To‘la normalangan fazo qisqacha *Banax fazosi* yoki B-fazo deyiladi va normalangan fazolar ichida muhim rol o‘ynaydi.

Misollar. 1) Agar x haqiqiy son uchun $\|x\| = |x|$ deb olsak, u holda R^1 chiziqli fazo, ya’ni to‘g‘ri chiziq normalangan fazo bo‘ladi.

2) n o‘lchamli R^n haqiqiy fazoda $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ element uchun normani quyidagicha kiritamiz:

$$\|x\| = \sqrt{\sum_{k=1}^{n} x_k^2} \qquad (1)$$

Bunda normaning 1, 2 shartlari bajarilishi ravshan, 3 shart esa Koshi – Bunyakovskiy tengsizligidan kelib chiqadi.

Shu R^n fazoning o‘zida quyidagi normalarni ham kiritish mumkin:

$$\|x\|_1 = \sum_{k=1}^{n} |x_k| \qquad (2)$$

$$\|x\|_\infty = \max_{1\leq k\leq n} |x_k| \qquad (3)$$

3) $C[a,b]$ fazoda normani quyidagicha aniqlaymiz: $\|f\| = \max_{a\le t\le b}|f(t)|$. Ravshanki, bu norma uchun ham 1, 2 shartlar bevosita bajariladi. 3 shartining bajarilishini koʻrsatamiz.

Har qanday $t \in [a,b]$ nuqta va *f, g* funksiyalari uchun quyidagi munosabatlar oʻrinli:

$$|(f+g)(t)| = |f(t)+g(t)| \le |f(t)| + |g(t)| \le \max_{a\le t\le b}|f(t)| + \max_{a\le t\le b}|g(t)| = \|f\| + \|g\|.$$

Bu yerda t ixtiyoriy boʻlgani uchun bundan

$$\|f+g)\| = \max_{a\le t\le b}|(f+g)(t)| \le \|f\| + \|g\|$$

kelib chiqadi.

4) m chiziqli fazoda $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots)$ elementining normasi deb $\|x\| = \sup_{1\le n<\infty}|x_n|$ songa aytamiz. Bu misol uchun norma aksiomalari bevosita tekshiriladi.

Yuqoridagi $R^1, R^n, C[a,b]$ fazolarning toʻlaligini koʻrsatish mumkin. Demak, ular Banax fazolaridir.

Yana misollar koʻramiz.

5) $C_2[a,b]$ –uzluksiz funksiyalar fazosida normani quyidagicha kiritamiz: $\|x\| = \left(\int_a^b x^2(t)dt\right)^{\frac{1}{2}}$.

Norma aksiomalari bevosita tekshiriladi. Uchburchak aksiomasi umumiy holda isbotlangan Koshi-Bunyakovskiy tengsizligidan kelib chiqadi. Bu fazoning toʻla emasligi [3] da koʻrsatilgan.

6) l_2 fazoda normani

$$\|x\| = \sqrt{\sum_{n=1}^{\infty} x_n^2}, \quad x = (x_1, x_2, \ldots, x_n, \ldots), \qquad x_n \in R$$

koʻrinishida kiritsak, l_2 fazo B - fazoga misol boʻladi.

Banax fazosiga muhim bir misol koʻramiz. X kompakt toʻplam boʻlib, $C(X)$ fazo X da aniqlangan uzluksiz funksiyalar fazosi boʻlsin. Ravshanki, $C(X)$ *chiziqli fazo* boʻladi.

Bu fazoda normani quyidagicha kiritamiz: $\|f\| = \sup_{x\in X}|f(t)|$.

Bu sonning chekli ekanligi II bob 7-paragrafdagi 2-teoremadan kelib chiqadi. Normaning xossalari esa bevosita tekshiriladi.

Teorema. $C(X)$ *fazo kiritilgan normaga nisbatan Banax fazosi bo'ladi.*

Isbot. Aytaylik $\{f_n(x)\}$ fundamental ketma-ketlik berilgan bo'lsin. Ya'ni, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday N natural son topiladiki, ixtiyoriy $m, n \geq N$ uchun $|f_n(x) - f_m(x)| < \varepsilon$ tengsizlik barcha x nuqtalarda bajariladi. Bitta $x \in X$ nuqtani tayinlab, $\{f_n(x)\}$ sonli ketma-ketlikni qarasak, u fundemental bo'ladi. Demak, $\{f_n(x)\}$ biror $f(x)$ songa yaqinlashadi.

Yuqoridagi tengsizlikda m bo'yicha limitga o'tsak, $|f_n(x) - f(x)| \leq \varepsilon$ ya'ni $\|f_n - f\| \leq \varepsilon$ munosabat hosil bo'ladi. Demak, $\{f_n(x)\}$ ketma–ketlik $f(x)$ funksiyaga yaqinlashadi. Endi $f(x)$ ning uzluksizligini isbotlash kifoya.

Ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday m son topiladiki, $\|f - f_m\| < \frac{\varepsilon}{3}$ tengsizlik o'rinli bo'ladi. Ushbu m sonni tayinlab olsak, $f_m(x)$ funksiya ixtiyoriy x_0 nuqtada uzluksiz bo'ladi, ya'ni x_0 nuqtaning shunday U_{x_0} atrofi topiladiki, ixtiyoriy $x \in U_{x_0} \cap X$ nuqtada $|f_m(x) - f_m(x_0)| < \frac{\varepsilon}{3}$ tengsizlik o'rinli bo'ladi. Demak, ixtiyoriy $x \in U_{x_0} \cap X$ nuqta uchun quyidagi munosabat o'rinli bo'ladi:

$$
\begin{aligned}
|f(x) - f(x_0)| &\leq |f(x) - f_m(x)| + |f_m(x) - f_m(x_0)| \\
&\quad + |f_m(x_0) - f(x_0)| \leq \|f - f_m\| + \frac{\varepsilon}{3} + \|f - f_m\| \\
&< \frac{\varepsilon}{3} + \frac{\varepsilon}{3} + \frac{\varepsilon}{3} = \varepsilon
\end{aligned}
$$

ya'ni, $f(x)$ uzluksiz funksiya.

Normalangan X fazoning X_0 chiziqli qism fazosi yopiq bo'lsa, u holda X_0 ni normalangan X fazoning qism fazosi deyiladi.

Uchinchi misoldagi $C[a,b]$ fazoda olingan $P(x)$ ko'phadlar to'plami yopiq bo'lmagan chiziqli qism fazoga misol bo'ladi. Demak, normalangan fazo ma'nosida $P(x)$ fazo $C[a,b]$ ning qism fazosi emas.

Normalangan X fazoda biror A to'plamning chiziqli qobig'i bo'lgan $L[A]$ chiziqli qism fazoni olamiz. Shu fazoni o'zida saqlaydigan eng kichik yopiq chiziqli fazoni A to'plamning *chiziqli yopilmasi* deyiladi va $\overline{L[A]}$ kabi belgilanadi.

Agar elementlarning biror $\{x_n\}$ sistemasi uchun, uning chiziqli yopilmasi X fazoning o'ziga teng bo'lib qolsa, u holda $\{x_n\}$ sistema *to'la sistema* deyiladi.

Ushbu paragraf so'ngida asosiy normalangan fazolarni jadval shaklida keltiramiz:

Belgi lash	Fazo elementlari	Norma uchun formula
R_2^n	Haqiqiy sonlarning tartiblangan chekli ketma-ketligi (kortej) $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$	$\Vert x\Vert = \sqrt{\sum_{k=1}^{n} x_k^2}$
R_1^n	Haqiqiy sonlarning tartiblangan chekli ketma-ketligi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$	$\Vert x\Vert = \sum_{k=1}^{n} \vert x_k\vert$
R_∞^n	Haqiqiy sonlarning tartiblangan chekli ketma-ketligi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$	$\Vert x\Vert_\infty = \max_{1\le k\le n} \vert x_k\vert$
l_2	Ushbu $\sum_{k=1}^{\infty} x_k^2 < \infty$ sharti qanoatlantiruvchi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots)$ haqiqiy sonlar ketma-ketligi	$\Vert x\Vert = \sqrt{\sum_{k=1}^{\infty} x_k^2}$
l_1	Ushbu sharti $\sum_{k=1}^{\infty} \vert x_k\vert < \infty$ qanoatlantiruvchi $x = (x_1, x_2, \dots, x_n, \dots)$ sonlar ketma-ketligi.	$\Vert x\Vert = \sum_{k=1}^{\infty} \vert x_k\vert$
m	Chegaralangan ketma-ketliklar	$\Vert x\Vert = \sup_{1\le k<\infty} \vert x_k\vert$
$C_2[a,b]$	$[a,b]$ da uzluksiz funksiyalar	$\Vert x\Vert = \left(\int_a^b x^2(t)dt\right)^{\frac{1}{2}}$

$C_1[a,b]$	$[a,b]$ da uzluksiz funksiyalar	$\|f\| = \int_a^b \|f(x)\|dx$
$C[a,b]$	$[a,b]$ da uzluksiz funksiyalar	$\|f\| = \max_{a\le t\le b}\|f(t)\|$
$C^n[a,b]$	$[a,b]$ da barcha n-chi tartibli hosilalarigacha uzluksiz bo‘lgan funksiyalar	$\|f\| = \max_{\substack{a\le t\le b\\ 0\le k\le n}}\left\|f^{(k)}(t)\right\|$, $(f^{(0)}(t) = f(t))$

Mashqlar

1. Sonlar o‘qida quyidagi funksiyalar yordamida normani aniqlab bo‘ladimi?

a) $|arctgx|$; b) $\sqrt{x}$; c) $|x-1|$; d) $\sqrt{x^2}$; e) x^2.

2. Aytaylik, L tekislikdagi vektorlar to‘plami, $\boldsymbol{x}$ va $\boldsymbol{y}$ lar $\vec{\boldsymbol{a}}$ vektorning Dekart koordinatalari bo‘lsin. L da quyidagi funksiyalar yordamida normani aniqlab bo‘ladimi?

a) $f(\vec{\boldsymbol{a}}) = \sqrt{|xy|}$; b) $f(\vec{\boldsymbol{a}}) = |x| + |y|$;

c) $f(\vec{\boldsymbol{a}}) = \max\{|x|, |y|\}$ d) $f(\vec{\boldsymbol{a}}) = \sqrt{x^2+y^2} + \sqrt{|xy|}$

3. Aytaylik, P haqiqiy koeffitsentli ko‘phadlarning chiziqli fazosi bo‘lsin. P to‘plamda norma sifatida

a) ko‘phadning 0 nuqtadagi qiymatining absolyut qiymatini;

b) ko‘phad koeffitsentlari modullari yig‘indisini olish mumkinmi?

4. Normalangan fazo $\rho(x,y) = \|x-y\|$ masofaga nisbatan metrik fazo ekanligini isbotlang.

5. R_1^n ning normalangan fazo ekanligini tekshiring.

6. R_∞^n ning normalangan fazo ekanligini tekshiring.

7. m ning normalangan fazo ekanligini tekshiring.

8. l_2 ning normalangan fazo ekanligini tekshiring.

9. a) $C_1[a,b]$, b) $D^n[a,b]$ fazolarning normalangan fazo ekanligini tekshiring.

10. (3; -5; -3) elementning R_2^3, R_1^3, R_∞^3 fazolardagi normalarini toping.

11. a) R_2^2, b) R_1^2, c) R_∞^2fazolarda normasi 3 ga teng bo‘lgan elementlarga misollar keltiring.

12. $y = \frac{1}{5}(4x^3 - x^4)$ funksiyaning a) $C[-1;\ 5]$, b) $C_1[-1;\ 5]$, c) $D^1[-1;\ 5]$ fazolardagi normalarini hisoblang.

13. $C_1[-1;\ 1]$ fazoda markazi $f_0(x) = x^3$, radiusi 1/4 ga teng bo‘lgan ochiq sharga tegishli bo‘lgan biror elementni ko‘rsating.

14. $x = \left(-\frac{1}{2}, \frac{1}{4}, -\frac{1}{8}, \frac{1}{16}, \dots, \frac{(-1)^n}{2^n}, \dots\right)$ element a) l_2, b) l_1, c) m fazoning markazi 0=(0,0,0,…) nuqtada bo‘lgan ochiq shariga tegishli bo‘ladimi?

15. $x = \left(-1, \frac{1}{4}, \dots, \frac{(-1)^n}{n^2}, \dots\right)$ elementning a) l_2, b) l_1, c) m fazolardagi normasini toping.

3-§. Evklid fazolari

Endi biz normalangan fazoning xususiy holi bo‘lgan va funksional analizda keng qo‘llaniladigan Evklid fazosini ko‘rib chiqamiz.

Ta’rif. Haqiqiy E chiziqli fazoning ixtiyoriy ikki x va y elementlari uchun aniqlangan, (x, y) ko‘rinishida belgilanuvchi va quyidagi

1. $(x, y) = (y, x)$;
2. $(x_1 + x_2, y) = (x_1, y) + (x_2, y),\ x_1, x_2 \in E$;
3. $(\lambda x, y) = \lambda(x, y), \lambda \in R$;
4. $(x, x) \geq 0;\ \ (x, x) = 0 \iff x = \theta$

to‘rt shartni (aksiomalarini) qanoatlantiruvchi funksiya *skalyar ko‘paytma* deyiladi.

Skalyar ko‘paytma kiritilgan chiziqli fazo *Evklid fazosi* deyiladi.

Misollar. 1) R^n fazoda skalyar ko‘paytmani $(x, y) = \sum_{i=1}^{n} x_i y_i$ kabi aniqlash mumkin.

2) l_2 fazoda skalyar ko‘paytma $(x, y) = \sum_{i=1}^{\infty} x_i y_i$ kabi aniqlanadi.

2) $L_2[a,b]$ - fazo, $[a,b]$ oraliqda kvadrati bilan Lebeg ma'nosida integrallanuvchi funksiyalar fazosi. Bu fazoda skalyar ko'paytma $(f,g)=\int_a^b f(t)g(t)dt$ ko'rinishda aniqlanadi.

Skalyar ko'paytma yordami bilan Evklid fazosida norma quyidagicha kiritiladi:

$$\|x\|=\sqrt{(x,x)}.$$

Bu yerda arifmetik ildiz nazarda tutilgan.

Normaning birinchi sharti skalyar ko'paytmaning to'rtinchi aksiomasidan bevosita kelib chiqadi. Normaning ikkinchi sharti skalyar ko'paytmaning uchinchi aksiomasi natijasidir.

Haqiqatan, $\|\lambda x\|=\sqrt{(\lambda x,\lambda x)}=\sqrt{\lambda^2(x,x)}=|\lambda|\cdot\|x\|$.

Normaning uchinchi shartini isbotlash uchun biz oldin, quyidagi *Koshi-Bunyakovskiy tengsizligini isbotlaymiz*:

$$|(x,y)|\le\|x\|\cdot\|y\| \qquad (1)$$

Isbot. Ixtiyoriy λ son olib quyidagi ifodani tuzamiz:

$$\varphi(\lambda)=(\lambda x+y,\lambda x+y)=\lambda^2(x,x)+2\lambda(x,y)+(y,y)$$
$$=\|x\|^2\lambda^2+2(x,y)\lambda+\|y\|^2.$$

Ushbu $\varphi(\lambda)\ge 0$ munosabatga ko'ra $\varphi(\lambda)$ kvadrat uchhadning diskriminanti $(x,y)^2-\|x\|^2\cdot\|y\|^2\le 0$, ya'ni $(x,y)^2\le\|x\|^2\cdot\|y\|^2$.

Bu tengsizlikdan kerak bo'lgan (1) tengsizlik kelib chiqadi. Shunday qilib,

$$\|x+y\|^2=\varphi(1)=\|x\|^2+2(x,y)+\|y\|^2\le$$
$$\le\|x\|^2+2\|x\|\|y\|+\|y\|^2=(\|x\|+\|y\|)^2.$$

Ya'ni normaning uchunchi aksiomasi $\|x+y\|\le\|x\|+\|y\|$ isbotlandi.

Skalyar ko'paytma yordami bilan, Evklid fazosida $x,y\ (x\ne 0, y\ne 0)$ ikki element orasidagi φ burchak tushunchasini kiritish mumkin:

$$cos\varphi=\frac{(x,y)}{\|x\|\|y\|},\qquad 0\le\varphi\le\pi.$$

Bu tenglikning o'ng tomonidagi ifodaning absolyut qiymati Koshi-Bunyakovskiy tengsizligiga binoan birdan katta emas, ya'ni har qanday noldan farqli x va y uchun φ aniqlangan.

Agar $(x, y) = 0$ bo‘lsa, u holda $\varphi = \frac{\pi}{2}$ bo‘ladi. Bu holda x va y elementlar *ortogonal* deb ataladi.

Agar x element A to‘plamning har bir elementiga ortogonal bo‘lsa, u holda x element *A to‘plamiga ortogonal* deyiladi va $x \perp A$ kabi belgilanadi.

A_1 to‘plamining har bir elementi A_2 to‘plamining ixtiyoriy elementiga ortogonal bo‘lsa, A_1 va A_2 to‘plamlar *ortogonal* deyiladi va $A_1 \perp A_2$ bilan belgilanadi.

Evklid fazosining ayrim xossalarini keltiramiz.

1-xossa. Agar $x_n \to x,\ y_n \to y$ norma ma’nosida yaqinlashsa, u holda $(x_n, y_n) \to (x, y)$ bo‘ladi (skalyar ko‘paytmaning uzluksizligi).

Isbot. Koshi-Bunyakovskiy tengsizligiga asosan

$$
\begin{aligned}
|(x,y)-(x_n,y_n)| &\le |(x,y-y_n)+(x-x_n,y_n)| \le \\
&\le |(x,y-y_n)|+|(x-x_n,y_n)| \\
&\le \|x\|\|y-y_n\|+\|x-x_n\|\|y_n\|
\end{aligned}
$$

Yaqinlashuvchi $\{y_n\}$ ketma-ketlikning normasi chegaralangan bo‘lgani uchun oxirgi ifoda nolga intiladi.

2-xossa. Evklid fazosining ixtiyoriy x, y elementlari uchun

$$\|x+y\|^2 + \|x-y\|^2 = 2(\|x\|^2 + \|y\|^2)$$

tenglik o‘rinli (parallelogramm formulasi).

Isbot. Haqiqatan, $\|x+y\|^2 + \|x-y\|^2 = (x+y, x+y) + (x-y, x-y) = (x,x) + (x,y) + (y,x) + (y,y) + (x,x) - (x,y) - (y,x) + (y,y) = 2\big((x,x) + (y,y)\big) = 2(\|x\|^2 + \|y\|^2)$.

3-xossa. a) $x \perp y_1$ va $x \perp y_2$ munosabatlaridan $x \perp (\lambda y_1 + \mu y_2)$ munosabat kelib chiqadi (λ, μ -haqiqiy sonlar).

b) $x \perp y_n$ (n=1,2,...) bo‘lib, $\{y_n\}$ ketma-ketlik y elementga yaqinlashsa, u holda $x \perp y$ bo‘ladi.

Isbot. a) o‘z-o‘zidan ravshan. b) $x \perp y_n$ bo‘lgani uchun $(x, y_n) = 0, y_n \to y$ ekanligidan 1-xossaga asosan $(x, y_n) \to (x, y)$. Demak, $(x, y) = 0$, ya’ni $x \perp y$ bo‘ladi.

4-xossa. Agar $x \perp A$ bo‘lsa, u holda $x \perp \overline{L[A]}$ bo‘ladi.

E Evklid fazosining A to‘plamning har bir elementiga ortogonal bo‘lgan barcha elementlar to‘plamini $A^{\perp}$ bilan belgilaymiz.

5-xossa. Agar $A \subset E$ bo‘lsa, u holda $A^{\perp}$ to‘plam E ning qism fazosi bo‘ladi.

Isbot. Yuqoridagi 3 a) xossasiga asosan $A^{\perp}$ to‘plam E ning vektor qism fazosi bo‘ladi. b) ga asosan $A^{\perp}$ yopiq. Demak, $A^{\perp}$ to‘plam normalangan E fazosining qism fazosi ekan.

Noldan farqli bo‘lgan elementlarning $\{x_\alpha\}$ sistemasi ushbu $\left(x_\alpha, x_\beta\right) = 0 \quad (\alpha \neq \beta)$ shartni qanoatlantirsa, bu sistema *ortogonal sistema* deyiladi.

Har qanday ortogonal sistema chiziqli erklidir.

To‘la ortogonal sistema *ortogonal bazis* deyiladi. Agar shu sistemada har bir elementning normasi birga teng bo‘lsa, bu sistema *ortonormalangan bazis* yoki qisqacha *ortonormal bazis* deyiladi.

Misol. 1. n o‘lchamli R^n fazoda quyidagi elementlar ortonormal bazis hosil qiladi: $e_1 = (1,0,0, \dots ,0), e_2 = (0,1,0, \dots ,0), \dots , e_n = (0,0,0, \dots ,1)$.

2. l_2 fazoda $e_1 = (1,0,0, \dots ,0, \dots)$, $e_2 = (0,1,0, \dots ,0, \dots), \dots , e_n = (0,0,0, \dots ,1, \dots), \dots$ elementlar ortonormal bazis hosil qiladi.

4-§. Gilbert fazolari

Evklid fazosini normalangan fazo sifatida qarasak, u to‘la bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Agar E Evklid fazosi to‘la bo‘lmasa, u holda uning to‘ldiruvchisi bo‘lgan Banax fazosini $\bar{E}$ bilan belgilaymiz.

1-teorema. *Evklid fazosining to‘ldiruvchisi ham Evklid fazosi bo‘ladi.*

Isbot. Bu teorema metrik fazolarning to‘ldiruvchisi haqidagi teorema isbotiga o‘xshab isbotlanadi. To‘ldiruvchi fazo $\bar{E}$ ning x va y elementlarini olamiz. Aytaylik $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ E fazoning elementlaridan tuzilgan va mos ravishda x va y ga yaqinlashuvchi ketma-ketliklar bo‘lsin.

Agar (x_n, y_n) sonli ketma-ketlikni qarasak, ushbu

$$|(x_n, y_n) - (x_m, y_m)| \leq |(x_n, y_n - y_m)| + |(x_n - x_m, y_m)| \leq \|x_n\| \|y_n - y_m\| + \|x_n - x_m\| \|y_m\|$$

tengsizlikdan $\{(x_n, y_n)\}$ ketma-ketlikning fundamental ketma-ketlik ekanligi kelib chiqadi. Demak, $\lim_{n\to\infty}(x_n, y_n)$ mavjud.

Bu limit $\{x_n\}, \{y_n\}$ ketma-ketliklarga emas, balki faqat x va y elementlarigagina bog'liqligi bevosita tekshiriladi.

Endi $\bar{\bar{E}}$ da skalyar ko'paytmani aniqlaymiz: $(x, y) = \lim_{n\to\infty}(x_n, y_n)$.

Bu ifodaning skalyar ko'paytma ekanligi E dagi skalyar ko'paytma ta'rifining 1-4 shartlarida limitga o'tish natijasida kelib chiqadi.

Masalan, 1- shart $(x, y) = \lim_{n\to\infty}(x_n, y_n) = \lim_{n\to\infty}(y_n, x_n) = (y, x)$.

Shunga o'xshash, $\|x\| = \lim_{n\to\infty}\|x_n\| = \lim_{n\to\infty}\sqrt{(x_n, x_n)} = \sqrt{(x, x)}$.

Demak, $\bar{E}$ Evklid fazosi ekan.

Ta'rif. To'la Evklid fazosi *Gilbert fazosi* deyiladi.

2-teorema. *Banax fazosi Gilbert fazosi bo'lishi uchun undagi norma, ixtiyoriy* x, y *uchun*

$$\|x + y\|^2 + \|x - y\|^2 = 2(\|x\|^2 + \|y\|^2)$$

shartni qanoatlantirishi zarur va yetarli.

Isbot. [2, 188b.]

Mashqlar

1. Sonlar o'qida quiydagi formulalar skalyar ko'paytmani aniqlaydimi?

a) $(x, y) = xy$; b) $(x, y) = xy^3$; c) $(x, y) = 5xy$.

2. Aytaylik, V tekislikdagi vektorlar to'plami, $\vec{\boldsymbol{a}} = (a_1, a_2)$ va $\vec{b} = (b_1, b_2)$ bo'lsin. Quyidagi formulalar V da skalyar ko'paytma aniqlaydimi?

a) $(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = a_1 b_1$; b) $(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = a_1 b_1 - a_2 b_2$;

c) $(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = a_1 b_1 + 2a_2 b_2$; d) $(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = a_1 b_1 + 2a_2 b_2 - a_1 b_2 - a_2 b_1$;

e) $(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = \sqrt{(a_1^2 + a_2^2)(b_1^2 + b_2^2)}$.

3. Tekislikdagi vektorlar to'plami V da ushbu formula

$$(\vec{\boldsymbol{a}}, \vec{b}) = |\vec{\boldsymbol{a}}||\vec{b}| \cos^3 \alpha,$$

bu yerda α burchak $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar orasidagi burchak, skalyar ko‘paytma aniqlaydimi?

Ko‘rsatma: $\vec{a} = (1,0), \vec{b} = (0;1),\ \vec{c} = \left(\frac{\sqrt{2}}{2}, \frac{\sqrt{2}}{2}\right)$ vektorlar uchun skalyar ko‘paytmaning 2-aksiomasini tekshiring.

Izoh. Bu misol skalyar ko‘paytmaning 2-aksiomasi, qolgan aksiomalarga bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

4. Skalyar ko‘paytmaning birinchi aksiomasi qolgan aksiomalarga bog‘liq emasligini ko‘rsating.

5. Skalyar ko‘paytmaning to‘rtinchi aksiomasi qolgan aksiomalarga bog‘liq emasligini isbotlang.

6. Evklid fazosi $\|x\| = \sqrt{(x,x)}$ normaga nisbatan normalangan fazo ekanligini isbotlang.

7. $C_2\ [a,b]$ ning normalangan fazo ekanligini isbotlang.

8. l_2 - normalangan fazo ekanligini isbotlang.

9. Koshi tengsizligini isbotlang:

$$\left|\sum_{k=1}^{n} a_k b_k\right| \leq \sqrt{\sum_{k=1}^{n} a_k^2} \cdot \sqrt{\sum_{k=1}^{n} b_k^2}$$

bu yerda $a_k,\ b_k$ (k=1, 2, 3, ..., n) ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

10. Koshining umumlashgan tengsizligini isbotlang:

$$\left|\sum_{k=1}^{\infty} a_k b_k\right| \leq \sqrt{\sum_{k=1}^{\infty} a_k^2} \cdot \sqrt{\sum_{k=1}^{\infty} b_k^2},$$

bu yerda $a_k,\ b_k$ (k=1, 2, 3, ... , n,...) sonlar $\sum_{k=1}^{\infty} a_k^2$ va $\sum_{k=1}^{\infty} b_k^2$ qatorlar yaqinlashuvchi bo‘ladigan ixtiyoriy haqiqiy sonlardan iborat.

11. a) Bunyakovskiy tengsizligini isbotlang:

$$\left|\int_a^b f(x)g(x)dx\right| \leq \sqrt{\int_a^b f^2(x)dx} \cdot \sqrt{\int_a^b g^2(x)dx},$$

bu yerda f va g $[a,b]$ da uzluksiz bo‘lgan ixtiyoriy funksiyalar.

b) Minkovskiy tengsizligini isbotlang:

$$\sqrt{\int_a^b \left(f(x)g(x)\right)^2 dx} \leq \sqrt{\int_a^b f^2(x)dx} + \sqrt{\int_a^b g^2(x)dx},$$

bu yerda f va g $[a,b]$ da uzluksiz bo‘lgan ixtiyoriy funksiyalar.

12. 4-xossani isbotlang.

13. Har qanday ortogonal sistema chiziqli erkli ekanligini isbotlang.

14. l_2 fazoda $e_1 = (1,0,0,\dots,0,\dots)$, $e_2 = (0,1,0,\dots,0,\dots),\dots$, $e_n = (0,0,0,\dots,1,\dots),\dots$ elementlar sistemasi to‘la ekanligini isbotlang.

5 – §. Chiziqli funksionallar

Aytaylik X haqiqiy chiziqli fazo bo‘lsin. Xuddi metrik fazolardagi kabi X ning har bir elementiga haqiqiy sonni mos qo‘yuvchi $f: X \to R$ akslantirishni *funksional* deb ataymiz.

1–ta’rif. Agar f funksional ixtiyoriy $x, y \in X$ elementlar va λ son uchun

1. $f(x+y) = f(x) + f(y)$;

2. $f(\lambda x) = \lambda f(x)$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda f *chiziqli funksional* deyiladi.

Bu ikki shartni birlashtirib, ixtiyoriy $x, y \in X$ elementlar va α, β sonlar uchun $f(\alpha x + \beta y) = \alpha f(x) + \beta f(y)$ shart bajarilsa, u holda f ni chiziqli funksional deyiladi, deyish ham mumkin.

Izoh. Yuqoridagi birinchi tenglik funktsionalning *additivlik* xossasi, ikkinchi tenglik esa *bir jinslilik* xossasi deyiladi.

5.1. Chiziqli funksional uzluksizligi. Normalangan fazolardagi chiziqli funksionallar. Chiziqli funksionalning uzluksizligi, xuddi metrik fazolardagi kabi aniqlanadi. Shu sababli, chiziqli funksional berilgan chiziqli fazoda yaqinlashish tushunchasi kiritilgan bo‘lishi lozim.

Aytaylik E normalangan fazo va f undagi chiziqli funksional bo‘lsin.

2-ta'rif. Agar E ning x_0 nuqtasiga yaqinlashuvchi ixtiyoriy $\{x_n\}$ ketma-ketlik uchun $f(x_n) \to f(x_0)$ munosabat bajarilsa, u holda f chiziqli funksional x_0 nuqtada *uzluksiz* deyiladi.

Bu ta'rifni normalangan fazo tushunchalari yordamida, quyidagicha aytish mumkin:

3-ta'rif. Agar ixtiyoriy kichik $\varepsilon > 0$ son uchun, shunday $\delta > 0$ kichik son topilib, $\|x\| < \delta$ ekanligidan $|f(x)| < \varepsilon$ munosabat kelib chiqsa, u holda f chiziqli funksional nol nuqtada *uzluksiz* deyiladi.

1-teorema. *Agar f chiziqli funksional nol nuqtada uzluksiz bo'lsa, u holda f funksional E ning ixtiyoriy nuqtasida uzluksiz bo'ladi*.

Isbot. Aytaylik f chiziqli funksional nol nuqtada uzluksiz bo'lsin. E ning biror x nuqtasini olamiz. Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik x ga yaqinlashuvchi ixtiyoriy ketma-ketlik bo'lsa, u holda $\{x_n - x\}$ ketma-ketlik nolga yaqinlashuvchi bo'ladi. Demak, $f(x_n - x) \to 0$ va f chiziqli bo'lgani uchun, bundan $f(x_n) - f(x) \to 0, f(x_n) \to f(x)$ kelib chiqadi. Bu esa, f ning x nuqtada uzluksizligini bildiradi. Teorema isbot bo'ldi.

2-teorema. *Normalangan fazodagi chiziqli funksionalning uzluksiz bo'lishi uchun, uning birlik shardagi qiymatlari chegaralangan bo'lishi zarur va yetarli.*

Misollar. 1) Agar α biror haqiqiy son va $x \in R$ uchun $f(x) = \alpha x$ deb olsak, u holda f akslantirish R da chiziqli funksional bo'ladi. Masalan, $f(x) = 2x$.

2) R^n fazoda chiziqli funksional. Koordinatalari haqiqiy sonlardan tuzilgan biror $a = (a_1, a_2, \ldots, a_n)$ vektor olamiz. Endi, R^n ning ixtiyoriy $x = (x_1, x_2, \ldots, x_n)$ elementi uchun f funksionalning qiymatini $f(x) = \sum_{k=1}^{n} a_k x_k$ formula orqali aniqlaymiz. Buning chiziqli funksional bo'lishini tekshirish qiyin emas. Masalan, R^2 fazoda ixtiyoriy $x = (x_1, x_2)$ uchun $f(x) = 2x_1 + 3x_2$.

3) $C[a, b]$ fazoda chiziqli funksional.

Ixtiyoriy $x(t) \in C[a, b]$ uchun $f(x) = \int_a^b x(t)dt$ formula chiziqli funksionalni aniqlaydi.

Shuningdek, biror $y_0(t) \in C[a,b]$ funksiyani tayinlab, $x(t) \in C[a,b]$ uchun $f(x) = \int_a^b x(t)y_0(t)dt$ formula orqali $C[a,b]$ fazoda chiziqli funksionalni aniqlash mumkin.

4) Gilbert fazosidagi chiziqli funksional.

Aytaylik H Gilbert fazosi, $(\cdot,\cdot)$ undagi skalyar ko'patma bo'lsin. Agar biror y_0 elementni tayinlab qo'ysak, ixtiyoriy $x \in H$ uchun

$$f(x) = (x, y_0)$$

uzluksiz chiziqli funksional bo'ladi.

Umuman olganda quyidagi teorema o'rinli.

3-teorema. *Gilbert fazosidagi ixtiyoriy f chiziqli funksional uchun shunday yagona y_0 element topiladiki, $f(x) = (x, y_0)$ munosabat o'rinli bo'ladi.*

Isbot. [1. 208-b.]

5.2. Chiziqli funksional normasi. Qo'shma fazo. Chiziqli funksionallarning sust yaqinlashuvi. Aytaylik, E normalangan fazo va f undagi uzluksiz chiziqli funksional bo'lsin. Quyidagicha aniqlangan $\|f\| = \sup\limits_{\|x\| \le 1} |f(x)|$ son, ya'ni $|f(x)|$ qiymatlarning birlik shardagi aniq yuqori chegarasi bo'lgan son f funksionalning *normasi* deyiladi.

1 - misol. R da $f(x) = \alpha x$ funksional normasini hisoblang.

$\|f\| = \sup\limits_{\|x\| \le 1} |f(x)| = \sup\limits_{|x| \le 1} |\alpha x| \le \sup\limits_{|x| \le 1} |\alpha||x| \le |\alpha| \sup\limits_{|x| \le 1} |x| = |\alpha|$. Demak, $\|f\| \le |\alpha|$. Agar $x = 1$ bo'lsa, u holda $f(x) = \alpha$ va $\|f\| = |\alpha|$ bo'ladi.

2-misol. $C[a,b]$ fazoda aniqlangan $f(x) = \int_a^b x(t)dt$ chiziqli funksionalning normasini hisoblang.

$$\|f\| = \sup_{\|x\| \le 1} |f(x)| = \sup_{\|x\| \le 1} \left| \int_a^b x(t)dt \right| \le \sup_{\|x\| \le 1} \int_a^b |x(t)|dt \le b - a,$$

$x \equiv 1$ bo'lsa, $f(x) = b - a$ tenglik o'rinli bo'ladi. Demak, $\|f\| = b - a$.

Chiziqli funksionallar uchun qo'shish va songa ko'paytirish amallarini quyidagicha kiritamiz.

Aytaylik, E biror chiziqli fazo, f_1 va f_2 undagi ikki chiziqli funksional bo‘lsin. Ularning $f_1 + f_2$ *yig‘indisi* va α *songa ko‘paytirish* amallari, ixtiyoriy $x \in E$ uchun

$$f\ (x) = f_1(x)\ +\ f_2(x) \text{ va } f\ (x) = \alpha f_1(x)$$

munosabatlar bilan aniqlanadi.

Bu tengliklarni tushunarli bo‘lishi uchun

$$(f_1 + f_2)(x) = f_1(x)\ +\ f_2(x) \text{ va } (\alpha f_1)(x) = \alpha f_1(x)$$

kabi yozamiz. Demak, $f_1 + f_2$ va αf_1 lar ham chiziqli funksionallardir. Bu amallarga nisbatan chiziqli funksionallar to‘plami chiziqli fazo hosil qilishi ravshan.

Shuningdek, E normalangan fazodagi f_1 va f_2 funksionallarning uzluksizligidan $f_1 + f_2$ va αf_1 larning uzluksizligi kelib chiqadi. Kelgusida, E da aniqlangan barcha uzluksiz chiziqli funksionallar fazosini E^* orqali belgilaymiz va u E ga *qo‘shma fazo* deyiladi.

Aytaylik E normalangan fazo bo‘lsin.

4-ta’rif. Agar E dan olingan $\{x_n\}$ elementlar ketma-ketligi va ixtiyoriy f uzluksiz chiziqli funksional uchun $\{f(x_n)\}$ sonlar ketma-ketligi $f(x_0)$ ga yaqinlashsa, ya’ni $f(x_n) \to f(x_0)$ munosabat bajarilsa, u holda $\{x_n\}$ ketma-ketlik x_0 elementga *sust yaqinlashadi* deyiladi. Bu holda x_0 element $\{x_n\}$ ketma-ketlikning sust limiti deyiladi.

4-teorema. $\{x_n\}$ *ketma-ketlikning sust limiti yagona bo‘ladi*.

Isbot. Aytaylik, ixtiyoriy f uzluksiz chiziqli funksional uchun $\{f(x_n)\} \to f(x_0)$ va $\{f(x_n)\} \to f(y_0)$ bo‘lsin. U holda $f(x_0) = f(y_0)$, bundan $f(x_0 - y_0) = 0$ bo‘ladi. Agar $x_0 \neq y_0$ deb faraz qilsak, u holda Xan-Banax teoremasi natijasiga ko‘ra [2, 210 b.] E da shunday φ uzluksiz chiziqli funksional mavjud bo‘lib, $\varphi(x_0 - y_0) \neq 0$ bo‘ladi. Bu esa ixtiyoriy f uzluksiz chiziqli funksional uchun $f(x_0 - y_0) = 0$ ekanligiga zid. Demak, $x_0 = y_0$.

Quyidagi tasdiq o‘z-o‘zidan ravshan.

5-teorema. *Agar* $\{x_n\}$ *ketma-ketlik* x_0 *ga sust yaqinlashsa, u holda bu ketma-ketlikning ixtiyoriy qism ketma-ketligi ham* x_0 *ga sust yaqinlashadi*.

Sust yaqinlashishdan farq qilish uchun E fazodagi normaga nisbatan yaqinlashishni *kuchli yaqinlashish* deyiladi. Ravshanki, kuchli yaqinlashishdan sust yaqinlashish kelib chiqadi.

6-teorema. *R^n fazoda sust yaqinlashish kuchli yaqinlashish bilan ustma – ust tushadi.*

Isbot. Sust yaqinlashishdan kuchli yaqinlashish kelib chiqishini ko'rsatish yetarli. Aytaylik, R^n fazoda $e_1, e_2, \dots, e_n$ ortonormal bazis va $\{x_k\}$ ketma-ketlik (bu yerda $x_k = x_k^{(1)}e_1 + x_k^{(2)}e_2 + \dots + x_k^{(n)}e_n$) biror $x \in R^n$ elementga (bu yerda $x = x^{(1)}e_1 + x^{(2)}e_2 + \dots + x^{(n)}e_n$) sust yaqinlashuvchi bo'lsin. R^n fazoda quyidagicha aniqlangan f_j chiziqli funksionalni qaraymiz:

$$f_j(e_i) = \begin{cases} 1, agar\ i = j, \\ 0, \ \ agar\ \ i \neq j \end{cases} (i, l = 1, 2, \dots, n).$$

U holda teorema shartiga ko'ra $k \to \infty$ da quyidagi munosabatlarni yozishimiz mumkin:

$$f_j(x_k) = x_k^{(j)} \to x^{(j)} = f_j(x), \qquad j = 1, 2, \dots, n.$$

ya'ni $\{x_k\}$ ketma-ketlik x elementga koordinatalar bo'yicha yaqinlashadi. Demak, $k \to \infty$ da

$$\|x_k - x\| = \left(\sum_{i=1}^{n}\left(x_k^{(i)} - x^{(i)}\right)^2\right)^{1/2} \to 0,$$

ya'ni $\{x_k\}$ ketma-ketlik x ga kuchli yaqinlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sust yaqinlashishdan kuchli yaqinlashish kelib chiqadi.

H Gilbert fazosida ixtiyoriy uzluksiz chiziqli funksional skalyar ko'paytma ko'rinishida ifodalanishi hamda skalyar ko'paytmaning uzluksizligidan quyidagi tasdiqning o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

7-teorema. *H Gilbert fazosida $\{x_k\}$ ketma-ketlik biror x elementga sust yaqinlashuvchi bo'lishi uchun ixtiyoriy $y \in H$ elementga nisbatan ushbu*

$$(x_k, y) \to (x, y)$$

munosabat bajarilishi zarur va yetarli.

Endi l_2 fazoda sust yaqinlashishni qaraymiz. Ma'lumki, l_2 fazoda ortonormal bazis sifatida ushbu $e_1 = (1, 0, 0, \dots)$, $e_2 = (0, 1, 0, \dots)$ vektorlar sistemasini olish mumkin. 7 - teoremadagi y sifatida e_i larni olsak, biror $\{x_k\}$ ketma-ketlikni x ga sust yaqinlashishidan quyidagi munosabatlar kelib chiqadi:

$$x_k^{(i)} = (x_k, e_i) \to (x, e_i) = x^{(i)}, \quad i = 1, 2, \dots \qquad (3)$$

ya'ni sust yaqinlashuvchi ketma-ketlik koordinatalar bo'yicha ham shu elementga yaqinlashuvchi bo'ladi.

Shunday qilib, l_2 fazoda sust yaqinlashish koordinatalar bo'yicha yaqinlashish bilan teng kuchlidir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, l_2 fazoda sust yaqinlashish kuchli yaqinlashishdan farq qiladi. Masalan, $\{e_k\}$ ketma-ketlik l_2 fazoda nol vektorga sust yaqinlashadi, chunki ixtiyoriy $y = (y_1, y_2, \dots, y_n, \dots) \in l_2$ element uchun

$$(y, e_k) = y_k \to 0, \ k \to \infty.$$

Ammo ixtiyoriy n uchun $\|e_k\| = 1 \nrightarrow 0$, ya'ni $\{e_k\}$ ketma-ketlik nolga kuchli yaqinlashmaydi.

8-teorema. *$\{x_n\}$ ketma-ketlik x_0 elementga sust yaqinlashishi uchun*

1) $\{\|x_n\|\}$ ketma-ketlik chegaralangan;

2) chiziqli kombinatsiyasi E^* da zich bo'lgan biror uzluksiz chiziqli funksionallar to'plamidan olingan ixtiyoriy f funksional uchun $f(x_n) \to f(x_0)$ bo'lishi zarur va yetarli

Isbot. [1, 214-b.]

Mashqlar

1. R_2^n, l_2, $C[a,b]$ fazolarda aniqlangan funksionallarga misollar keltiring.

2. $y = ax + b$ chiziqli sonli funksiya additiv funksional bo'ladimi?

3. R_2^2 tekislikda aniqlangan $z = ax + by$ funksional additiv bo'ladimi?

4. $C\,[0,1]$ da aniqlangan ushbu funksionallar additiv bo'ladimi?

a) $f(x) = |x(0{,}5)|$; b) $f(x) = |x(1)|$;

c) $f(x) = \max\limits_{0 \le t \le 1} x(t)$; d) $f(x) = x\left(\frac{1}{2}\right) + x\left(\frac{1}{3}\right) + x\left(\frac{1}{4}\right)$.

5. Ixtiyoriy additiv funksional uchun $f(\theta) = 0$ va $f(-x) = -f(x)$ ekanligini isbotlang.

6. Ixtiyoriy additiv funksional va ixtiyoriy λ ratsional son uchun $f(\lambda x) = \lambda f(x)$ ekanligini isbotlang.

7. Aytaylik, f funksional R^n normalangan fazoda aniqlangan bo‘lsin. U holda

$$f(x) = \sum_{i=1}^{n} \alpha_i x_i$$

formula R^n da chiziqli funksionallarning umumiy ko‘rinishini aniqlashini isbotlang, bu yerda x_i, $(i = 1,2,\dots,n)$ $-x$ vektorning biror bazisga nisbatan koordinatalari, α_i $(i = 1,2,\dots,n)$ ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

8. Additiv, ammo uzluksiz bo‘lmagan funksionalga misol keltiring.

9. Ixtiyoriy additiv va uzluksiz funksional bir jinsli ekanligini isbotlang.

10. Agar f additiv funksional E fazoning θ elementida uzluksiz bo‘lsa, u holda u E da uzluksiz ekanligini, ya’ni chiziqli ekanligini isbotlang.

11. Aytaylik, $\sum_{k=1}^{\infty} \alpha_k x_k$ $(x_k \in E,\ \alpha_k \in R)$ yaqinlashuvchi bo‘lsin. E da chiziqli funksional F uchun quyidagi munosabat o‘rinli ekanligini (sanoqli distributivlik xossasi) isbotlang:

$$f\left(\sum_{k=1}^{\infty} \alpha_k x_k\right) = \sum_{k=1}^{\infty} \alpha_k f(x_k).$$

12. E normalangan fazoda aniqlangan additiv va bir jinsli f funksional uzluksiz chiziqli funksional bo‘lishi uchun shunday K>0 son topilib E dan olingan barcha x lar uchun

$$|f(x)| \leq K\|x\| \qquad (*)$$

tengsizlikning bajarilishi zarur va yetarli ekanligini isbotlang.

13. $(*)$ shartni qanoatlantiruvchi barcha K lar ichida eng kichigi mavjudligini isbotlang.

14. $C[a,b]$ fazoda $\delta(x) = x(t_0)$, bu yerda $t_0 \in [a,b]$, funksional berilgan. Uning chiziqli funksional ekanligini ko‘rsating va normasini toping.

15. $C[a,b]$ fazoda $f(x) = \sum_{k=1}^{n} x(t_k)$ funksional aniqlangan, bu yerda $t_1, t_2, \dots, t_n$ nuqtalar $[a,b]$ kesmaning tayinlangan nuqtalari. Bu funksionalning chiziqli ekanligini ko‘rsating va normasini toping.

16. Aytaylik, $t_1, t_2, \dots, t_n$ nuqtalar $[a,b]$ kesmaning tayinlangan nuqtalari, $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n$ ixtiyoriy haqiqiy sonlar bo'lsin. U holda $f(x) = \sum_{k=1}^{n} \lambda_k x(t_k)$ funksional $C[a,b]$ fazoda chiziqli va uning normasi $\|f\| = \sum_{k=1}^{n} |\lambda_k|$ ekanligini ko'rsating.

17. $f(y) = \int_a^b y(t)dt$ funksional $C[a,b]$ fazoda chiziqli ekanligini ko'rsating. Bu funksionalning normasi nimaga teng?

18. $f(y) = \int_0^1 (1-t^2)y(t)dt$ funksional $C[0,1]$ fazoda chiziqli ekanligini ko'rsating. Bu funksionalning normasini hisoblang.

19. $C[-1,1]$ fazoning 0 nuqtada differensiallanuvchi bo'lgan funksiyalaridan iborat C_1 qism fazosida

$$f(y) = y'(0)$$

funksionalni qaraylik. Bu funksional chiziqlimi?

Yechish. Funksionalning additivligi o'z-o'zidan ravshan. Bu funksional uzluksizmi? Bu savolga javob berish maqsadida grafigi 4-rasmda berilgan $y_n(t)$ funksiyani qaraymiz, bu yerda α_n burchak uchun $tg\alpha_n = n$ $(n \in N)$ tenglik bajariladi. Bu funksiya uchun

$F(y_n) = y_n'(0) = tg\alpha_n = n$. Endi $\|y_n(t)\| = 1$ bo'lganligi sababli yuqoridagi tenglikni quyidagicha yozib olish mumkin:

$$|F(y_n)| = n\|y_n\|.$$



4- rasm

Bundan har qanday $K > 0$ son olmaylik, shunday $y_n(t), n > K$ funksiya topilib,

$$|F(y_n)| = n\|y_n\| > K\|y_n\|$$

o'rinli bo'lishi kelib chiqadi. Boshqacha aytganda barcha y lar uchun

$$|F(y)| < K\|y_n\|$$

shartni qanoatlantiruvchi K sonini topib bo'lmaydi. Bu esa funksional uzluksiz emasligini, demak chiziqli emasligini bildiradi.

20. Aytaylik, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n) \in R_2^n$ bo'lsin. Ushbu formula

$$f(x) = \sum_{i=1}^{n} \alpha_i x_i \qquad (1)$$

R_2^n fazodagi chiziqli funksionalning umumiy ko'rinishini aniqlashini va uning normasi uchun quyidagi formula

$$\|f\| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} \alpha_i^2}$$

o'rinli ekanligini isbotlang, bu yerda, $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$ –ixtiyoriy haqiqiy sonlar.

21. R_2^2 fazoda aniqlangan chiziqli funksional (1;1) va (1;0) nuqtalarda mos ravishda 2 va 5 qiymatlarni qabul qiladi. Bu funksionalning (3;4) nuqtadagi qiymatini toping. Bu funksionalning normasi nimaga teng?

22. R_2^2 fazoda aniqlangan chiziqli funksionalning normasi $\sqrt{13}$ ga , uning (1;1) nuqtadagi qiymati 1 ga teng. Bu funksionalning (0;1) nuqtadagi qiymatini toping.

23. (1) formula R_1^n fazodagi chiziqli funksionalning umumiy ko'rinishini ifodalashini va uning normasi

$$\|f\| = \max_{1 \le i \le n} \{|\alpha_i|\}$$

formula bilan hisoblanishini isbotlang.

24. R_1^2 fazodagi chiziqli funksionalning normasi 6 ga teng, uning (1;2) nuqtadagi qiymati 2 ga teng. Funksionalning (-1;2) nuqtadagi qiymatini toping.

25. (1) formula R_∞^2 fazodagi chiziqli funksionalning umumiy ko'rinishini ifodalashini va uning normasi

$$\|f\| = \sum_{i=1}^{n} |\alpha_i|$$

formula bilan hisoblanishini ko'rsating.

26. R_∞^2 fazodagi chiziqli funksionalning normasi 4 ga teng, uning (2;1) nuqtadagi qiymati 5 ga teng. Funksionalning (1;1) nuqtadagi qiymatini toping.

27. Ixtiyoriy E normalangan fazo uchun uning E^* qo'shma fazosi to'la ekanligini isbotlang.

6–§. Chiziqli operatorlar. Chiziqli operatorning uzluksizligi, xossalari

6.1. Chiziqli fazolardagi chiziqli operatorlar

Aytaylik X va Y haqiqiy sonlar maydoni ustida berilgan chiziqli fazolar, hamda ular orasida $T: X \to Y$ akslantirish berilgan bo'lsin.

1-ta'rif. Agar har qanday $x, y \in X$ va $\alpha, \beta \in R$ uchun

$$T(\alpha x + \beta y) = \alpha T(x) + \beta T(y)$$

munosabat o'rinli bo'lsa, T *chiziqli akslantirish* yoki *chiziqli operator* deyiladi.

Misollar. 1) $X = R^n$ $(n > 1), Y = R$ bo'lsin. T akslantirish X ning har bir $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ elementiga $Tx = x_1$ elementni mos qo'ysin. T ning chiziqli operator ekanligini tekshirish qiyin emas.

Umuman T chiziqli akslantirish R^n fazoni R^m fazoga o'tqazsa, u $m \times n$ o'lchamli matritsadan iborat ekanligi chiziqli algebra kursidan ma'lum.

Haqiqatan, R^n dagi bazisni $e_1, e_2, \dots, e_n$ orqali, R^m dagi bazisni $f_1, f_2, \dots, f_m$ orqali belgilab ixtiyoriy $x \in R^n$ uchun $x = \sum_{i=1}^{n} x_i e_i$ yoyilmaga ega bo'lamiz. Berilgan T akslantirish chiziqli operator bo'lgani uchun uni

$$T(x) = \sum_{i=1}^{n} x_i T(e_i)$$

kabi yozish mumkin. Endi $T(e_i) \in R^m$ bo'lgani uchun bu elementni $f_1, f_2, \dots, f_m$ bazis orqali ifodalaymiz:

$$T(e_i) = \textstyle\sum_{i=1}^{n} a_{ij} f_j\,, \qquad i = 1,2\,, \dots, n.$$

Bu yoyilmadagi a_{ij} koeffitsentlar T akslantirishning matritsa ko'rinishdagi yozuvidagi elementlarini tashkil qiladi.

2) $X = R^n$, $Y = P_{n-1}(x)$ bo‘lsin. Bu yerda $P_{n-1}(x)$ – darajasi n-1 dan katta bo‘lmagan ko‘phadlar fazosi. $T: X \to Y$ operatorni

$$T\big((a_1, a_2, \dots, a_n)\big) = a_1 + a_2 x + \dots + a_{n-1} x^{n-1}$$

kabi aniqlaymiz. T chiziqli operator bo‘ladi.

Haqiqatan, agar $a = (a_1, a_2, \dots, a_n), b = (b_1, b_2, \dots, b_n)$ ixtiyoriy elementlar bo‘lsa , u holda

$T(a + b) = T((a_1 + b_1, a_2 + b_2, \dots, a_n + b_n)) = a_1 + b_1 + (a_2 + b_2)x + \ldots + (a_n + b_n)x_{n-1} = = (a_1 + a_2 x + \ldots + a_n x_{n-1}) + (b_1 + b_2 x + \ldots + b_n x_{n-1}) = T(a) + T(b)$,

Xuddi shuningdek, $T(\lambda a) = \lambda T(a)$ bo‘lishi oson tekshiriladi.

3) Aytaylik $X = Y = C[0,1]$ uzluksiz funksiyalar fazosi bo‘lsin. T operatorni quyidagicha aniqlaymiz:

$$y = Tx = \int_0^1 K(t,s)x(s)ds$$

Bu yerda $K(t,s)$ funksiya [0,1]×[0,1] to‘plamda uzluksiz funksiya.

Osongina tekshirish mumkin (integral xossasidan foydalanib), T operator $C[0,1]$ fazoni $C[0,1]$ fazoga aks ettiruvchi chiziqli operator bo‘ladi.

6.2. Normalangan fazolardagi chiziqli operatorlar

Aytaylik $(X, \|\cdot\|_X)$ va $(Y, \|\cdot\|_Y)$ normalangan fazolar, T esa X ni Y ga akslantiruvchi operator va $x_0 \in X$ bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son topilib, $\|x - x_0\|_X < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x \in X$ larda $\|Tx - Tx_0\|_Y < \varepsilon$ tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, T operator x_0 nuqtada uzluksiz deyiladi. Agar T operator X fazoning har bir nuqtasida uzluksiz bo‘lsa, u X fazoda uzluksiz deyiladi.

1-teorema. X normalangan fazoni Y normalangan fazoga akslantiruvchi T chiziqli operator uzluksiz bo‘lishi uchun uning θ (nol) nuqtada uzluksiz bo‘lishi zarur va yetarli.

Isbot. Zarurligi o‘z-o‘zidan ravshan.

Yetarliligi. T chiziqli operator θ nuqtada uzluksiz, demak ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son topilib, $\|x\|_X < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x \in X$ larda $\|Tx\|_Y < \varepsilon$ tengsizlik o‘rinli. x_0 nuqta X fazoning ixtiyoriy nuqtasi bo‘lsin. U holda $\|x - x_0\|_X < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha $x \in X$ larda $\|T(x - x_0)\|_Y < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli. so'ngi tengsizlikda T operatorning chiziqli ekanligini e'tiborga olsak, $\|Tx - Tx_0\|_Y < \varepsilon$ tengsizlikning o'rinli ekanligi, ya'ni T chiziqli operatorning x_0 nuqta uzluksizligi kelib chiqadi. x_0 nuqta X fazoning ixtiyoriy nuqtasi bo'lganligidan, T chiziqli operator X fazoda uzluksiz bo'ladi. Teorema isbot bo'ldi.

Isbotlangan teoremadan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

1-natija. Agar T chiziqli operator biror $x_0 \in X$ nuqtada uzluksiz bo'lsa, u holda u uzluksiz chiziqli operator bo'ladi.

2-natija. X normalangan fazoni Y normalangan fazoga akslantiruvchi T chiziqli operator uzluksiz bo'lishi uchun ushbu

$$x_n \longrightarrow \theta_X \Rightarrow Tx_n \longrightarrow \theta_Y$$

Munosabatning bajarilishi zarur va yetarli.

Izoh. θ_X-X fazoning noli, θ_Y-Y fazoning noli.

3-ta'rif. Agar T operator uchun

$$\|Tx\| \leq M \cdot \|x\|, \qquad \forall x \in X,$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi M>0 soni mavjud bo'lsa, u holda T operator *chegaralangan* deyiladi.

2-teorema. *Berilgan T: X → Y chiziqli operator uzluksiz bo'lishi uchun uning chegaralangan bo'lishi zarur va yetarli.*

Isbot. *Zarurligi.* Berilgan T chiziqli operator uzluksiz, ammo chegaralanmagan bo'lsin deb faraz qilaylik. U holda ixtiyoriy n natural son uchun shunday $x_n \in X$ element topiladiki, $\|Tx_n\| \geq n\|x_n\|$ tengsizlik bajariladi.

Ravshanki, $x_n \neq 0$. Ushbu

$$y_n = \frac{x_n}{n\|x_n\|}$$

elementni olsak, ko'rinib turibdiki $\|y_n\| = \frac{1}{n} \to 0$, ya'ni $y_n \to 0$. T uzluksiz bo'lgani uchun $Ty_n \to 0$ bo'ladi. Ammo

$$\|Ty_n\| = \frac{1}{n\|x_n\|} \cdot \|Tx_n\| \geq \frac{1}{n\|x_n\|} \cdot n\|x_n\| = 1$$

Demak , $\|Ty_n\| \geq 1$. Bu esa $Ty_n \to 0$ ekaniga zid.

Yetarliligi. Aytaylik T chegaralangan chiziqli operator bo'lsin. U holda ta'rifga ko'ra shunday M topiladiki, $\|Tx\| \leq M \cdot \|x\|$ bo'ladi.

Agar $\{x_n\} \to 0 \quad \Rightarrow \|x_n\| \to 0$. Demak, $\|Tx_n\| \leq M\|x_n\| \to 0 \Rightarrow Tx_n \to 0$.

Bundan T operatorning θ nuqtada va, demak fazoning har bir nuqtasida uzluksizligi kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi.

Endi normalangan fazolarda operatorning normasini aniqlaymiz.

4-ta’rif. T chegaralangan chiziqli operatorning *normasi* deb

$$\|T\| = \inf_{x\in X}\{M > 0: \|T(x)\| \leq M\|x\|, \forall x \in X \}$$

tenglik bilan aniqlanadigan songa aytiladi.

Operator normasini hisoblash uchun turli formulalar bor.

Lemma. *Normalangan fazo X da aniqlangan T chegaralangan chiziqli operator uchun*

$$\|T\| = \sup_{\|x\|\leq 1} \|T(x)\| = \sup_{\|x\|=1} \|T(x)\|$$

tengliklar o‘rinli.

Isbot. Ixtiyoriy $M > \|T\|$ son va $\|x\| \leq 1$ bo‘lgan x element uchun $\|T(x)\| \leq$M o‘rinli, bundan $\sup_{\|x\|\leq 1} \|T(x)\| \leq M$ kelib chiqadi. Demak, $\sup_{\|x\|\leq 1} \|T(x)\| \leq \|T\|$, ya’ni

$$\sup_{\|x\|=1} \|T(x)\| \leq \sup_{\|x\|\leq 1} \|T(x)\| \leq \|T\| \qquad (*)$$

bo‘lishi tushunarli.

Agar $\|T\| > 0$ bo‘lsa, u holda 0<b<$\|T\|$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy b sonni olamiz. Ta’rifga asosan $\|T(x_0)\| > b\|x_0\|$ shartni qanoatlantiruvchi, noldan farqli $(x_0 \neq \theta)$ x_0 element topiladi. Demak, $y_0 = \frac{x_0}{\|x_0\|}$ elementni olsak, u holda $\|y_0\| = 1$ va $\|T(y_0)\| = \frac{\|T(x_0)\|}{\|x_0\|} > b$ bo‘ladi va bundan $\sup_{\|x\|=1} \|T(x)\| > b$ munosabatga ega bo‘lamiz. Olingan b son $\|T\|$ dan kichik ixtiyoriy son bo‘lgani uchun oxirgi tengsizlikdan $\sup_{\|x\|=1} \|T(x)\| \geq \|T\|$ tengsizlik hosil bo‘ladi. Bu tengsizlikni yuqoridagi $(*)$ tengsizlik bilan solishtirib kerakli munosabatni olamiz.

Misollar. 4) Nol operator $\theta x = 0$ (X ning ixtiyoriy x elementi uchun) tenglik bilan aniqlanadi. Bu holda, ko‘rinib turibdiki $\|\theta\| = 0$.

5) Birlik operator I ni qaraymiz. Ixtiyoriy x element uchun $Ix = x$ bo‘lganligi sababli

$$\|I\| = \sup_{\|x\|=1} \|I(x)\| = \sup_{\|x\|=1} \|x\| = 1$$

tenglik o‘rinli. Demak, $\|I\| = 1$.

6) Normalangan X fazoda T chiziqli operatorni quyidagicha aniqlaymiz: $Tx = \lambda x$, λ- haqiqiy son. U holda

$$\|T\| = \sup_{\|x\|=1} \|T(x)\| = \sup_{\|x\|=1} \|\lambda x\| = \sup_{\|x\|=1} |\lambda|\|x\| = |\lambda|$$

ya’ni, ushbu operator uchun $\|T\| = |\lambda|$ ekan.

7) $X = R^n, Y = R^m$ bo‘lsin. n o‘lchamli X fazoda $\{e_1, e_2, \dots, e_n\}$ bazisni, m o‘lchamli Y fazoda $\{f_1, f_2, \dots, f_m\}$ bazisni olamiz.

Ravshanki, $T: X \to Y$ chiziqli operatorni $\{e_1, e_2, \dots, e_n\}$ bazis elementlarida aniqlash yetarli. Natijada, T operator (a_{ij}) matritsa yordamida aniqlanib, u $x = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n)$ elementga ushbu ko‘rinishda qo‘llanadi:

$$Tx = T\begin{pmatrix} \alpha_1 \\ \alpha_2 \\ \vdots \\ \alpha_n \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \cdots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \cdots & \vdots \\ a_{m1} & a_{m2} & \cdots & a_{mn} \end{pmatrix}\begin{pmatrix} \alpha_1 \\ \alpha_2 \\ \vdots \\ \alpha_n \end{pmatrix}.$$

Endi X va Y fazolarda Evklid normasini qarasak, u holda T chegaralangan chiziqli operator bo‘ladi, hamda uning normasi

$$\|T\| = \sqrt{\sum_{i,j} |a_{ij}|^2}$$

kabi hisoblanadi.

Xususan, agar X va Y chekli o‘lchamli fazolar Evklid normasi bilan qaralsa, u holda ixtiyoriy $T: X \to Y$ chiziqli operator uzluksiz bo‘ladi.

6.3. Chiziqli operatorlar fazosi

X normalangan fazoni Y normalangan fazoga aks ettiruvchi barcha chiziqli operatorlar to‘plamini $L(X, Y)$ orqali belgilaymiz.

Har qanday ikki T va S chiziqli operatorlar uchun ularning yig‘indisi $T+S$ va T operatorni λ songa ko‘paytmasi λT operator quyidagicha aniqlanadi:

5-ta’rif. T va S operatorlarning $T + S$ *yig‘indisi* deb, shunday H operatorga aytiladiki, u har bir x elementga

$$H(x) = T(x) + S(x)$$
elementni mos qo‘yadi. Shuningdek, $(\lambda T)(x) = \lambda T(x)$.

Ravshanki, $H = T + S, \lambda T$ operatorlar ham chiziqli operatorlar bo‘ladi.

Shunday qilib, X ni Y ga aks ettiruvchi chiziqli operatorlar to‘plami $L(X, Y)$ bu amallarga nisbatan chiziqli fazo bo‘lar ekan.

Operatorlar normasi uchun quyidagi xossalar o‘rinli.

1°. $\|T\| = 0 \iff T = 0$;

2°. $\|\lambda T\| = |\lambda|\|T\|$, λ-haqiqiy son, $T: X \to Y$;

3°. $\|T_1 + T_2\| \leq \|T_1\| + \|T_2\|, T_1 : X \to Y;\ T_2 : X \to Y$.

Bu xossalarning isboti yuqorida keltirilgan lemma yordamida isbotlanadi. Masalan, 3- xossani isbotlaylik:

$$\|T_1 + T_2\| \leq \sup_{\|x\| \leq 1} \|(T_1 + T_2)(x)\| \leq \sup_{\|x\| \leq 1} \|T_1(x) + T_2(x)\| \leq$$
$$\leq \sup_{\|x\| \leq 1} (\|T_1(x)\| + \|T_2(x)\|)$$
$$\leq \sup_{\|x\| \leq 1} \|T_1(x)\| + \sup_{\|x\| \leq 1} \|T_2(x)\|) == \|T_1\| + \|T_2\|$$

Demak, $L(X, Y)$ chiziqli fazo yuqorida kiritilgan normaga nisbatan normalangan fazo bo‘lar ekan.

Ikki uzluksiz operatorning yig‘indisi va uzluksiz operatorning songa ko‘paytmasi, uzluksiz operator bo‘lishi normalangan fazolardagi amallarning uzluksiz ekanligidan bevosita kelib chiqadi.

Agar $X = Y$ bo‘lsa, $L(X, Y)$ o‘rniga $L(X)$ yozamiz.

Endi $L(X)$ chiziqli fazoda ko‘paytma kiritamiz. Ko‘paytma sifatida operatorlarning kompozitsiyasi $T \circ S$ ni olamiz:

$$TS = T \circ S \text{ , ya'ni } (TS)(x) = T \circ S\ (x) = T(S(x)).$$

Bu yerda operatorlar tengligini, ya’ni $T = S$ ni X ning ixtiyoriy x elementi uchun bajariladi deb qaralishi kerak: $Tx = Sx \quad \forall x \in X$.

Ravshanki, $T(SH) = (TS)H$; $T(S + H) = TS + TH$; $(S + H)T = ST + HT$ munosabatlar o‘rinli.

Demak, $L(X)$ algebra ekan. Bu algebra *chiziqli operatorlar algebrasi* deyiladi.

$L(X)$ algebrada ko‘paytmaga nisbatan birlik element mavjud. Bu element *I birlik operatordir*. Birlik operator, ixtiyoriy x element uchun $Ix = x$ munosabat orqali aniqlanadi.

Har bir T operator uchun $TI = IT = T$ tengliklar bevosita kelib chiqadi.

Misollar. 1) $L(R^2)$ – ikki o‘lchamli fazodagi chiziqli operatorlar algebrasi bo‘lsin. Yuqoridagi ikkinchi misolda aytilganidek bu algebra 2×2 –o‘lchamli matritsalar algebrasidan iborat. Algebra kursidan ma’lumki, umuman T va S matritsalar uchun TS matritsa ST matritsaga teng emas. Masalan, agar $T = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 0 & 0 \end{pmatrix}$, $S = \begin{pmatrix} 0 & 0 \\ 0 & 1 \end{pmatrix}$ matritsalarni qarasak,

$$TS = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 0 & 0 \end{pmatrix},\ ST = \begin{pmatrix} 0 & 0 \\ 0 & 0 \end{pmatrix}$$

bo‘ladi. Demak, $TS \neq ST$.

2) $L(C[a,b])$ – operatorlar algebrasida $T(x) = \int_a^b tsx(s)ds$, $S(x) = tx(t)$ deb olsak, $TS(x) = T\big(S(x)\big) = \int_a^b ts\big(S(x)(s)\big)ds = t\int_a^b s\big(sx(s)\big)ds = t\int_a^b s^2x(s)ds$,

$$ST(x) = S\big(T(x)\big) = tT(x) = t\int_a^b tsx(s)ds = t^2\int_a^b sx(s)ds,$$

ya’ni, bu holda ham $TS \neq ST$ ekan.

Mashqlar

1. R_2^2 fazoni R_2^2 fazoga akslantiruvchi $F: (x,y) \to (u,v)$ operator ushbu formula bilan aniqlangan:

$$\begin{cases} u = ax + ay, \\ v = -bx - by \end{cases}$$

Bu operatorning chiziqli operator ekanligini ko‘rsating, normasini toping.

2. R_2^3 fazoni R_2^2 fazoga akslantiruvchi $F: (x,y,z) \to (u,v)$ operator ushbu formula bilan aniqlangan:

$$\begin{cases} u = a_1x + b_1y + c_1z, \\ v = a_2x + b_2y + c_2z \end{cases}$$

Bu operator chiziqli operator bo‘ladimi?

3. $C[a,b]$ $(a > 0)$ fazoni o‘ziga akslantiruvchi $F(y) = xy(x)$ operator berilgan. Uning chiziqli operator ekanligini isbotlang, normasini toping.

4. $C[1,2]$ fazoni o‘ziga akslantiruvchi $F(y) = x^2y(1)$ operator berilgan. Uning chiziqli operator ekanligini isbotlang, normasini toping.

5. $C[0,1]$ fazoni o‘ziga akslantiruvchi

$$F(y) = \int_0^1 ty(t)dt$$

operator berilgan. Uning chiziqli operator ekanligini isbotlang, normasini toping.

6. l_2 fazoning $x = (x_1, x_2, x_3, \dots)$ nuqtasini shu fazoning $x' = (x_2, x_3, \dots)$ nuqtasiga akslantiruvchi operatorning chiziqli ekanligini isbotlang. Uning normasini toping.

IV BOB. FUNKSIONAL ANALIZNING VARIATSION HISOBDAGI TATBIQI

Variatsion hisobning metodlari birinchi bo'lib I.Bernulli tomonidan 1696 yilda quyidagi masalani yechishda shakllantirilgan edi:

"Aytaylik, M moddiy nuqta tekislikka tegishli va bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan A va B nuqtalarni tutashtiruvchi, egri chiziq bo'ylab og'irlik kuchi ta'sirida harakatlanayotgan bo'lsin. Egri chiziq qanday bo'lganda moddiy nuqta bir A nuqtadan ikkinchi B nuqtagacha bo'lgan yo'lni eng kam vaqtda bosib o'tadi?"

Izlanayotgan egri chiziqni I.Bernulli braxistoxron deb nomlagan. Kirish qismida bu masala haqida gapirgan edik. Ushbu bobda shu masala va unga o'xshash boshqa masalalarni qanday yechish mumkinligini ko'rsatamiz.

Braxistoxron haqidagi masala tekislikdagi A va B nuqtalarni tutashtiruvchi uzluksiz egri chiziqlar to'plamida aniqlangan funksionalning minimumini topish masalasidan iborat.

Variatsion hisob funksionallarning ekstremumlarini topishning umumiy metodlarini o'rganadi. So'ngi paytlarda variatsion hisob cheksiz o'lchamli fazolarda differensial hisob deb ham yuritilmoqda. Biz bu bobda funksional analizning variatsion hisobdagi tatbiqini o'rganishda tez-tez uchrab turadigan funksionalning ekstremumini topish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni qaraymiz.

1–§. Differensial, funksionalning variatsiyasi

Faraz qilaylik, E chiziqli normalangan fazoda F funksional aniqlangan va $x_0 \in E$ bo'lsin.

Agar x_0 nuqtaning $O_\delta(x_0) = \{x \in E, \|x - x_0\| < \delta$ atrofi mavjud bo'lib, bu atrofdan olingan ixtiyoriy x $(x \neq x_0)$ uchun

$$F(x_0) > F(x) \qquad (1)$$

tengsizlik bajarilsa, u holda F funksional x_0 nuqtada ***maksimum**ga ega* deyiladi.

Shunga o‘xshash, agar x_0 nuqtaning $O_\delta(x_0)$ atrofi mavjud bo‘lib, bu atrofdan olingan ixtiyoriy x uchun

$$F(x_0) < F(x) \qquad (2)$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda F funksional x_0 nuqtada ***minimum**ga ega* deyiladi.

Matematik analizdagi kabi, funksional maksimumga yoki minimumga ega nuqtalar ***ekstremum nuqtalar*** deb ataymiz.

Ushbu ayirma $\Delta F(x_0) = F(x) - F(x_0)$ funksionalning x_0 nuqtadagi orttirmasi deyiladi.

Ravshanki, agar x_0 nuqtaning shunday $O_\delta(x_0)$ atrofi mavjud bo‘lib, bu atrofda funksional orttirmasi o‘z ishorasini saqlasa, u holda x_0 funksionalning ekstremum nuqtasi bo‘ladi.

Ta’rif. Agar F funksionalning x_0 nuqta $O_\delta(x_0)$ atrofidagi

$$\Delta F(x_0) = F(x) - F(x_0) = F(x_0 + h) - F(x_0)$$

orttirmasini

$$\Delta F(x_0) = L(x_0, h) + r(x_0, h)$$

ko‘rinishda yozish mumkin bo‘lsa, u holda F funksional x_0 nuqtada *differensiallanuvchi* deyiladi.

Bu yerda $L(x_0, h)$ funksional h ga bog‘liq va h ga nisbatan chiziqli funksional, $r(x_0, h)$ esa h ga nisbatan yuqori tartibli cheksiz kichik: $|r(x_0, h)| = o(\|h\|)$.

Uning bosh chiziqli qismi bo‘lgan $L(x_0, h)$ funksional esa, F funksionalning x_0 nuqtadagi *differensiali*, ko‘p hollarda funksionalning x_0 nuqtadagi *variatsiyasi* deyiladi va $\delta F(x_0, h)$ kabi belgilanadi.

Misol. $C[a, b]$ fazoda aniqlangan $F(x) = \int_a^b f\big(t, x(t)\big)dt$ funksionalni qarash mumkin, bu yerda $f(t, u)$ u argument bo‘yicha uzluksiz xususiy hosilaga ega bo‘lgan uzluksiz funksiya. Uning orttirmasi quyidagiga teng:

$$\Delta F(x) = F(x + h) - F(x) = \int_a^b (f\big(t, x(t) + h(t)\big) - f(t, x(t))dt$$

$$== \int_a^b \frac{\partial f(t, x)}{\partial x} h(t)dt + \int_a^b r(t, x, h)\, dt$$

$\delta F(x, h) = \int_a^b \frac{\partial f(t,x)}{\partial x} h(t)dt$ - $F(x)$ funksionalning variatsiyasi bo‘ladi.

2–§. Differensiallanuvchi funksionalning ekstremumi

$F(x)$ funksionalning x_0 nuqtada ekstremumga ega bo‘lishining zaruriy shartini aniqlash maqsadida bu funksionalni $f(t) = F(x_0 + th)$ ixtiyoriy tayin h da $t \in R$ o‘zgaruvchining funksiyasi sifatida qarash qulay bo‘ladi. Ma’lumki, $f(t)$ funksiyaning $t = 0$ nuqtada ekstremumga ega bo‘lishining zaruriy sharti $f'(t)$ hosila mavjud bo‘lganda $f'(0) = 0$ dan iborat edi. Buni e’tiborga olib, quyidagi teoremani isbotlaymiz.

1-teorema. *Agar differensiallanuvchi $F(x)$ funksionalning x_0 nuqtada ekstremumga ega bo‘lsa, u holda uning $\delta F(x_0, h)$ variatsiyasi x_0 nuqtada normasi yetarlicha kichik bo‘lgan barcha h larda nolga teng bo‘ladi*.

Isbot. Aytaylik $F(x)$ funksional x_0 nuqtada differensiallanuvchi va shu nuqtada ekstremumga ega bo‘lsin. Bu tasdiq $f(t) = F(x_0 + th)$ funksiya $t = 0$ nuqtada differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda bu funksiyaning ixtiyoriy h da ekstremumga ega bo‘lishiga teng kuchli. $t = 0$ da $f'(t)$ ning mavjud ekanligini isbotlaymiz.

$$f'(t) = \lim_{t\to 0}\frac{f(t) - f(0)}{t} = \lim_{t\to 0}\frac{F(x_0 + th) - F(x_0)}{t} =$$

$$= \lim_{t\to 0}\frac{\delta F(x_0, th) + r(x_0, th)}{t}$$

$$= \lim_{t\to 0}\frac{t\delta F(x_0, h) + r(x_0, th)}{t} =$$

$$= \delta F(x_0, h) + \lim_{t\to 0}\frac{r(x_0, th)}{t} = \delta F(x_0, h) + 0$$

$$= \delta F(x_0, h).$$

Shunday qilib, funksionalning ekstremumga ega bo‘lishining zaruriy sharti ixtiyoriy h da (h norma jihatdan yetarlicha kichik) $f'(x_0) = \delta F(x_0, h) = 0$ bo‘ladi.

Yuqoridagi shart bajariladigan nuqtalar, matematik analizdagi kabi, **statsionar nuqtalar** deb ataladi. Bu nuqtalarda ekstremum mavjud bo‘lishi mumkin. Ammo bu topgan shart faqat zaruriy shart bo‘lganligi sababli, statsionar nuqtalarda funksional ekstremumga ega bo‘lmasligi mumkin.

3–§. Eyler tenglamasi

Funksional analizning turli tatbiqlarida $[a, b]$ kesmada uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar fazosida (belgilanishi $C^1[a, b]$, norma quyidagicha aniqlanadi: $\|y\| = max\ (\max_{a\le x\le b}|y(x)|, \max_{a\le x\le b}|y'(x)|)$) ushbu

$$F(y) = \int_a^b f(x, y, y')dx$$

ko‘rinishdagi funksional tez-tez uchrab turadi. Bu yerda integral ostidagi f funksiyaning xususiy hosilalari $\frac{\partial f}{\partial y}$, $\frac{\partial f}{\partial y\prime}$ mavjud va uzluksiz bo‘lgan funksiya.

Bu funksionalning differensiallanuvchi ekanligini ko‘rsatamiz. Buning uchun funksionalning y nuqtadagi orttirmasini qaraymiz:

$$\Delta F(y) = \int_a^b \big(f(x, y + h, y' + h') - f(x, y, y')\big)dx =$$

$$= \int_a^b \left(\frac{\partial f}{\partial y}h(x) + \frac{\partial f}{\partial y'}h'(x)\right)dx$$

$$+ \int_a^b r(x, y, y', h, h')\, dx$$

bu yerda birinchi qo‘shiluvchi $h(x)$ ga nisbatan chiziqli, so‘nggi integral esa xususiy hosilalarning uzluksizligi evaziga $\max_{[a,b]}\{|h(x)|, |h'(x)|\}$ ga nisbatan yuqori tartibli chiksiz kichik.

Funksional variatsiyasi quyidagiga teng:

$$\delta F(y, h) = \int_a^b \left(\frac{\partial f}{\partial y}h(x) + \frac{\partial f}{\partial y'}h'(x)\right)dx$$

M to‘plam $[a,b]$ kesmaning uchlarida teng qiymatlar qabul qiladigan $y(x)$ uzluksiz funksiyalardan iborat bo‘lgan holni qaraymiz, ya’ni geometrik nuqtai nazardan funksionalni $A(a, y(a))$ va $B(b, y(b))$ nuqtalarni tutashtiruvchi egri chiziqlar to‘plamida qaraymiz.

Funksional variatsiyasini nolga tenglashtiramiz:

$$\int_a^b \left(\frac{\partial f}{\partial y} h(x) + \frac{\partial f}{\partial y'} h'(x)\right) dx = 0 \qquad (1)$$

va ikkinchi qo‘shiluvchini bo‘laklab, integrallaymiz:

$$\int_a^b \frac{\partial f}{\partial y'} h'(x)\, dx = \frac{\partial f}{\partial y'} h(x)\Big|_a^b - \int_a^b \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right) h(x) dx$$

va $\frac{\partial f}{\partial y'} h(x)\Big|_a^b = 0$, chunki $h(a) = h(b) = 0$ (chunki chetki nuqtalarda siljish yoq va bu nuqtalar barcha chiziqlar uchun umumiy).

Demak,

$$\int_a^b \frac{\partial f}{\partial y'} h'(x)\, dx = -\int_a^b \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right) h(x) dx \qquad (2)$$

(1) va (2) dan funksional variatsiyasi uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$\delta F(x, h) = \int_a^b \left(\frac{\partial f}{\partial y} - \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right)\right) h(x)\, dx$$

Teorema. Agar $\delta F(x, h) = 0$ bo‘lsa, u holda

$$\frac{\partial f}{\partial y} - \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right) = 0 \qquad (3)$$

bo‘ladi.

Isbot. Haqiqatdan ham, agar biror $[a_1, b_1] \subset [a, b]$ kesmada $\frac{\partial f}{\partial y} - \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right) > 0$ (< 0) bo‘lsa, u holda $[a_1, b_1]$ da musbat, bu segment tashqarisida nolga teng bo‘lgan uzluksiz $h(x)$ funksiyani olamiz.

Bu holda $\delta F(x, h) > 0, (0 < 0)$ bo‘lgan bo‘lar edi. Bu ziddiyat (3) tenglikning o‘rinli ekanligini isbotlaydi.

(3) tenglik *Eyler tenglamasi* deyiladi. Shunday qilib, berilgan funksionalning statsionar nuqtasini, Eyler tenglamasini qanoatlantiruvchi $y(x)$ uzluksiz funksiyani amalda topish usulini bilamiz.

Eyler tenglamasining umumiy yechimi ikkita ixtiyoriy o‘zgarmasni o‘z ichiga oladi, bu o‘zgarmaslarni kesma uchlarida teng qiymatlar qabul qilish shartidan topish mumkin. Ammo topilgan statsionar nuqta (ular bir nechta bo‘lishi ham mumkin), ya’ni topilgan egri chiziq, ekstremum bo‘lishi aniq emas. Shuningdek, agar ekstremum bo‘lsa, uning minimum yoki maksimum ekanligi ham aniq emas.

Ekstremum bo‘ladigan egri chiziqlar **ekstremal** deb ham yuritiladi.

Yuqoridagi muammo amalda masalaning mazmunidan va ekstremalga yaqin bo‘lgan egri chiziq xossalaridan kelib chiqib hal qilinishi mumkin.

4–§. Braxistoxron haqidagi masalaning yechimi

Braxistoxon haqidagi masala kirish qismida aytilgan edi. Shu masalaning yechimini qaraymiz. Koordinatalar boshini A nuqtaga ko‘chiramiz (5-rasm). Fizika kursidan ma’lumki moddiy nuqta A nuqtadan boshlang‘ich tezliksiz harakatlanganda

$$v = \sqrt{2gy} \qquad (1)$$

tezlikka ega bo‘ladi, bu yerda g erkin tushish tezlanishi. Aytaylik $y = y(x)$ moddiy nuqta harakatlanayotgan egri chiziq bo‘lsin.

U holda $v = \frac{ds}{dt} = \frac{\sqrt{1+y\prime^2}dx}{dt}$,

bu yerda ds egri chiziq yoyining differensialli.

Bundan $dt = \frac{\sqrt{1+y\prime^2}dx}{v}$, yoki (1) ni e’tiborga olsak $dt = \sqrt{\frac{1+y\prime^2}{2gy}}dx$ bo‘ladi. So‘ngi tenglikni integrallab, moddiy nuqtaning A nuqtadan B nuqtaga $y = y(x)$ egri chiziq bo‘ylab harakat vaqtini topamiz:

$$T(y) = \int_0^{x_1} \sqrt{\frac{1+y'^2(x)}{2gy(x)}}dx .$$



5-rasm

Shunday qilib, braxistoxron haqidagi masala $T(y)$ funksionalning ekstremumini topishga keltirildi. $T(y)$ funksionalni $C[0, x_1]$ fazoning 1- va 2- tartibli hosilalari bilan birgalikda uzluksiz bo'lgan $y = y(x)$ funksiyalar to'plamida aniqlangan deb qaraymiz.

$$f(x, y, y') = \sqrt{\frac{1 + y'^2}{2gy}}$$

funksiya uchun Eyler tenglamasini tuzib olamiz. Qaralayotgan holda f funksiyada x o'zgaruvchi qatnashmaydi, shu sababli Eyler tenglamasini batafsil yozib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial f}{\partial y} - \frac{d}{dx}\left(\frac{\partial f}{\partial y'}\right) = \frac{\partial f}{\partial y} - \frac{\partial^2 f}{\partial x \partial y'} - \frac{\partial^2 f}{\partial y \partial y'} y' - \frac{\partial^2 f}{\partial y' \partial y'} y'' = 0,$$

Bunda $\frac{\partial^2 f}{\partial x \partial y'} \equiv 0$ (x qatnashmaydi), shu sababli qaralayotgan f funksiya uchun Eyler tenglamasi umumiy holda quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$\frac{\partial f}{\partial y} - \frac{\partial^2 f}{\partial y \partial y'} y' - \frac{\partial^2 f}{\partial y' \partial y'} y'' = 0 \qquad (2)$$

Bu funksiya uchun birinchi integral quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$f - y' f'_{y'} = C$$

Haqiqatdan ham,

$$\frac{d}{dx}\left(f - y' f'_{y'}\right) = f'_y \cdot y' + f'_{y'} \cdot y'' - f'_{y'} \cdot y'' - f''_{y'y} \cdot y'^2 - f''_{y'y'} \cdot y' y'' == y'\left(f'_y - f''_{y'y} \cdot y' - f''_{y'y'} \cdot y''\right) = 0$$

Qavs ichidagi ifoda (2) tenglamaning chap tomoniga teng va (2) ga ko'ra nolga teng.

Demak, $\frac{d}{dx}\left(f - y' f'_{y'}\right) = 0$.

Bundan foydalanib, birinchi integralni yozib olamiz:

$$\frac{\sqrt{1 + y'^2}}{\sqrt{2gy}} - y' \frac{y'}{\sqrt{2gy(1 + y'^2)}} = C = \frac{1}{\sqrt{2gC_1}}$$

Ikkala tomonini $\sqrt{2g}$ ko'paytirib, umumiy maxrajga keltiramiz, natijada

$$\frac{1}{\sqrt{y(1+y'^2)}}=\frac{1}{\sqrt{C_1}}$$

bo'ladi.

Bundan $y\left(1+y'^2\right)=C_1$, yoki

$$y'^2=\frac{C_1-y}{y} \qquad (3)$$

differensial tenglamaga ega bo'lamiz. Hosil bo'lgan tenglama $F(y,y')=0$ ko'rinishdagi differensial tenglama bo'lib, uni parameter kiritish usulidan foydalanib integrallash mumkin. $y'=p=ctg\frac{\theta}{2}$ deb parameter kiritamiz. U holda (3) dan $y=C_1\sin^2\frac{\theta}{2}$ ni, yoki $y=\frac{C_1}{2}(1-cos\theta)$ ni hosil qilamiz. $dy=pdx=ctg\frac{\theta}{2}dx$ va $dy=\frac{C_1}{2}sin\theta d\theta$ munosabatlardan $x=\frac{C_1}{2}(\theta-sin\theta)+C_2$ ni hosil qilamiz. Shunday qilib (3) tenglamaning yechimi

$$\begin{cases} x=\dfrac{C_1}{2}(\theta-sin\theta)+C_2, \\ y=\dfrac{C_1}{2}(1-cos\theta). \end{cases}$$

Demak, $T(y)$ funksionalning ekstremallari sikloidalardan iborat ekan. Masala shartlaridan foydalanib, C_1 va C_2 o'zgarmaslarni topamiz. Egri chiziqning koordinatalar boshidan o'tishini hisobga olsak $C_2=0$ ekanligi kelib chiqadi. Egri chiziqning $\theta=\theta_1$ da $B(x_1,y_1)$ nuqtadan o'tishi lozimligini e'tiborga olib C_1 ni topamiz.

Buning uchun $C_1=\frac{2x_1}{\theta_1-sin\theta_1}$ deb olish yetarli, bu yerda θ_1 qiymat $\frac{\theta_1-sin\theta_1}{1-cos\theta_1}=\frac{x_1}{y_1}$ shartni qanoatlantiradi.

So'ngi shartning istalgan x_1 va y_1 da bajarilishini tekshirib ko'rishni o'quvchilarga qoldiramiz.

Fizik mulohazalardan ravshanki, biz topgan shart minimumni aniqlaydi. Chunki harakat eng ko'p vaqt sodir bo'ladigan egri chiziq umuman olganda mavjud emas.

Endi quyidagi savolga javob beramiz.

Matematik analizdan ma'lumki, ekstremum lokal xarakterga ega. Funksiya bir nechta ekstremumga ega bo'lishi va bunda ulardan hech biri funksiyaning minimum qiymati ham, maksimum qiymati ham boʻlmasligi mumkin. Ushbu masala qanday yechiladi? Berilgan masalani $y = y(x)$, bu yerda y, y' va y'' uzluksiz funksiyalar, toʻplamida qarab, boshqa statsionar nuqta topganimiz yoʻq. Demak, bu holda masala bir qiymatli yechiladi.

Bu masalani boshqa (funksiyalar) egri chiziqlar toʻplamida, qarash mumkin edi (masalan, siniq chiziqlar sinfida). Ammo bu holda yangi masala hosil boʻladi. Bu masalani bu yerda qaramaymiz.

Braxistoxron masalasini yechish usuli jihatdan quyidagi fizik masalani yechish usuliga oʻxshash.

Masala. Optik zichligi uzluksiz oʻzgaruvchi shaffof muhitda A va B nuqtalar berilgan. A nuqtadan B nuqtaga harakatlanuvchi nur traektoriyasini toping.

Fizikadagi Ferma prinsipiga koʻra bu masala

$$T(y) = \int_0^{x_1} \frac{\sqrt{1 + y'^2}}{v(x, y)} dx$$

funksionalning ekstremumini topishga keltiriladi. Xususiy holda, ya'ni v faqat y ning uzluksiz funksiyasi va $\sqrt{y}$ ga proportsional boʻlganda braxistoxron masalasidagi funksionalga ega boʻlamiz.

5-§. Eng kichik yuzli aylanma sirt haqidagi masala

Aytaylik, xOy tekislikda $A(x_0, y_0)$ va $B(x_1, y_1)$ ikki nuqta berilgan boʻlsin. Bu nuqtalarni tutashtiruvchi barcha $y = y(x)$ egri chiziqlar toʻplamining y', y'' uzluksiz boʻlgan qism toʻplamini qaraymiz: Bu toʻplamda shunday egri chiziqni topish kerakki, uni Ox atrofida aylantirish natijasida eng kichik yuzli sirt hosil boʻlsin.

Matematik analiz kursidan ma'lumki, aylanma sirt yuzi

$$S(y) = 2\pi \int_{x_0}^{x} y\sqrt{1 + y'^2} dx$$

funksional bilan ifodalanadi. Yuqoridagi paragrafdagi o‘xshash

$$F(y)=\int_a^b f(x,y,y')dx$$

ko‘rinishdagi funksional ekstremumini topish masalasiga keldik. Masala shartiga ko‘ra bu funksionalni $C^2[a,b]$ fazoda qaraymiz [67-bet].

Bu funksionalga mos Eyler tenglamasi 4-paragrafdagi (2) ko‘rinishida bo‘lib, uning birinchi integrali

$$f-y'f'_{y'}=C,$$

yoki bunga f ning ifodasini qo‘yib

$$y\sqrt{1+y'^2}-y'y\frac{y'}{\sqrt{1+y'^2}}=C$$

ega bo‘lamiz. Buni soddalashtirib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$y=C\sqrt{1+y'^2}. \qquad (1)$$

Hosil bo‘lgan tenglama $F(y,y')=0$ ko‘rinishdagi differensial tenglama bo‘lib, uni parameter kiritish usulidan foydalanib integrallash mumkin. $y'=p=sh\varphi$ parameter kiritamiz. U holda (1) dan $y=C\sqrt{1+sh^2\varphi}=C\cdot ch\varphi$ hosil bo‘ladi. $dy=pdx=sh\varphi dx$ va $dy=C\cdot sh\varphi d\varphi$ munosabatlardan $dx=Cd\varphi$, bundan $x=C\varphi+C_1$ ga ega bo‘lamiz. So‘ngi tenglikdan $\varphi=\frac{x-C}{C}$. Shunday qilib, $y=Cch\varphi=Cch\frac{x-C_1}{C}$ zanjir chiziq tenglamasini hosil qilamiz.

Demak, berilgan ikki nuqtadan ($0z$ o‘qiga perpendikulyar bo‘lgan tekisliklarda yotgan va markazi shu o‘qda bo‘lgan ikkita aylanadan o‘tuvchi) aylanma sirt zanjir chiziqni aylantirishdan hosil bo‘ladi.

Bunday sirt ***katenoid*** deb ataladi.

Masala shartidan ko‘rinadiki, bu holda ham biz (braxistoxron masalasidagi kabi) funksionalning minimumiga egamiz.

Ammo nuqtalarning turlicha joylashishiga qarab ekstremallar ikkita, bitta bo‘lishi yoki bitta ham bo‘lmasligi mumkin.

6-§. Funksional analizning variatsion hisobdagi boshqa tatbiqlari haqida

Yuqoridagi misollar bilan cheklangan holda bob so‘ngida variatsion hisobning funksional analiz metodlari bilan yechiladigan asosiy masalalarini sanab o‘tamiz:

a) sirtda geodezik chiziqlarni topish haqidagi masala (berilgan ikki nuqtani tutashtiruvchi eng kichik uzunlikka ega bo‘lgan chiziqlar)

Xususan, sfera uchun bunday geodezik chiziqlar katta doiraning aylanalaridan iborat bo‘ladi.

Bu esa aviatsiya va suvda suzishda katta ahamiyatga ega.

b) boshlang‘ich tezlikka ega bo‘lgan moddiy nuqtaning ikkinchi qo‘zg‘almas nuqta bilan o‘zaro ta’sirida paydo bo‘ladigan tortishish kuchi ta’sirida harakati masalasi. Bu masalaning yechimi sayyoralar, sun’iy yo‘ldoshlar va kosmik kemalarning orbitalarini aniqlashda ishlatiladi.

c) ikkita nuqta orasiga tortilgan og‘ir ipning muvozanati haqidagi masala (ustunlarga tortilgan elektr simlari, osma ko‘pirik arqonlari va boshqalar) bu holda masalaga mos funksionalning ekstremali zanjir chiziqdan iborat bo‘lar ekan.

Bundan tashqari mexanika va matematik fizikaning ko‘pgina tenglamalari Ostragradskiy-Gamilton prinsipiga asosan biror funksionalning ekstremumini topish yordamida keltirib chiqariladi. Masalan, shu metod bilan tor tebranishi, membrana, elastik sterjen, lonjeronga biriktirilgan samolyot qanoti tebranishi tenglamalarini va boshqa tenglamalarni keltirib chiqarish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, variatsion hisobning bevosita metodlari ham mavjud. Ularning mohiyati funksional ekstremumini topish funksional ekstremumini aniqlaydigan differensial tenglamaga keltirilmaydi. Bunda izlanayotgan funksiyaga ketma-ket yaqinlashish metodidan foydalaniladi.

Bunday ketma-ketlikni tuzish, qaralayotgan funksional koʻrinishiga bogʻliq boʻladi.

Mashqlar

1. Quyidagi funksionallarni differensiallanuvchanlikka tekshiring.

a) $C[a,b]$ fazoda $F(y) = y(a)$;

b) $C[a,b]$ fazoda $F(y) = y^2(a)$;

c) $C[a,b]$ fazoda $F(y) = |y(a)|$.

2. Agar $F(y)$ differensiallanuvchi boʻlsa, u holda $F^2(y)$ ham differensiallanuvchi boʻlishini isbotlang. $F^2(y)$ variatsiyasini toping.

3. Aynan noldan farqli boʻlgan chiziqli funksional ekstremumga ega emasligini isbotlang.

4. Quyidagi funksionallar uchun ekstremallarni toping va ekstremal masalasi yechimi mavjudligi shartini tekshiring:

a) $\int_{-1}^{1} \sqrt{y(1+y^2)}dx,\;\; y(-1) = y(1) = b > 0;$

b) $\int_{a}^{b} \frac{1+y^2}{y^2} dx,\; y(a) = A, y(b) = B.$

5. Quyidagi funksionallar uchun ekstremal masalalarni tahlil qiling:

a) $\int_0^1 y' dx,\;\; y(0) = 0,\;\; y(1) = 1;$

b) $\int_0^1 yy' dx,\;\; y(0) = 0,\;\; y(1) = 1;$

c) $\int_0^1 xyy' dx,\;\; y(0) = 0,\;\; y(1) = 1.$

V BOB. ZAMONAVIY ALGEBRALAR HAQIDA MA’LUMOTLAR

1– §. Banax algebralari

Aytaylik X haqiqiy chiziqli fazo bo‘lsin.

1-*ta’rif.* Agar X chiziqli fazoda yana bir amal, elementlarni ko‘paytirish amali kiritilgan bo‘lib, u quyidagi

1. $(xy)z = x(yz)$;

2. $x(y+z) = xy + xz$;

3. $\alpha(xy) = (\alpha x)y = x(\alpha y)$,

aksiomalarni qanoatlantirsa, X fazo *algebra* deyiladi. Bu yerda $x, y, z \in X$, $\alpha \in R$.

Agar ixtiyoriy $x, y \in X$ uchun $xy = yx$ tenglik bajarilsa, X *kommutativ* algebra deyiladi.

Agar X algebraning shunday e elementi mavjud bo‘lsaki, $ex = xe = x$ tenglik ixtiyoriy $x \in X$ uchun o‘rinli bo‘lsa, e element *birlik element,* qaralayotgan X algebra esa *birli algebra* deyiladi.

Ko‘rsatish mumkinki, agar algebrada birlik element mavjud bo‘lsa, u yagonadir.

Haqiqatdan ham, agar e dan boshqa e' birlik element bor desak, u holda ta’rifga ko‘ra: $e' = ee' = e$ bo‘lishi ravshan.

2-ta’rif. Agar X birli algebrada norma kiritilib, bu normaga nisbatan X Banax fazosi bo‘lsa va ushbu

4. $\|xy\| \leq \|x\| \cdot \|y\|, x, y \in X$;

5. $\|e\| = 1$,

munosabatlar bajarilsa , u holda X *Banax algebrasi* deyiladi.

Umuman, har qanday algebrani birlik elementi bor algebra deb qaralishi mumkin.

Agar algebraning birlik elementi mavjud bo‘lmasa, uni quyidagi usul bilan birli algebragacha kengaytirish mumkin.

Haqiqatan, faraz qilaylik X algebra birlik elementga ega bo‘lmasin. Yangi X_1 to‘plam sifatida $(x, \alpha), x \in X$ va $\alpha \in R$ juftliklarni olamiz va X_1 to‘plamda algebraik amallar va normani quyidagicha kiritamiz:

$$(x, \alpha) + (y, \beta) = (x + y, \alpha + \beta), \qquad \gamma(x, \alpha) = (\gamma x, \gamma\alpha),$$

$$(x, \alpha) \cdot (y, \beta) = (xy + \alpha y + \beta x, \alpha\beta),$$

$$\|(x,\alpha)\| = \|x\| + |\alpha|.$$

Endi X_1 ning algebra va $e = (0,1)$ element undagi birlik element ekanini tekshirish qiyin emas.

$\|e\| = 1$ boʻlishi oʻz-oʻzidan ravshan.

Normaning 4- xosasini tekshiramiz:

$$\begin{aligned}\|(x,\alpha)\cdot(y,\beta)\| &= \|(xy+\alpha y+\beta x, \alpha\beta)\| \\ &= \|xy+\alpha y+\beta x\| + |\alpha\beta| \leq \\ &\leq \|xy\| + \|\alpha y\| + \|\beta x\| + |\alpha\beta| \leq \\ &\leq \|x\|\cdot\|y\| + |\alpha|\cdot\|y\| + |\beta|\cdot\|x\| + |\alpha|\cdot|\beta| = \\ &= (\|x\| + |\alpha|)\cdot(\|y\| + |\beta|) = \|(x,\alpha)\|\cdot\|(y,\beta)\|.\end{aligned}$$

X_1 algebraning toʻlaligi X ning va haqiqiy sonlar toʻplami R ning toʻlaligidan kelib chiqadi. Demak, X_1 algebra Banax algebrasi ekan. Koʻrinib turibdiki, X ni X_1 ning $(x,0)$ koʻrinishdagi elementlardan iborat qismi sifatida qarash mumkin.

Aytaylik, X va Y algebralar berilgan boʻlsin. $F: X \to Y$ biror chiziqli akslantirishni qaraylik.

3-ta'rif. Agar ixtiyoriy $x, y \in X$ uchun $F(xy) = F(x)F(y)$ munosabat bajarilsa, F *gomomorfizm* deyiladi.

Oʻzaro bir qiymatli gomomorfizm *izomorfizm* deyiladi.

Agar F izomorfizm, har bir $x \in X$ uchun $\|F(x)\| = \|x\|$ tenglikni qanoatlantirsa, u *izometrik izomorfizm* deyiladi.

1-tasdiq. *Banax algebrasida koʻpaytirish amali uzluksizdir.*

Isbot. Aytaylik $x_n \to x$ va $y_n \to y$ boʻlsin. U holda Banax algebrasining 4-aksiomasiga koʻra $n\to\infty$ da

$$\begin{aligned}\|x_n y_n - xy\| &= \|(x_n - x)y_n + x(y_n - y)\| \leq \\ &\leq \|y_n\|\cdot\|x_n - x\| + \|x\|\cdot\|y_n - y\| \to 0\end{aligned}$$

ga ega boʻlamiz. Bu esa $x_n y_n \to xy$ ekanini bildiradi.

Xususan, koʻpaytirish amali oʻngdan va chapdan uzluksiz, ya'ni $x_n \to x,\ y_n \to y$ uchun $xy_n \to xy, x_n y \to xy$ boʻladi.

1-**teorema**. *Aytaylik X Banax fazosi va shu bilan birga birli algebra boʻlib, undagi koʻpaytirish amali oʻngdan va chapdan uzluksiz boʻlsin. U holda X dagi normaga ekvivalent boʻlgan shunday norma mavjudki, bu normada X Banax algebrasi boʻladi.*

Isbot. X ning har bir x elementiga ushbu $M_x(z) = xz\ \ (x \in X)$ tenglik yordamida M_x operatorini mos qoʻyamiz. X^ toʻplam X fazoda shu koʻrinishdagi operatorlar toʻplami boʻlsin.

X dagi koʻpaytirish amali oʻngdan uzluksiz boʻlgani uchun $X^\wedge \subset L(X)$. Ravshanki, $x \to M_x$ moslik chiziqli va ta'rifga asosan $M_{xy} = M_x M_y$. Agar $x \neq y$ boʻlsa , u holda $M_x e = xe = x \neq y = ye = M_y e$, ya'ni $M_x \neq M_y$ boʻladi. Demak, $x \to M_x$ moslik X ni $X^\wedge$ ga aks ettiruvchi izomorfizm ekan.

Endi, $X^\wedge$ qism fazo $L(X)$ da yopiqligini va, demak, $X^\wedge$ ning toʻla ekanligini koʻrsatamiz.

Operatorlar ketma – ketligi $\{T_n\} \subset X^\wedge$ berilgan va $T_n \to T \in L(X)$ boʻlsin deb faraz qilaylik. Bu yerda aniqlanishga koʻra

$$T_n y = x_n y,\;\; x_n \in X, n = 1, 2, \dots$$

Bundan $T_n y = x_n y = (x_n e)y = T_n(e)y, y \in X$ kelib chiqadi.

X dagi koʻpaytirish amalining chapdan uzluksizligidan foydalansak, yuqoridagi tenglikdan $n \to \infty$ da $T(y) = T(e)y$ tenglik hosil boʻladi. Endi $x = T(e)$ belgilash kiritamiz. U holda $Ty = xy$, ya'ni $T \in X^\wedge$ boʻladi. Shunday qilib $X^\wedge$ - Banax fazosi ekan.

Ushbu $\|x\| = \|xe\| = \|M_x e\| \leq \|M_x\|\|e\|$ tengsizlikka asosan $M_x \to x$ teskari moslik ham uzluksiz boʻladi.

Teskari operator haqidagi teoremaga asosan $x \to M_x$ moslik ham uzluksiz.

Demak, shunday $C > 0$ son mavjudki, $\|M_x\| \leq C\|x\|$, ya'ni $\frac{1}{\|e\|}\|x\| \leq \|M_x\| \leq C\|x\|$ boʻladi.

Agar X da normani $\|x\|_1 = \|M_x\|$ tenglik bilan aniqlasak, yuqoridagi soʻngi qoʻsh tengsizlikka asosan bu norma X dagi asl normaga ekvivalent boʻladi, ya'ni bir normaga nisbatan yaqinlashuvchi ketma-ketlik, ikkinchi ketma-ketlikka nisbatan ham yaqinlashuvchi ba aksincha. Bu normada esa X Banax algebrasidir, chunki operator normasining xossalariga asosan

$$\|xy\|_1 = \|M_{xy}\| = \|M_x M_y\| \leq \|M_x\| \cdot \|M_y\| = \|x\|_1 \|y\|_1,$$

$$\|e\|_1 = \|M_e\| = \|I\| = 1.$$

Teorema isbot boʻldi.

Endi X kommutativ Banax algebrasiga ta'lluqli ba'zi bir xossalarni koʻrib chiqamiz.

4- ta'rif. Aytaylik J toʻplam X ning chiziqli qism fazosi boʻlsin. Agar ixtiyoriy $x \in X$ va $y \in J$ uchun $xy \in J$ boʻlsa, J toʻplam *ideal* deyiladi.

Ravshanki, faqat nol elementdan iborat $\{\theta\}$ to‘plam, hamda barcha X fazoning o‘zidan iborat to‘plam idealga eng sodda misollardir. Bunday ideallar *trivial ideallar* deyiladi.

Agar biror J_0 ideal X ning, o‘zidan boshqa idealning xos qismi bo‘lmasa, u holda J_0 *maksimal ideal* deyiladi.

2-teorema. *a) idealning hech bir elementi teskari elementga ega emas.*

b) idealning yopilmasi ham trivial bo‘lmagan idealdir.

Isbot. a) agar biror $a \in J$ uchun a^{-1} mavjud bo‘lsa, u holda $e = aa^{-1} \in J$, demak, ixtiyoriy $x \in X$ uchun $x = xe \in J$, ya’ni $X = J$ bo‘lib qoladi. Bu esa J ning trivial emasligiga zid.

b) J ideal bo‘lsa, ma’lumki, uning yopilmasi $\tilde{J}$ qism fazo bo‘ladi. Endi ixtiyoriy $x \in X$ va $y \in \tilde{J}$ elementlarni olamiz. Agar $\{y_n\} \subset J$ va $y_n \to y$ bo‘lsa, u holda X da ko‘paytirish amali uzluksiz bo‘lganligi sababli $xy \in \tilde{J}$ bo‘ladi. Demak, $\tilde{J}$ ideal ekan.

$\tilde{J}$ ning X ga teng emasligi teskari elementga ega bo‘lgan elementlar to‘plami ochiq to‘plam bo‘lishidan [2] kelib chiqadi.

3-teorema. *a) Banax algebrasining har qanday ideali biror maksimal idealning qismi bo‘ladi;*

b) ixtiyoriy maksimal ideal yopiqdir.

Isbot. a) J_0 biror ideal bo‘lsin. Uni o‘z ichiga oluvchi ideallar to‘plamini Q bilan belgilaymiz. Bu Q sistema “$\subset$” munosabat yordamida qisman tartiblangan. Agar $P \subset Q$ biror chiziqli tartiblangan qismi bo‘lsa, ravshanki, $M = \bigcup_{J \in P} J$ ideal bo‘ladi. Ixtiyoriy $J \in P$ uchun $e \in J$ bo‘lgani sababli $e \notin M$, ya’ni M ideal X dan farqli. Demak, har qanday chiziqli tartiblangan sistema yuqori chegaraga ega. Sorn lemmasiga [2] asosan Q da $\tilde{J}$ maksimal element mavjud. Demak, $\tilde{J}$ maksimal ideal va $J_0 \subset \tilde{J}$.

b) Agar J maksimal ideal bo‘lsa, u holda 2-teoremadagi b) ga asosan J ning yopig‘i $\tilde{J}$ ham ideal bo‘ladi va $J \subset J^{\wedge} \neq X$. Bu esa J ning maksimalligiga zid. Demak, $J = \tilde{J}$.

Natija. *Banax algebrasida teskari elementga ega bo‘lmagan har bir element biror maksimal idealda joylashgan bo‘ladi. Xususan, agar X maydon bo‘lmasa, maksimal ideallar to‘plami bo‘sh emas*.

Isbot. Agar biror h element uchun, uning teskarisi mavjud bo‘lmasa, u holda $J = hX = \{hx: x \in X\}$ to‘plam ideal bo‘ladi. $h \neq \theta$ bo‘lgani uchun $J \neq \{\theta\}$. Endi e birlik element J ga tegishli bo‘lmagani sababli $J \neq X$.

Misollar. 1) C– kompleks sonlar maydoni Banax algebrasiga eng sodda misol bo‘ladi, bunda $\|z\| = |z| = \sqrt{x^2 + y^2}$, $z = x + iy$.

2) R^n - fazoda algebraik amallarni koordinatalar bo‘yicha, normani esa $\|x\| = \max\limits_{1 \le i \le n} |x_i|$, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, ko‘rinishda olsak, ravshanki, R^n Banax algebrasi bo‘ladi.

Bu misolda birlik element sifatida $e = (1, 1, \dots, 1)$ olinadi.

3) $[a, b]$ da aniqlangan uzluksiz funksiyalar to‘plami $C[a, b]$ da algebraik amallarni nuqtadagi qiymatlar yig‘indisi va songa ko‘paytmasi kabi kiritib, normani esa $\|f\| = \max\limits_{[a,b]} |f(t)|$, $f \in C[a, b]$ ko‘rinishda olamiz.

Bu $C[a, b]$ ning Banax algebrasi ekanligini ko‘rsatish qiyin emas. Bu algebrada birlik element [a,b] da aynan birga teng funksiya bo‘ladi.

4) l_1 ***algebra***. Bu algebraning elementlari absolyut jamlanuvchi ikki tomonga cheksiz davom etgan

$$x = (\dots, x_{-n}, \dots, x_{-1}, x_0, x_1, \dots, x_n, \dots)$$

ko‘rinishdagi ketma–ketliklar bo‘lib, element normasi

$$\|x\| = \sum_{k=-\infty}^{+\infty} |x_k| \quad (*)$$

kabi olinadi.

Elementlarning yig‘indisi va songa ko‘paytirish amallari har bir koordinata bo‘yicha aniqlanadi. Ixtiyoriy x va y elementlarning $z = x \cdot y$ ko‘paytmasining koordinatalari quyidagicha aniqlanadi:

$$z_n = (x \cdot y)_n = \sum_{k=-\infty}^{+\infty} x_{n-k} y_k$$

Agar l_1 algebraning har bir elementiga ushbu

$$x(t) = \sum_{k=-\infty}^{+\infty} x_k e^{ikt}, 0 \leq t \leq 2\pi),$$

trigonometrik qatorni mos qo‘ysak, u holda yuqoridagi tenglik bilan aniqlangan z_n ketma - ketlik $x(t)$ va $y(t)$ funksiyalarning ko‘paytmasiga mos keladi.

Absolyut yaqinlashuvchi va Furye qatoriga yoyiluvchi funksiyalar algebrasini W bilan belgilab, bu algebrada normani (*) formula yordamida kiritamiz.

Hosil qilingan l_1 va W fazolarning Banax algebralari bo‘lishi osonlikcha tekshiriladi.

Masalan, 4 aksiomani tekshiramiz:

$$\|x \cdot y\| = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} |z_n| = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left| \sum_{k=-\infty}^{+\infty} x_{n-k} y_k \right|$$
$$\leq \sum_{k=-\infty}^{+\infty} \sum_{k=-\infty}^{+\infty} |x_{n-k}||y_k|$$
$$\leq \sum_{n=-\infty}^{+\infty} \left(\sum_{k=-\infty}^{+\infty} |x_{n-k}| \right) \cdot |y_k| = \|x\| \cdot \|y\|.$$

Kiritilgan W va l_1 Banax algebralari o‘zaro izometrik izomorf algebralardir.

W algebrada birlik element sifatida $e(t) \equiv 1$ funksiya olinadi.

Shuningdek, l_1 algebrada $e = \{e_k\}_{k=-\infty}^{+\infty}$ element birlik element vazifasini bajaradi, bu yerda $e_k = \begin{cases} 0, & k \neq 0, \\ 1, & k = 0 \end{cases}$.

Keltirilgan 1–4 misollardagi algebralar kommutativ algebralarga misollardir.

2-§. Involyutiv algebralar

Aytaylik X biror kompleks algebra bo‘lsin.

1-ta’rif. X ning har bir x elementiga biror $x^* \in X$ elementni mos qo‘yuvchi aks ettirish quyidagi

1. $(x + y)^* = x^* + y^*$,

2. $(\lambda x)^* = \bar{\lambda} x^*$,

3. $(xy)^* = y^* x^*$,

4. $x^{**} = x$

to‘rt shartni qanoatlantirsa, u *involyutsiya* deyiladi. Bu yerda $x, y \in X, \lambda \in C$.

Involyutsiya bilan ta’minlangan algebra *involyutiv algebra* deyiladi.

Involyutsiyaga eng muhim misollardan biri bu Gilbert fazosidagi chiziqli chegaralangan operatordan unga qo‘shma operatorga o‘tish amalidir.

Agar x element uchun $x^* = x$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, x *o‘z-o‘ziga qo‘shma element* deyiladi.

1-teorema. *Aytaylik X Banax algebrasi bo‘lsin.U holda ixtiyoriy x element uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

a) $x + x^*$, $i(x - x^*)$, xx^* *elementlar o‘z – o‘ziga qo‘shma elementlardir;*

b) har bir x *element yagona ravishda* $x = u + iv$ *ko‘rinishda tasvirlanadi, bu yerda* u, v *– o‘z-o‘ziga qo‘shma elementlar;*

c) e - o‘z –o‘ziga qo‘shma element;

d) x *ga teskari element mavjud bo‘lishi uchun* x^* *ga teskari element mavjud bo‘lishi zarur va yetarli. Bu holda* $(x^*)^{-1} = (x^{-1})^*$ *munosabat o‘rinli.*

Isbot. a) $(x + x^*)^* = x^* + x^{**} = x^* + x = x + x^*$.

Xuddi shuningdek, $[i(x - x^*)]^* = i(x - x^*)$ va $(xx^*)^* = xx^*$ bo‘lishi ko‘rsatiladi.

b) ravshanki, u va v elementlar sifatida mos ravishda $\frac{x + x^*}{2}$ va $\frac{x - x^*}{2i}$ elementlarni olish mumkin.

Endi, bunday yoyilmaning yagonaligini ko‘rsatamiz: aytaylik x yana bir, boshqa usul bilan yuqoridagidek yoyilgan bo‘lsin, ya’ni $x = u' + iv'$.

Agar $h = v' - v$ elementni olsak, ravshanki, $h^* = h$ bo‘ladi. Shuningdek, $ih = (x - u') - (x - u) = u - u'$ bo‘lgani uchun $(ih)^* = (u - u')^* = u - u' = ih$ ga ega bo‘lamiz. Ikkinchi tomondan $(ih)^* = -ih^* = -ih.$ Demak, $ih = -ih$. Bu tenglikdan $h = 0$, ya’ni $v = v', u = u'$ kelib chiqadi.

c) $e^* = ee^*$ bo'lgani uchun a) ga asosan $(ee^*)^* = (e^*)^* = e$, ya'ni $e = e^*$. Demak, e o'z –o'ziga qo'shma element

d) agar x ga teskari element mavjud bo'lsa, u holda $x^*(x^{-1})^* = (x^{-1}x)^* = e^* = e$, ya'ni $(x^{-1})^* = (x^*)^{-1}$ bo'ladi. Aksincha, $(x^*)^{-1}$ mavjud bo'lsa, u holda $x[(x^*)^{-1}]^* = [(x^*)^{-1}x^*]^* = e^* = e$, ya'ni x ga teskari element mavjud.

Yarim sodda Banax algebralari [8] uchun quyidagi teorema o'rinli.

2-teorema. *Agar X yarim sodda Banax algebrasi bo'lsa, u holda X dagi har qanday involyutsiya uzluksizdir*.

Endi involyutiv va Banax algebralari ichida eng muhimlaridan biri C^* - algebralarga to'xtalamiz.

2-ta'rif. Agar X involyutiv Banax algebrasida ixtiyoriy x element uchun $\|xx^*\| = \|x\|^2$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda X algebra C^* - *algebra* deyiladi.

C^* - algebrada $\|x^*\| = \|x\|$ bo'ladi.

Haqiqatan, $\|x\|^2 = \|xx^*\| \leq \|x\| \cdot \|x^*\|$ tengsizlikdan ravshanki, $\|x\| \leq \|x^*\|$ kelib chiqadi. Shu bilan birga $\|x^*\| \leq \|x^{**}\| = \|x\|$ bo'ladi. Demak, $\|x^*\| = \|x\|$.

3-ta'rif. Agar haqiqiy X Banax algebrasida

1) $ab = ba$; 2) $a^2(ba) = (a^2b)a$;

3) $\|a^2\| = \|a\|^2$; 4) $\|a^2\| \leq \|a^2 + b^2\|$

shartlar bajarilsa, u holda X *Yordan Banax algebrasi* yoki qisqacha *JB – algebra* deyiladi [7, 10].

3-§. Spektr va rezolventa

Aytaylik X Banax algebrasi bo'lsin.

1-ta'rif. Agar biror $x \in X$ uchun $xx^{-1} = x^{(-1)}x = e$ tenglikni qanoatlantiruvchi $x^{-1} \in X$ element mavjud bo'lsa, x^{-1} element x ga *teskari element*, x esa *teskarilanuvchi element* deyiladi.

Agar λ kompleks son uchun $\lambda e - x$ element teskari elementga ega bo'lsa, λ son x element uchun *regulyar nuqta* deyiladi.

Regulyar bo‘lmagan nuqtalar to‘plami x elementning *spektri* deyiladi va $\sigma(x)$ bilan belgilanadi. Demak, $\sigma(x)$ shunday λ sonlar to‘plamiki, $\lambda e - x$ element teskari elementga ega emas.

Regulyar nuqtalarda $R_\lambda x = x(\lambda) = (\lambda e - x)^{-1}$ tenglik bilan aniqlangan $R_\lambda : C \backslash \sigma(x) \to X$ akslantirish x elementning *rezolventasi* deyiladi.

Biror *x* elementning *spektral radiusi* deb $r(x) = \sup\limits_{\lambda \in \sigma(x)} |\lambda|$ songa aytiladi.

Misollar. 1) *X*=**C** – kompleks sonlar Banax algebrasida noldan farqli har bir element teskarisiga ega. Demak, har bir α kompleks son uchun $\sigma(\alpha) = \{\alpha\}$ bo‘ladi.

2) $X = C[a,b]$ Banax algebrasida (1-§ dagi 3-misol) $x \in X$ element teskari elementga ega bo‘lishi uchun $x(t)$ funksiya hamma yerda noldan farqli bo‘lishi zarur va yetarlidir.

Bu esa, $\sigma(x)$ to‘plam $x(t)$ funksiyaning qiymatlari to‘plami bilan ustma-ust tushishini bildiradi. Demak, $x(t)$ funksiya uchun rezolventa va spektral radius quyidagicha bo‘ladi.

$$R_\lambda x = \frac{1}{\lambda - x(t)}, \qquad r(x) = \|x\| = \max_{t \in K} |x(t)|$$

3) $X = L(E)$ operatorlar Banax algebrasida spektr, rezolventa va boshqa tushunchalar operatorlar uchun kiritilgan mos tushunchalar bilan ustma-ust tushadi.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Banax algebralari uchun kiritilgan tushunchalar operatorlar algebralaridagi mos tushunchalarini abstrakt holda umumlashtirilishidir.

Bu izoh quyida keltiriladigan teoremalarga ham taaluqli.

1-teorema. *Banax algebrasidagi x elementning normasi birdan kichik, ya’ni,* $\|x\| < 1$ *bo‘lsa, u holda* $e - x$ *element teskari elementga ega va u*

$$(e - x)^{-1} = e + x + \ldots + x^n + \ldots$$

formula bilan topiladi.

Isbot. Ushbu $s_n = e + x + \ldots + x^n$ ko‘rinishdagi elementlarni olamiz. Ravshanki,

$$\|s_n - s_{n+k}\| = \|x^{n+1} + x^{n+2} + \cdots + x^{n+k}\| \le \sum_{i=1}^{k} \|x\|^{n+i}$$
$$= \frac{\|x\|^{n+1} - \|x\|^{n+k+1}}{1 - \|x\|} \le \frac{\|x\|^{n+1}}{1 - \|x\|}.$$

Bundan $n \to \infty$ da $\|s_n - s_{n+k}\| \to 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Demak, $\{s_n\}$ ketma-ketlik X fazoda fundamental. Banax algebrasi X to‘la bo‘lganligi sababli bu ketma-ketlik biror $s \in X$ elementga yaqinlashadi, va $s(e-x) = \lim\limits_{n\to\infty} s_n(e - x) = \lim\limits_{n\to\infty}(e - x^{n+1}) = e$.

Xuddi shuningdek, $(e-x)s = e$.

Natija. *Agar* $\|x\| \to 0$ *bo‘lsa, u holda* $(e-x)^{-1} \to e$ *bo‘ladi*.

Haqiqatan,

$$\|(e-x)^{-1} - e\| = \|s - e\| = \left\|\sum_{k=1}^{\infty} x^k\right\| \le \sum_{k=1}^{\infty} \|x\|^k =$$
$$= \frac{\|x\|}{1 - \|x\|} \to 0$$

munosabatlardan kerakli natija kelib chiqadi.

2-teorema. *X Banax algebrasidagi biror x_0 element uchun x_0^{-1} mavjud bo‘lsa, u holda $\|h\| \le \|x_0^{-1}\|^{-1}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi h element uchun $x_1 = x_0 + h$ elementning teskarisi mavjud va u $x_1^{-1} = (e + x_0^{-1}h)^{-1}x_0^{-1}$ ga teng.*

Bu teoremadan bir nechta natijalar kelib chiqadi.

1-natija. *Banax algebrasining teskarilanuvchi elementlari to‘plami ochiq to‘plam bo‘ladi.*

2-natija. *Element x ning $R_\lambda x = x(\lambda)$ rezolventasi $C \setminus \sigma(x)$ to‘plamda uzluksiz funksiyadir.*

3-teorema. *X Banax algebrasidagi ixtiyoriy x elementning spektri bo‘sh bo‘lmagan kompakt to‘plam va $r(x) \le \|x\|$ munosabat o‘rinli.*

Isbot. Faraz qilaylik $\sigma(x)$ bo‘sh to‘plam bo‘lsin. U holda X^* ning ixtiyoriy f elementi uchun $F(\lambda) = f(x(\lambda))$ funksiya $C \setminus \sigma(x) = C$ to‘plamda analitik va $\lim\limits_{|\lambda|\to 0} F(\lambda) = 0$ bo‘ladi.

Liuvill teoremasiga asosan u aynan nolga teng funksiya bo‘lib qoladi. Endi f chiziqli funksional bo‘lgani sababli Xan–Banax teoremasiga [1] ko‘ra $x(\lambda)$ rezolventa ham aynan nol bo‘lib qoladi. Bu esa $(\lambda e - x)x(\lambda) = e$ tenglikka zid. Demak, $\sigma(x)$ bo‘sh to‘plam emas.

4-teorema. *Agar Banax algebrasida ixtiyoriy noldan farqli element teskarilanuvchi bo‘lsa, u holda bu algebra C–kompleks sonlar maydoniga izometrik izomorf bo‘ladi.*

Isbot. Ixtiyoriy x elementni olaylik. 3–teoremaga asosan $\sigma(x)$ spektr bo‘sh emas, ya’ni shunday λ son topiladiki, $\lambda e - x$ element uchun teskari element mavjud emas. Shartga ko‘ra $\lambda e - x = 0$, ya’ni, $x = \lambda e.$ Agar x elementga xuddi shu λ sonni mos qo‘ysak, $x \to \lambda$ moslik izomorfizm bo‘ladi. Endi, $\|e\| = 1$ bo‘lgani uchun $\|x\| = \|\lambda e\| = |\lambda|$, ya’ni, $x \to \lambda$ izometrik izomorfizmdir.

Natija. *Banax fazosida aniqlangan ixtiyoriy T chegaralangan chiziqli operatorning spektri bo‘sh emas.*

5-teorema (spektral radius haqidagi teorema). *Banax algebrasida ixtiyoriy x elementning spektral radiusi uchun quyidagi formula o‘rinli:*

$$r(x) = \lim_{n\to\infty} \sqrt[n]{\|x^n\|}.$$

Isbot. X fazodagi ixtiyoriy f uzluksiz chiziqli funksional uchun $F(\lambda) = f(x(\lambda))$ funksiya $C \setminus \sigma(x)$ sohada, xususan $\{\lambda : |\lambda| > r(x)\}$ sohada analitik bo‘ladi. Demak, 1-teoremaga asosan $|\lambda| > \|x\|$ bo‘lganda

$$x(\lambda) = \lambda e - x\ (\lambda e - x)^{-1} = \frac{1}{\lambda}\left(e - \frac{x}{\lambda}\right)^{-1} = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{x^n}{\lambda^{n+1}}$$

bo‘ladi. Bundan

$$F(\lambda) = f\big(x(\lambda)\big) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{f(x^n)}{\lambda^{n+1}}$$

kelib chiqadi.

Analitik funksiyalarning yagonalik xossasiga asosan, bu yoyilma ixtiyoriy $|\lambda| > r(x)$ uchun ham o‘rinli, demak,

$$\lim_{n\to\infty} f\left(\frac{x^n}{\lambda^{n+1}}\right) = 0,$$

ya'ni

$$\left\{\frac{x^n}{\lambda^{n+1}}\right\}$$

ketma – ketlik nolga sust yaqinlashadi, demak, u norma bo'yicha chegaralangan, ya'ni, $\left\|\frac{x^n}{\lambda^{n+1}}\right\| \leq C(\lambda)$, bu yerda $C(\lambda)$ – musbat son. Bundan

$$\lim_{n\to\infty} \|x^n\|^{\frac{1}{n}} \leq \lim_{n\to\infty} \sqrt[n]{|\lambda|^{n+1}C(\lambda)} = |\lambda| \lim_{n\to\infty} \sqrt[n]{|\lambda|C(\lambda)} = |\lambda|.$$

Bu tengsizlik ixtiyoriy λ $(|\lambda| > r(x))$ uchun o'rinli bo'lgani sababli $\overline{\lim_{n\to\infty}} \|x^n\|^{\frac{1}{n}} \leq r(x)$ bo'ladi. Agar $\lambda \in \sigma(x)$ bo'lsa, u holda $\lambda^n \in \sigma(x^n)$ bo'ladi.

Haqiqatan, agar $(\lambda^n e - x^n)^{-1}$ mavjud bo'lganda edi, u holda

$$(\lambda e - x)^{-1} = \left(\lambda^{n-1}e + \lambda^{n-2}x + \cdots + x^{n-1}\right)$$

bo'lar edi, bu esa $\lambda \in \sigma(x)$ munosabatga zid. Ixtiyoriy $\mu \in \sigma(x)$ uchun 3-teoremaga asosan $|\mu| \leq \|x\|$.

Endi $\mu = \lambda^n$ deb olsak, $\lambda \in \sigma(x)$ munosabatdan $\lambda^n \in \sigma(x^n)$, ya'ni, $|\lambda|^n \leq \|x^n\|$ kelib chiqadi. Demak, $|\lambda| \leq \sqrt[n]{\|x^n\|}$. Bundan n ixtiyoriy bo'lganligi sababli

$$r(x) = \sup_{\lambda\in\sigma(x)} |\lambda| \leq \underline{\lim_{n\to\infty}} \sqrt[n]{\|x^n\|}.$$

Bu tengsizlikni yuqoridagi tengsizlik bilan solishtirsak, qaralayotgan limitning mavjudligi va bizga kerakli natija kelib chiqadi.

4-§. Gilbert fazosida aniqlangan operatorlar

Endi Gilbert fazosida aniqlangan operatorlarning maxsus sinflarini o'rganamiz.

2-ta'rif. Berilgan H Gilbert fazosida aniqlangan P chiziqli operator $P^2 = P$ va $P^* = P$ shartlarni qanoatlantirsa, u *ortogonal proeksiyalash operatori* deyiladi.

Qulaylik uchun ortogonal proeksiyalash operatori o'rniga qisqacha *proektor* so'zi ishlatiladi.

6-teorema. *Ixtiyoriy proektor chegaralangan operatordir va* $P \neq \theta$ *bo'lsa, u holda* $\|P\| = 1$ *bo'ladi.*

Isbot. Ushbu $\|P\|^2 = (Px, Px) = (P^* Px, x) = (P^2 x, x) = (Px, x)$ munosabatdan, Koshi–Bunyakovskiy tengsizligiga ko'ra $\|Px\|^2 \leq \|Px\| \|x\|$. Demak, $\|Px\| \leq \|x\|$, ya'ni, P chegaralangan va $\|P\| \leq 1$. Ikkinchi tomondan, $\|P\| = \|P^2\| = \|P\|^2$, ya'ni $P \neq \theta$ bo'lsa $\|P\| \geq 1$. Shunday qilib, $\|P\| = 1$.

3-ta'rif. Berilgan H Gilbert fazosida biror L qism to'plam olamiz.

$$L^{\perp} = \{y : \forall x \in L \text{ uchun } (x, y) = 0\}$$

to'plam L ning *ortogonal to'ldiruvchisi* deyiladi.

Aytaylik L to'plam H ning yopiq qismi fazosi, $L^{\perp}$ esa uning ortogonal to'ldiruvchisi bo'lsin. U holda $H = L \oplus L^{\perp}$ bo'ladi. Demak, ixtiyoriy $x \in H$ elementni yagona usul bilan $x = y + z$, $y \in L$, $z \in L^{\perp}$ ko'rinishda yozish mumkin. P operatorni $Px = y$ tenglik orqali aniqlaymiz, ya'ni, P operator har bir x ga uning L dagi proeksiyasini mos qo'yadi. Kiritilgan operatorning proektor ekanligini ko'rsatamiz.

a) P chiziqli operator. Haqiqatan, aytaylik $x', x'' \in H$ va $x' = y' + z', y' \in L, z' \in L^{\perp}, x'' = y'' + z''$, $y'' \in L$, $z'' \in L^{\perp}$ bo'lsin. U holda ixtiyoriy $\alpha, \beta \in C$ uchun

$$\alpha x' + \beta x'' = (\alpha y' + \beta y'') + (\alpha z' + \beta z'')$$

bo'ladi, bu yerda $\alpha y' + \beta y'' \in L, \alpha z' + \beta z'' \in L^{\perp}$. Agar yuqoridagi yoyilmada y va z yagona usul bilan aniqlanishini hisobga olsak, u holda

$$P(\alpha x' + \beta x'') = \alpha y' + \beta y'' = \alpha P x' + \beta P x''$$

bo'ladi, ya'ni, P– chiziqli operator ekan.

b) Endi $P^* = P$ bo'lishini tekshiramiz. Yuqoridagi tengliklarda y' va z'' hamda y'' va z' lar o'zaro ortogonal bo'lgani uchun

$$(Px', x'') = (y', y'' + z'') = (y', y'') = (y' + z', y'') = (x', Px'')$$

bo'ladi. Shunday qilib, ixtiyoriy $x', x'' \in H$ uchun $(Px', x'') = (x', Px'')$, ya'ni, $P = P^*$.

c) Endi, $P^2 = P$ bo'lishini tekshiramiz. Agar $x \in L$ bo'lsa, ortogonal yoyilmada $z = 0$. Shuning uchun $Px = x$. Ixtiyoriy

$x' \in H$ uchun $Px' \in L$. Demak, $P^2x' = P(Px') = Px'$, ya'ni $P^2 = P$. Demak, P – proektor.

7-teorema. *Har qanday P proektor uchun H ning shunday L qism fazosi mavjudki, ixtiyoriy $x \in H$ uchun Px element x elementning L dagi proeksiyasiga teng.*

Isbot. $Px = x$ tenglamaning yechimlaridan iborat bo'lgan to'plamni L orqali belgilaylik. P chiziqli operator bo'lgani uchun, L chiziqli qism fazoni tashkil qiladi. L ning yopiq ekanligini ko'rsatamiz. Faraz qilaylik, $\{x_n\} \subset L$ va $x_n \to x_0$ bo'lsin. U holda $Px_n = x_n, n = 1, 2, \ldots$ bo'ladi. Demak,

$$Px_0 - x_n = Px_0 - Px_n = P(x_0 - x_n).$$

Agar $\|P\| \leq 1$ munosabatini hisobga olsak, $\|Px_0 - x_n\| \leq \|x_0 - x_n\|$ bo'ladi. Ya'ni $n \to \infty$ da $\|Px_0 - x_0\| = 0, Px_0 = x_0$ ni hosil qilamiz. Demak, L-yopiq qism fazo ekan.

Endi, $P^2 = P$ shartga ko'ra H ning ixtiyoriy x elementi uchun $P^2x = P(Px) = Px$ tenglik o'rinli. Bundan Px elementning L ga tegishliligi kelib chiqadi.

Teoremaning isbotini yakunlash uchun $z = x - Px$ elementning L ga ortogonal ekanini ko'rsatish yetarli. Haqiqatan, L ning ixtiyoriy y elementi uchun $y = Py$ bo'ladi. Demak,

$$(x - Px, y) = (x - Px, Py) = (P^*(I - P)x, y) =$$
$$= (P(I - P)x, y) = ((P - P^2)x, y) = (0, y) = 0.$$

Shunday qilib, H ning ixtiyoriy x elementi uchun Rx element L ga tegishli va $x - Px$ element L ning ortogonal to'ldiruvchisiga tegishli, ya'ni P operator L ga ortogonal proeksiyalash operatori ekan.

Endi proektorlar ustida amallarni ko'ramiz. Umuman aytganda, proektorlar yig'indisi, ayirmasi va ko'paytmasi proektor bo'lishi shart emas.

8-teorema. *Agar P proektor bo'lsa, u holda $I–P$ ham proektor bo'ladi*.

Isbot. Haqiqatan,

$$(I - P)^2 = I - 2P + P^2 = I - P \text{ va } (I - P)^* = I^* - P^* = I - P.$$

Demak, $I - P$ - proektor.

9-teorema. *Agar ikkita P va Q proektorlar berilgan bo‘lsa, u holda ularniing ko‘paytmasi ham proektor bo‘lishi uchun* $PQ = QP$ *(*) tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir*.

Agar P proektor H ni L′ qism fazoga, Q proektor H ni L″ qism fazoga proeksiyalasa, u holda (*) shart bajarilganda $R = PQ$ *(**) proektor H ni L′ va L″ qism fazolarning kesishmasi* $L = L' \cap L''$ *ga proeksiyalaydi*.

Isbot. Agar PQ proektor bo‘lsa, $Q = (PQ)^* = Q^*P^* = QP$, ya’ni (*) o‘rinli. Endi (**) shartni tekshiramiz. Ushbu $Rx = P(Qx) \in L'$, $Rx = Q(Px) \in L''$ munosabatlardan $Rx \in L' \cap L''$ kelib chiqadi. Demak, L qism fazo L' va L'' larning kesishmasiga qism ekan.

Ikkinchi tomondan, agar $x \in L' \cap L''$, bo‘lsa, u holda $Rx = P(Qx) = x$, ya’ni, $L' \cap L''$ kesishma L ning qismi. Bu ikki xulosadan $L = L' \cap L''$ kelib chiqadi.

Endi aytalik (*) o‘rinli bo‘lsin. U holda

$(PQ)^2 = (PQ)(PQ) = P^2Q^2 = PQ$ va $(PQ)^* = Q^*P^* = QP = PQ$.

Shunday qilib, PQ proektor ekan. Yuqorida ko‘rganimizdek, bundan $PQ = R$ tenglik kelib chiqadi.

10- teorema. *Chekli sondagi* $P, Q, \dots, S$ *proektorlarning yig‘indisi proektor bo‘lishi uchun, ularga mos* $L', L'', \dots, L'''$ *qism fazolarning ixtiyoriy ikkitasi o‘zaro ortogonal bo‘lishi zarur va yetarlidir.*

Bu shart bajarilganda, $P + Q + \dots + S = R$ bo‘lib, bu yerda R ga mos L qism fazo $L = L' \oplus L'' \oplus \dots \oplus L'''$ to‘g‘ri yig‘indiga teng.

Isbot. Aytaylik $L', L'', \dots, L'''$ qism fazolarning ixtiyoriy ikkitasi o‘zaro ortogonal bo‘lsin. U holda yuqoridagi teoremaga asosan

$$PQ = QP = PS = SP = \dots = 0.$$

Demak, $(P + Q + \dots + S)^2 = P^2 + Q^2 + \dots + S^2 = P + Q + \dots + S$. Shuningdek, $(P + Q + \dots + S)^* = P + Q + \dots + S$. Shunday qilib, $P + Q + \dots + S$ – proektor ekan.

Endi $P + Q + \dots + S = R$ tenglik yuqoridagidek tekshiriladi.

11-teorema. *P va Q proektorlarning ayirmasi proektor bo‘lishi uchun* L' *fazoning* L'' *fazoga qism bo‘lishi zarur va* *yetarlidir. Bu shart bajarilganda* $Q - P = R$, *bu yerda* R *proyektorga mos qism fazo* $L = L' \ominus L''$ *(*L' *ning* L'' *gacha ortogonal to'ldiruvchisi) bo'ladi.*

Bu teoremaning isboti yuqoridagi teoremalarning isboti kabi bo'ladi.

Foydalanillgan adabiyotlar

1. Саримсоқов Т.А. Функционал анализ курси, Т.:Ўқитувчи,-1986. 400б.
2. Колмогоров А.Н., Фомин С.В. Элементы теории функций и функционального анализа. М.: Наука, 1989.-624с.
3. Канторович Л.В., Акилов Г.П. Функциональный анализ. М. Наука, 1977. 622 с.
4. Ayupov Sh.A., Ibragimov M.M., K.K.Kudaybergenov. Funksional analizdan misol va masalalar. Nukus. Bilim, 2009.-304b.
5. Abdullayev J.I., G‘anixujayev N.N., Shermatov M.H., Egamberdiyev O.U. Funksional analiz. Toshkent, Samarqand, 2009.-424b.
6. Данфорд Н., Шварц Дж.Т. Линейные операторы. Общая теория. М. ИЛ. 1962.
7. Саримсоқов Т.А., Аюпов Ш.А., Хожиев Ж.Х., Чилин В.И. Упорядоченные алгебры. Тошкент, Фан,1983.
8. Диксмье Ж. С* - алгебры и их представления. М. Наука. 1974.
9. Брателли У., Робинсон Д. Операторные алгебры и квантовая статистическая механика. М. Мир.1982.
10. Аюпов Ш.А. Классификация и представление упорядоченных йордановых алгебр. Ташкент. Фан. 1986.
11. Жевлаков К.А. и др. Кольца близкие к ассоциативным. М. Наука. 1978.
12. Саримсоқов Т.А. Полуполя и теория вероятностей. Ташкент. Фан. 1978.
13. Эмх Ж. Алгебраические матоды статистической механики и квантовой теории поля. М. Мир. 1976.
14. Макаров И.П. Дополнительные главы математического анализа. М., Просвещение, 1968.-308 с.

15. Кириллов А.А., Гвишиани А.Д. Сборник задач и теорем по курсу функционального анализа. М.:Наука.1979.
16. Аюпов Ш.А., Бердиқулов М.А., Турғунбаев Р.М. Функциялар назарияси. Т.2004 й.-146 б.
17. Ayupov Sh.A., Berdiqulov M.A., Turgunbayev R.M. Funksional analiz. T. 2007.-136 b.
18. Алимов А.А., Бердикулов М.А. Решение задач по функциональному анализу. Т. 2005.
19. Ғаймназаров Г., Ғаймназаров О.Г. Функционал анализ курсидан масалалар ечиш. Т.: “Фан ва технология”, 2006.-114б.
20. Садовничий В.А. Теория операторов. М.:Дрофа. 2004,-382с.
21. Городецкий В.В. и др. Методы решения задач по функциональному анализу. Киев. 1990.-479с.

MUNDARIJA

Buyurtma №75. Adadi 300. Hajmi 7,75 b.t.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida chop etildi.